

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

NAMANGAN MUXANDISLIK TEXNOLOGIYA INSTITUTI

Qo'lyozma xuquqida

Tursunov Toxir Boxodirovich

Mavzu: Qishloq xo'jaligi tarmog'ida raqobatbardoshlikni oshirishning tashkiliy
iqtisodiy asoslari.

Mutaxassislik:5340100 – “Iqtisodiyot”

Bakalavr akademik darajasini olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ish ko'rib chiqildi va ximoyaga ruxsat etildi: _____ Kafedra mudiri: i.f.n., dotsent R.Ismoilov « ____ » « _____ » 2014 yil	Ilmiy raxbar: _____ i.f.n. dotsent B.I. Raximov « ____ » « _____ » 2014 yil
Fakul tet dekani: _____ i.f.n. dotsent K.Matkarimov « ____ » « _____ » 2014 yil	

Namangan-2014

NAMANGAN MUXANDISLIK TEXNOLOGIYA INSTITUTI
“MUXANDISLIK TEXNOLOGIYA” FAKULTETI
“SICHTE va IQTISODI” KAFEDRASI

Tasdiqlayman _____
Kafedra mudiri: i.f.n. dots. R.B.Ismoilov
« _____ » _____ 2014 yil

5340100 – “Iqtisodiyot” ta’lim yo’nalishi 14vu-10 guruxi talabasi
Tursunov Toxir Boxodirovich

BITIRUV MALAKAVIY ISHI BO’YICHA TOPSHIRIQ

Talaba Tursunov Toxir Boxodirovich

1. Bitiruv malakaviy ishining mavzusi Mavzu: Qishloq xo’jaligi tarmog’ida raqobatbardoshlikni oshirishning tashkiliy iqtisodiy asoslari.

« _____ » _____ 2014 yil kafedra majlisida ma’qullangan.

2. Bitiruv malakaviy ishini topshirish muddati _____

3. Bitiruv malakaviy ishini bajarishga doir boshlang’ich ma’lumotlar.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy asosi bo’lib, borliqni bilishning dialektik uslubi, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari va mazkur muammoni xal qilish bo’yicha agrar iqtisodchi olimlar tomonidan yaratilgan ilmiy g’oyalar va yo’nalishlar xisoblanadi. Ilmiy ishni amalga oshirishda, iqtisodiy taxlil, monografik kuzatish, statistik guruxlash, ilmiy umumlashtirish, mantiqiy fikrlash va boshqa usullardan keng foydalanildi. Bitiruv malakaviy ishi jarayonida xukumat tomonidan qabul qilingan xuquqiy-me’yoriy xujjatlar, O’zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Davlat statistika qo’mitasi, Qishloq va suv xo’jaligi vazirligi, Fermer xo’jaliklari kengashi xamda boshqa vazirlik va idoralar ma’lumotlaridan keng foydalanildi.

4. Xisoblash-tushuntirish yozuvlarning tarkibi (ishlab chiqiladigan masalalar ro’yxati)

1. Iqtisodiyot tarmoqlariga yo’naltirilgan investitsiyalar dinamikasi. 2. Respublika kiritilgan chel el investitsiyalarining iqtisodiyot tarmoqlari bo’yicha tarkibi. 3. Qishloq xo’jaligi ekin turlari maydonlarining dinamikasi. 4. Respublika qishloq xo’jaligini texnika vositalari bilan ta’minlanish darajasi. 5. Qishloq xo’jaligi ishlab chiqarishini mineral o’g’itlar bilan ta’minlanish darajasi. 6. Namangan viloyatida 2013 yilda paxta va g’alla yetishtirish uchun sarflagan xarajatlar miqdori. 7. Respublikada paxta urug’ligi xarajatlarining dinamikasi. 8. Respublikada yetishtirilgan paxta xom ashyosining sifat ko’rsatkichlarining dinamikasi. 9. Respublikada meva-sabzavot va uzum maxsulotlari eksportining dinamikasi. 10. Respublika bo’yicha qishloq xo’jaligi maxsulotlarni sotish kanallari ulushining o’zgarishi. 11. Jaxonda eng yirik qishloq xo’jalik maxsulotlari eksportyori bo’lgan davlatlar. 12. EI davlatlarida qishloq xo’jaligini byudjetdan qo’llab-quvvatlash darajasi. 13. Agrosanoat klasterini tashkil etish bosqichlari. 14. Qishloq xo’jaligi tarmog’ini innovatsion yangilash va raqobatbardoshligini oshirishning uzoq muddatli strategiyasini ishlab chiqishning printsipial tizimi. 15. Mamlakatimiz agrar tarmog’ini barqaror rivojlantirish va raqobatbardoshligini oshirish straetgiyasini belgilab beruvchi asosiy maqsadli davlat dasturlari.

5. Chizma ishlar ro’yxati (chizmalar nomi aniq ko’rsatiladi.)

1. Raqobatbardoshlikka ta’sir ko’rsatuvchi omillar tizimi. 2. Raqobat muxitining rivojlanishiga ta’sir ko’rsatuvchi omillar tizimi. 3. Qishloq xo’jaligi raqobatbardoshligiga ta’sir etuvchi omillar tizimi. 4. Qishloq xo’jaligi tarmog’i raqobatbardoshligini ta’minlashni davlat tomonidan tartibga solishning asosiy yo’nalishlari. 5. Qishloq xo’jaligi ishlab chiqarishini davlat tomonidan tartibga solish va iqtisodiy qo’llab-quvvatlash tizimi

6. Bitiruv ishi bo'yicha maslaxatchi(lar)

№	Bo'lim mavzusi	Maslaxatchi o'qituvchi F.I.Sh.	Imzo	Sana
			Topshiriq berildi	Topshiriq bajarildi
1	Kirish	B.I.Rahimov	24.12.13	14.01.14
2	1.1.Qishloq xo'jaligi tarmog'i raqobatbardoshligini oshirishning ob'ektiv zaruriyati va nazariy asoslari	B.I.Rahimov	14.01.14	04.02.14
3	1.2.Qishloq xo'jaligi tarmog'i raqobatbardoshligini aniqlovchi ko'rsatkichlar va uni baxolashning uslubiy asoslari	B.I.Rahimov	04.02.14	18.02.14
4	o Qishloq xo'jaligi tarmog'i raqobatbardoshlik darajasi va uni oshirishga ta'sir etuvchi omillar taxlili	B.I.Rahimov	18.02.14	04.03.14
5	2.2.Qishloq xo'jaligi tarmog'i raqobatbardoshligini oshirishning iqtisodiy mexanizmlari	B.I.Rahimov	04.03.14	25.03.14
6	2.3.Qishloq xo'jaligi tarmog'ining raqobatbardoshligini ta'minlash bo'yicha xorijiy davlatlar tajribalari	B.I.Rahimov	25.03.14	15.04.14
7	3,1.Qishloq xo'jaligi tarmog'i raqobatbardoshligini ta'minlashni davlat tomonidan muvofiqlashtirish tizimini takomillashtirish	B.I.Rahimov	15.04.14	06.05.14
8	3.2.Qishloq xo'jaligi tarmog'i raqobatbardoshligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish	B.I.Rahimov	06.05.14	20.05.14
9	3.3.Isloxotlarning yangi bosqichida qishloq xo'jaligi tarmog'i raqobatbardoshligini oshirishning kontseptual asoslari va istiqbollari	B.I.Rahimov	20.05.14	03.06.14
10	XULOSA	B.I.Rahimov	03.06.14	10.06.14

Topshiriqlar to'liq bajarildi _____

7. Bitiruv ishini bajarish rejasi

№	Bitiruv ishi bosqichlarining nomi	Bajarish muddati (sana)	Tekshiruvdan o'tganlik belgisi
1	Kirish	14.01.14	
2	1.1.Qishloq xo'jaligi tarmog'i raqobatbardoshligini oshirishning ob'ektiv zaruriyati va nazariy asoslari	04.02.14	
3	1.2.Qishloq xo'jaligi tarmog'i raqobatbardoshligini aniqlovchi ko'rsatkichlar va uni baxolashning uslubiy asoslari	18.02.14	
4	2.1. Qishloq xo'jaligi tarmog'i raqobatbardoshlik darajasi va uni oshirishga ta'sir etuvchi omillar taxlili	04.03.14	
5	2.2.Qishloq xo'jaligi tarmog'i raqobatbardoshligini oshirishning iqtisodiy mexanizmlari	25.03.14	
6	2.3.Qishloq xo'jaligi tarmog'ining raqobatbardoshligini ta'minlash bo'yicha xorijiy davlatlar tajribalari	15.04.14	
7	3,1.Qishloq xo'jaligi tarmog'i raqobatbardoshligini ta'minlashni davlat tomonidan muvofiqlashtirish tizimini takomillashtirish	06.05.14	
8	3.2.Qishloq xo'jaligi tarmog'i raqobatbardoshligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish	20.05.14	
9	3.3.Isloxotlarning yangi bosqichida qishloq xo'jaligi tarmog'i raqobatbardoshligini oshirishning kontseptual asoslari va istiqbollari	03.06.14	
10	XULOSA	10.06.14	

Bitiruv ishi raxbari: Raximov Baxrom Ibroximovich
(familiyasi va ismi)

« _____ »
(imzo)

Topshiriqni bajarishga oldim: Tursunov Toxir Boxodirovich
(familiyasi va ismi)

« _____ »
(imzo)

Topshiriq berilgan sana 2014 yil _____
Ximoyaga ruxsat 2014 yil _____

Kafedra mudiri: Ismoilov Ravshan Baxridinovich
(familiyasi va ismi)

« _____ »
(imzo)

MUNDARIJA

KIRISH	4
I. BOB. QISHLOQ XO'JALIGI TARMOG'I RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	8
1.1. Qishloq xo'jaligi tarmog'i raqobatbardoshligini oshirishning ob`ektiv zaruriyati va nazariy asoslari	8
1.2. Qishloq xo'jaligi tarmog'i raqobatbardoshligini aniqlovchi ko'rsatkichlar va uni baxolashning uslubiy asoslari.....	22
II. BOB. QISHLOQ XO'JALIGI TARMOG'I RAQOBATBARDOSHLIK DARAJASINING XOZIRGI XOLATI	34
2.1. Qishloq xo'jaligi tarmog'i raqobatbardoshlik darajasi va uni oshirishga ta`sir etuvchi omillar taxlili.....	34
2.2. Qishloq xo'jaligi tarmog'i raqobatbardoshligini oshirishning iqtisodiy mexanizmlari.....	43
2.3. Qishloq xo'jaligi tarmog'ining raqobatbardoshligini ta`minlash bo'yicha xorijiy davlatlar tajribalari.....	53
III. BOB. ISLOXOTLARNING YANGI BOSQICHIDA QISHLOQ XO'JALIGI TARMOG'I RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	60
3.1. Qishloq xo'jaligi tarmog'i raqobatbardoshligini ta`minlashni davlat tomonidan muvofiqlashtirish tizimini takomillashtirish.....	60
3.2. Qishloq xo'jaligi tarmog'i raqobatbardoshligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....	72
3.3. Isloxotlarning yangi bosqichida qishloq xo'jaligi tarmog'i raqobatbardoshligini oshirishning kontseptual asoslari va istiqbollari.....	83
XULOSA	94
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	98

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Respublikamiz agrar tarmog'ida amalga oshirilayotgan iqtisodiy isloxoqlar natijasida, qishloq xo'jaligini islox qilishning tashkiliy, xuquqiy va institutsional asoslari yaratildi. Shu bilan birga bugungi kunga kelib xo'jalik yuritishning ikkita shakli, fermer va dexqon xo'jaliklari asosiy deb qabul qilindi va qishloq xo'jalik maxsulotlari ushbu xo'jalik yuritish shakllari tomonidan ishlab chiqarilmoqda. Ularning samarali faoliyat yuritishini ta'minlash maqsadida turli xil xizmat ko'rsatish va ta'minot infratuzilma sub'ektlari tashkil etildi.

Isloxoqlarning keyingi bosqichida ishlab chiqarilayotgan maxsulotlar sifatini yaxshilash, ularning raqobatbardoshligini oshirish, qishloq xo'jalik maxsulotlari eksport xajmini ko'paytirish, qishloq xo'jaligiga ko'rsatilayotgan xizmatlar tannarxini kamaytirish va sifatini oshirish, umuman tarmoqda raqobat muxitini shakllantirish asosiy vazifalardan bo'lishi lozim.

Ammo, shuni ta'kidlash lozimki, respublikamizda yetishtirilayotgan qishloq xo'jaligi maxsulotlari o'zining sifat va iqtisodiy ko'rsatkichlari bilan tashqi va ichki bozorlarda boshqa mamlakatlar maxsulotlari bilan raqobatbardosh bo'la olmayotir. Shuningdek, paxta va g'alla yetishtirishda maxsulot sotib olishdagi monopoliyani saqlanib qolinishi va baxo mexanizmini takomillashmaganligi xamda maxsulot yetishtirishda shartnomada belgilangan miqdorni qanday bo'lsa xam bajarilishiga xarakat qilinishi xam maxsulot sifatiga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

Bundan tashqari, qishloq xo'jaligi maxsulotlarini ishlab chiqaruvchilarga xizmat ko'rsatish tizimida raqobat muxitini kuchaytirish, xizmatlar turini kengaytirish va sifatini oshirish asosida turdosh shaxobchalar o'rtasida sog'lom raqobat muxitini shakllantirish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi uchun zarur bo'lgan resurslarni taqsimlashni davlat monopoliyasidan chiqarish masalalari o'z yechimini topmagan. Bu esa o'z navbatida, resurslar va xizmatlar sifatini pasayishiga va ularning narxini oshishiga, pirovard natijada esa qishloq xo'jalik maxsulotlari raqobatbardoshligini ta'minlashga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Mazkur

muammolar bugungi kunda chuqur taxlil qilinmagan va ularning maxsulotlar raqobatbardoshligiga ta`siri qanday darajada ekanligi ilmiy asoslanmagan.

Bu borada mamlakat Prezidenti I.A.Karimov “Maxsulot raqobatdoshligini ta`minlash uchun ishlab chiqarishni texnik va texnologik yangilash bo`yicha katta va kichik loyixalarni izlash buning uchun zarur mablag` va manbalarni topish-bu xar bir korxonaga rahbari va muxandis-texnik xodimlarining birinchi navbatdagi eng muxim vazifasi va majburiyati bo`lmog`i kerak” deb aloxida ta`kidlagan¹.

Yuqoridagilarni xisobga olib, mamlakat agrar tarmog`i raqobatbardoshligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini takomillashtirish bo`yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri bo`lib xisoblanadi. Ushbu xolatlar dissertatsiya mavzusini tanlashga asos bo`ldi.

Muammoning o`rganilganlik darajasi. Qishloq xo`jaligi raqobatbardoshligini oshirishning nazariy va amaliy jixatlari bir qator respublikamiz va xorijiy mamlakatlar agrar iqtisodchi olimlari tomonidan o`rganilgan va ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, M. Porter, V.Oyken, K.Xartman, L.Kristofer, K.Preskot, A.Yu.Yudanov, R.A.Fatxuddinov, S.P. Aukutsionek, ye.N. Panarina, V.I. Timofeev, E.Vel ken, T.N. Guguchkina, P.Duchin, M.I. Zaynalova, ye.F. Zlobin, V.A. Klyuchak, N.Ya. Kalyujnova, O.G.Strokova, E.N. Kro`lato`x va boshqalar xamda respublikamiz olimlari A.M. Qodirov, K.A. Choriev, M.Sharifxo`jaev, N.S.Xushmatov, R.Rasulev, R.X. Xusanov, S.S. G`ulomov, F.X. Nazarova va Ch.Murodovlar tomonidan tadqiq etilgan.

Bittiruv malakaviy ishining maqsadi. Bitiruv malakaviy ishi ishining maqsadi – qishloq xo`jaligi raqobatbardoshligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo`yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari. Qo`yilgan maqsaddan kelib chiqib Bitiruv malakaviy ishida quyidagi vazifalar xal etilishi belgilab olindi:

¹ I.A.Karimov “Jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralari”. Toshkent . “O`zbekiston” 2009. 40 b.

- qishloq xo'jaligi raqobatbardoshligining iqtisodiy mohiyati, uni oshirishning ob'ektiv zaruriyati va nazariy asoslari ilmiy jihatdan ochib beriladi;

- qishloq xo'jaligi raqobatbardoshligi darajasini baxolashning o'ziga xos xususiyatlari yoritiladi va uslubiy asoslari takomillashtiriladi;

- qishloq xo'jaligi raqobatbardoshlik darajasining hozirgi xolatining taxlillari asosida uni oshirishga ta'sir etuvchi omillar tizimlashtiriladi xamda ta'sir etish darajasi ilmiy asoslanadi;

- qishloq xo'jaligi raqobatbardoshligini ta'minlashda iqtisodiy dastaklardan foydalanish darajasi taxlil qilinadi va ilmiy xulosalar tayyorlanadi;

- qishloq xo'jaligi raqobatbardoshligini ta'minlash bo'yicha xorijiy davlatlar tajribasi o'rganiladi va undan foydalanishning asosiy yo'nalishlari belgilab beriladi;

- qishloq xo'jaligi raqobatbardoshligini ta'minlashni davlat tomonidan muvofiqlashtirish tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi;

- qishloq xo'jaligi raqobatbardoshligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar tayyorlanadi;

- qishloq xo'jaligi raqobatbardoshligini oshirishning kontseptual asoslari ishlab chiqiladi va istiqbol yo'nalishlari belgilab beriladi.

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti. O'zbekiston Respublikasi agrar tarmog'ida faoliyat yuritayotgan qishloq xo'jaligi korxonalarini, ularga xizmat ko'rsatuvchi va moddiy-texnika resurslari bilan ta'minlovchi tashkilotlar, qishloq xo'jaligi maxsulotlarining ichki va tashqi bozorlari faoliyati Bitiruv malakaviy ishi ob'ekti bo'lib xisoblanadi. Aloxida monografik Bitiruv malakaviy ishilar Namangan viloyatida olib borildi.

Bitiruv malakaviy ishi predmeti. Ishining predmeti bo'lib qishloq xo'jaligi raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha yuzaga keladigan tashkiliy-iqtisodiy va xuquqiy munosabatlar tizimi xisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining uslubi va uslubiyoti. Bitiruv malakaviy ishining nazariy asosi bo'lib, borliqni bilishning dialektik uslubi, O'zbekiston

Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari va mazkur muammoni xal qilish bo'yicha agrar iqtisodchi olimlar tomonidan yaratilgan ilmiy g'oyalar va yo'nalishlar xisoblanadi.

Ilmiy ishni amalga oshirishda, iqtisodiy taxlil, monografik kuzatish, statistik guruxlash, ilmiy umumlashtirish, mantiqiy fikrlash va boshqa usullardan keng foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishi jarayonida xukumat tomonidan qabul qilingan xuquqiy-me'yoriy xujjatlar, O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Davlat statistika qo'mitasi, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Fermer xo'jaliklari kengashi xamda boshqa vazirlik va idoralar ma'lumotlaridan keng foydalanildi.

Bittiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilishi va xajmi. Bittiruv malakaviy ishi kirish, uchta bob, xulosa va takliflar xamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

1. BOB. QISHLOQ XO'JALIGI TARMOG'I RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.

1.1. Qishloq xo'jaligi tarmog'i raqobatbardoshligini oshirishning ob`ektiv zaruriyati va nazariy asoslari

Mamlakatimizda bozor munosabatlarining rivojlanishi raqobatning kuchayishiga olib kelmoqda va maxalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan raqobatbardoshlikni oshirishning bozor mexanizmlari va dastaglarini shakllantirish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Shu nuqtai-nazardan milliy iqtisodiyotimizning barcha tarmoqlarida, ayniqsa qishloq xo'jaligi tarmog'ida raqobatbardoshlikni oshirish dolzarb masalalardan biri bo'lmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimiz agrar tarmog'ida kuzatilayotgan ayrim xolatlar, xususan qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining bozor munosabatlariga to'laqonli moslasha olmayotganliklari, xizmat ko'rsatish, moddiy texnika ta'minoti va maxsulotlarni sotish tizimlarida kuchli monopol tashkilotlarning mavjudligi, qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash yetarli darajada emasligi, maxsulot ishlab chiqarish samaradorligining pastligi va boshqa bir qator shu kabi omillarning mavjudligi ta'sirida tarmoqning raqobatbardoshlik darajasi pastligicha qolmoqda.

Qishloq xo'jaligi tarmog'ida amalga oshirilayotgan bozor islohotlarini ta'kidlagan xolda aytish joizki, ushbu o'zgarishlarning natijalarini va ularni yetishtirilayotgan maxsulotlarning raqobatbardoshligiga ta'sirini baxolash, tarmoqning barqaror rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan muammolarni aniqlash va qishloq xo'jaligi maxsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar majmuini shakllantirish zaruriyati vujudga kelmoqda.

Ma'lumki, iqtisodiyotni erkinlashtirish va bozor munosabatlari sharoitida raqobatbardoshlikning globallashuvi zamonaviy texnika va texnologiyalarga xamda innovatsiyalarga asoslangan barqaror iqtisodiy o'sishning asosiy manbai xisoblanadi. Bunday sharoitda mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi ko'p xollarda raqobatbardoshlik omillariga – inson resurslari salohiyatiga, ularning malakasiga, zamonaviy ilmiy Bitiruv malakaviy ishilarining natijalariga, axborot va

telekommunikatsiya texnologiyalariga, biznes madaniyati va muxitlariga bog'liqdir.

Zamonaviy iqtisodiyotda “raqobatbardoshlik” eng ommalashgan va ko'p qo'llanilayotgan kategoriyalardan biri xisoblangan xolda xam nazariy jixatdan, xam amaliy jixatdan talqin etilmoqda. Nazariy jixatdan olganda, raqobatbardoshlik turli daraja va mezonlarni o'zida aks ettiruvchi qo'p qirrali kategoriya xisoblanadi. Amaliy jixatdan esa, mamlakat real iqtisodiy siyosatining samaradorligini ko'rsatuvchi dastag bo'lib xizmat qiladi.

Raqobat borasidagi evolyutsion nazariy qarashlarni o'rganish turli davrlar, mamlakatlar va iqtisodiyotlar bo'yicha izlanish olib borgan olimlarning qarashlari turlicha ekanligini ko'rsatmoqda. Ilmiy adabiyotlarda ushbu tushunchani ko'rinishi, tarkibiy va funktsional jixatlari bo'yicha talqin etilmoqda.

Ko'rinishi jixatidan talqin etilganda asosan etimologiya tomonidan yondashiladi, ya'ni “raqobat” lotinchadan tarjima qilinganda to'qnashuv, musobaqalashuv ma'nosini bildiradi. Masalan, A.Smit tomonidan raqobat narxlarni oshiruvchi (taklif kamayganda) yoki narxlarni pasaytiruvchi (taklif yuqori bo'lganda) o'zaro musobaqa sifatida talqin etiladi². Umuman olganda, ushbu kontsepsiya raqobat kurashi uslublarini takomillashtirish yo'nalishlari va mexanizmlarini xamda mamlakatning raqobatbardoshligini ta'minlovchi dastaglar tizimini o'zida aks ettiradi.

M.Porter xam ushbu kontsepsiyani targ'ib etuvchi namoyondalardan biri xisoblanadi³. Uning ilmiy asarlarida o'tgan asrning 80 yillarida keng ommalashgan milliy raqobat ustuvorliklari va bugungi kunda xam keng foydalanilayotgan mamlakatlarning raqobatbardoshlik kontsepsiyalari nazariyalari asos qilib olingandir.

Tarkibiy jixatdan talqin etilganda nomidan ko'rinib turibdiki, bozorning tarkibiy bo'g'inlarini taxlil qilish va u amal qilayotgan fundamental sharoitlarga asoslaniladi. Moxiyatiga ko'ra, tarkibiy kontsepsiyaning avvalgi ikki

² A.Smit. Issledovanie o prirode i prichine bogatstva narodov, 1776 y.

³ M.Porter. Konkurentnaya strategiya», 1980g., «Konkurentnoe preimuhestvo», 1985 y.

kontsepsiyaga nisbatan asosiy farqi, unga dinamik jihatdan emas balki, statistik jihatdan yondashilganligidadir.

Raqobatbardoshlikning tarkibiy kontsepsiyasi A.O.Kurno⁴, F.I.Edjuorta⁵, J.Robinson⁶, E.Chemberlen⁷ va boshqa taniqli olimlarning izlanishlarida talqin etilgan bo'lib, bozorlarning to'rt asosiy turlari: sof (mukammal) raqobat, monopol raqobat, oligopoliya va monopoliya borasidagi zamonaviy g'arbiy nazariyaga asos solingandir.

Bugungi kunda raqobatbardoshlikning tarkibiy kontsepsiyasi P.Samuel son, R.Makkonnell, L.Bryu, S.Fisher, R.Dornbush, R.Shmalenzi, X.Zaydel, R.Temmen kabi taniqli iqtisodchilarning ilmiy Bitiruv malakaviy ishilarini orqali g'arb iqtisodiyot fanida keng yoritib berilgandir.

Raqobatning funktsional kontsepsiyasi esa, uning iqtisodiyotdagi o'rnini va jami iqtisodiy jarayonlarga ta'sirini o'rganadi. Raqobatbardoshlik nazariyasining ushbu yo'nalishida xam ko'plab taniqli olimlarning izlanishlarini ta'kidlab o'tish maqsadga muvofiqdir. Masalan, I.Shumpeter⁸ raqobatni eskilarning yangilar bilan musobaqalashuvi sifatida talqin etgan. Boshqa bir avstriyalik iqtisodchi F. fon Xayekning⁹ ta'kidlashicha, raqobat – bu “ochiq tadbir” bo'lib, unda yashirin amallarni ochiqchasiga bajarish imkoniyati vujudga keladi. Umuman olganda F. fon Xayek fikricha, raqobat qo'yilgan maqsadlarni amalga oshirishning samarali yo'nalishlarini aniqlash imkonini beradi.

Raqobatbardoshlik kategoriyasining tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ushbu kategoriya klassik iqtisodchi A.Smitning¹⁰ Bitiruv malakaviy ishilaridan boshlab talqin etila boshlandi. A.Smit o'zining asarida xalqaro savdoda mamlakatning mutloq ustuvorligini ko'rsatuvchi uchta boshlang'ich omillarni – yer, kapital, tabiiy resurslar va mexnatni belgilab berdi va milliy iqtisodiyotda ochiqchilik tamoyilining ustuvorligini isbotladi. A.Smit tomonidan o'rtaga

⁴ A.O.Kurno. Issledovanie matematicheskix printsipov bogatstva, 1838 y.

⁵ F.I.Edjuorta. Teoriya monopolii, 1897 y.

⁶ J.Robinson. Ekonomicheskaya teoriya nesovershennoy konkurentsii, 1933 y.

⁷ E.Chemberlen. Teoriya monopolisticheskoy konkurentsii, 1933 y.

⁸ I.Shumpeter. Kapitalizm, sotsializm i demokratiya, 1942 y.

⁹ F. fon Xayek. Individualizm i ekonomicheskii poryadok, 1948 y.

tashlangan g'oya keyinchalik D.Rikardo¹¹ tomonidan xam rivojlantirildi. U nisbiy ustuvorlik nazariyasini ishlab chiqdi, unga asosan mamlakatda biror tovarni yuqori samara bilan ishlab chiqarilayotgan xolatda, import qilinayotgan boshqa tovarni xam ushbu mamlakatda kam xarajatlar qilgan xolda ishlab chiqarish mumkindir. Nisbiy ustuvorlik nazariyasi shved olimlari E.Xeksher (1919g.) i B. Olin (1935g.) tomonidan omillar bilan ta`minlanganlik nazariyasiga o'zgartirildi. Shuningdek, Bitiruv malakaviy ishichi V.Leont yev (XX asrning 70 - yillari) tomonidan xam nisbiy ustuvorlik nazariyasi yanada rivojlantirildi.

Ushbu yo'nalishda izlanish olib borgan iqtisodchilar Y.Shumpeter (Avstriya) va R.Soloular (AQSh) tomonidan raqobatbardoshlikni ta`minlashda ijtimoiy omillar muxim axamiyat kasb etishi ta`kidlandi.

XX asrda M.Porter tomonidan zamonaviy dunyo iqtisodiyoti sharoitlarida raqobat ustuvorliklariga bag'ishlangan yirik izlanishlar amalga oshirildi va aynan shuning uchun, mamlakatlar raqobatbardoshligi zamonaviy nazariyasining asoschisi sifatida uning o'rni beqiyosdir. M.Porterning fikricha, raqobatbardoshlik va uning tarkibiy qismi bo'lgan raqobat ustuvorligi tabiiy resurslardan qay darajada samarali foydalanilayotganligiga bog'liqdir. Xar qanday mamlakatning raqobat ustuvorligi uning iqtisodiyoti tarmoqlarining raqobat ustuvorliklaridan tashkil topadi. Xar bir tarmoqning raqobat ustuvorligi ishlab chiqarishning ilmiy-texnologik darajasi, mexnat resurslarining malakasi va ularning yangi bilimlar xamda innovatsiyalarga moslashishi orqali belgilanadi.


Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyot tarmoqlari va xar qanday turdagi korxonalarining barqaror rivojlanishi, tovarlar bozoridagi mustaxkam joylashuvi uning raqobatbardoshlik darajasi bilan, ya`ni raqobatchilarning tovarlariga nisbatan baxosi va boshqa turdagi xususiyatlari bilan iste`molchilar uchun yuqori jozibador bo'lgan tovarlar ishlab chiqarishi va taklif qilishlari bilan belgilanadi. Bu xolat, korxonalar va tashkilotlarning bozor sharoitlaridagi erkin raqobatga moslashish imkoniyatlarini tavsiflaydi.

¹⁰ A.Smit. Issledovanie o prirode i prichinax bogatstva narodov, 1776 y.

¹¹ D.Rikardo. Printsipo' politicheskoy ekonomii, 1817g .

Raqobatbardoshlikning muxim jixatlaridan biri – raqobat ustuvorliklaridir, ya`ni korxonalarda biznes uchun startegik jixatdan muxim bo`lgan va raqobat kurashida g`olib bo`lish uchun bevosita va bilvosita ko`maklashuvchi imkoniyatlarning mavjudligidir. Raqobat kurashida muvaffaqiyat qozonish va bozorlarda liderlikni qo`lga kiritish uchun korxonalar va tashkilotlar tomonidan maxsulotlar ishlab chiqarish va sotish tizimlarida, baxolarni belgilashda, xarajatlarni kamaytirishtirishda zamonoviy texnologiyalar va innovatsiyalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Raqobatbardoshlikka ta`sir ko`rsatuvchi omillar tizimi.



Manba: Muallifning ilmiy Bitiruv malakaviy ishilarida tuzilgan 1.1 – rasm.

Umuman olganda, raqobatbardoshlik doimiy bo'lmagan xolda, raqobatchilarga nisbatan ustunlik vatq o'tgan sari tashqi va ichki omillar ta'sirida boy berilishi mumkin. Raqobatbardoshlikning tashqi omillari quyidagilardan tashkil topadi: moliya-kredit, investitsiya va soliq siyosatlari, bozorning raqobatbardoshlik darajasi, to'lov imkoniyatiga ega bo'lgan talabning xajmi, bozor infratuzilmalari, maxalliy ishlab chiqaruvchilarga nisbatan proteksionistik siyosat, maxsulotlarni standartlashtirish va sertifikatlash, bozor kon'yunkturasi to'g'risidagi axborotlar bilan ta'minlanganlik darajasi, tabiiy-iqlim sharoitlari va boshqalar.

Raqobatbardoshlikning ichki omillari esa quyidagilardan iboratdir: maxsulotlarning raqobatbardoshligi, korxonalarining moliyaviy xolati, marketing faoliyati, ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish, innovatsion faoliyat va texnologiyalar, korxonalarining o'lchami va boshqalar.

Raqobatbardoshlikning muxim tarkibiy jihatlaridan biri raqobatbardosh maxsulot bo'lib – bu boshqa shu turdagi maxsulotlarga nisbatan afzalliklarga ega bo'lgan va yuqori talab asosida foydalanilayotgan maxsulotdir. Raqobatbardosh maxsulot tushunchasi nisbiy bo'lib, aniq bir bozorga va savdo qilish davriga tegishlidir, bu asosan qishloq xo'jaligi maxsulotlariga to'g'ri keladi. Maxsulotlarning raqobatbardoshligi uning sifati, baxosi, qadoqlanishi, tovar belgilari, reklamasi kabi bir qator ko'rsatkichlar orqali aniqlanadi. Maxsulotlar va umuman korxonalar raqobatbardoshligining asosiy omillaridan biri marketing faoliyati xisoblanadi. Marketing xizmati tomonidan nafaqat sotib oluvchilarning talablarini va ishlab chiqarayotgan maxsulotlariga bo'lgan ko'nikmalarini o'rganish, balki korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish va savdo xajmini ko'paytirish uchun ishlab chiqarilayotgan maxsulotlarga bo'lgan talabni shakllantirish va rag'batlantirish kabi vazifalarni xam bajarishi lozimdir. Shu nuqtai-nazardan reklama xam muxim ahamiyat kasb etadi.

Reklama O'zbekiston Respublikasining “Reklama to'g'risida”gi Qonunida quyidagicha talqin etiladi “reklama – bevosita yoki bilvosita foyda (daromad) olish

maqsadida yuridik yoki jismoniy shaxslar, maxsulot, shu jumladan tovar belgisi, xizmat ko'rsatish belgisi va texnologiyalar to'g'risida xar qanday shaklda va xar qanday vositalar yordamida qonun xujjatlariga muvofiq tarqatiladigan maxsus axborot"dir¹².

Shuningdek, maxsulotlarning raqobatbardoshligi uning baxosiga xam bog'liqdir. Baxo siyosati qo'yilgan maqsadga muvofiq bir qator vazifalarni xal etishga qaratiladi: korxonaning faoliyatining uzluksizligini ta'minlashga, daromadni maksimallashtirishga va boshqalarga.

Umuman olganda, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning strategik maqsadlariga, qishloq xo'jaligi tarmog'ida barqaror iqtisodiy o'sishga va tarmoqning raqobatbardoshligini oshirishga faqatgina agrar munosabatlarning (iqtisodiy, ijtimoiy, xuquqiy va boshqalar) o'ziga xos xususiyatlarini xisobga olgan xolda to'laqonli raqobat muxititini tashkil etish orqaligina erishish mumkin.

Agrar ishlab chiqarish bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bu ushbu tarmoqning tarkibiga va ishlab chiqarish sub`ektlarining o'zaro munosabatlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ularning orasida ishlab chiqarishda yirik o'lchamdagi yer maydonlaridan asosiy omil sifatida foydalanilishi, ob-xavo sharoitlariga bevosita bog'liqligi, ishlab chiqarish tsiklining kengligi, ishlab chiqarish jarayonlarida tirik organizmlardan foydalanilishi kabilar asosiylari xisoblanadi. Bu esa, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari va korxonalariga nisbatan qishloq xo'jaligi tarmog'ida ishlab chiqarish tenologiyalaridan foydalanish darajasi pastligini, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish jarayonlarining asosiy qismi fermer xo'jaliklari a`zolarining qo'l mexnatiga asoslanganligini ko'rsatadi.

Ta`kidlash joizki, bunday raqobat kurashida fermer xo'jaliklari ustuvor ekanliklarini ko'rsatishdi. Moddiy ishlab chiqarishning boshqa tarmoqlarida ishlab chiqarish ko'lamlari bo'yicha tejamkorlik shunga olib keldiki, bunda sezilarli darajada yirik bo'lgan korxonalar ustuvor xisoblanadi. Buning asosiy sabablari texnologik jarayonlar ustidan samarali nazorat olib borish va xar bir jarayonni

¹² O'zbekiston Respublikasining "Reklama to'g'risida"gi Qonuni, 4 modda, 2 xat boshi, 1998 yil.

aloxida ajratgan xolda boshqarish imkoniyatlari xisoblanadi. Iqtisodiy adabiyotlarda firmalarning optimal o'lchamini belgilash borasidagi bir nechta yo'nalishlar mavjuddir. Klassik yo'nalishda ishlab chiqarishdagi mavjud texnologiyalar orqali yondashiladi, vaxolanki, bu asosan ishlab chiqarish xajmining quyi chegarasi mavjudligini ko'rsatadi xolos. Bugungi kunda ko'p firmalarning o'lchamini optimal deb xisoblangan o'lchamlardan yirik ekanligini ko'rish mumkin. Neoklassik yo'nalishda esa, firmalarni, maxsulot ishlab chiqarish bosqichida tranzaktsion xarajatlarni minimallashtiruvchi shartnomalar yig'indisi deb talqin etiladi. Ya'ni, firma ixtisoslashtirilgan resurslar kooperatsiyasini yengillashtiruvchi institut sifatida amal qiladi. Bunda, markazlashtirilgan boshqaruvdan bo'ladigan foyda firmaning o'zida resurslarning xarakati bo'yicha tranzaktsion xarajatlardan yuqori bo'lgan xolda, korxonalarining o'lchami ortishi mumkin. Ushbu yo'nalishdan bozorda turli o'lchamdagi korxonalar va turli mulkchilik shakllarining mavjud bo'lishini tavsiflovchi uslubiy asos kelib chiqadi.

Xozirda qishloq xo'jaligidagi raqobat maxalliy bozorlarda o'rtnashish va rivojlanish uchun bo'ladigan kurashni xar doim xam o'zida aks ettirmaydi. Ko'p xolatlarda qulay sharoitlarda faoliyat yuritayotgan va maxsulotlarining tannarxi nisbatan past bo'lgan boshqa mintaqalarning ishlab chiqaruvchilari qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari uchun asosiy raqobatchilar xisoblanadi. Bunday raqobat bilan kurashish murakkab va ayrim vaziyatlarda esa mumkin bo'lmagan xolat xisoblanadi. Ko'pchilik qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari sanoat korxonalaridan farqli o'laroq o'z xo'jaliklarining joylashadigan o'rnini tanlay olish imkoniyatlariga ega emasdir, bu esa ularning bir qismi doimiy ravishda monopol ustuvorlikka ega ekanligini ko'rsatadi. Bu xolat o'z navbatida, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining xududiy ixtisoslashuvini belgilaydi. Shuningdek, ishlab chiqarish infratuzilmalarning rivojlanishi qanchalik yuqori bo'lsa, ixtisoslashuv darajasi xam shunchalik yuqori bo'ladi, bu esa qulay sharoitlarga ega bo'lgan ishlab chiqaruvchilarning raqobat ustuvorliklarini yanada kuchaytiradi xamda qishloq xo'jaligi yalpi maxsuloti xajmining ortishiga olib keladi.

Yuqorida ta`kidlaganimizdek, aynan raqobat muxitining mavjudligi va rivojlanganligi tarmoqda ishlab chiqarishning optimal tarkibini shakllantirish va barqaror rivojlanishni ta`minlash imkonini beradi. Boshqa tomondan esa, agrar ishlab chiqarishda boshqa tarmoqlarga nisbatan ko`proq xolatlarda maxalliy monopoliya rivojlangan bo`lishi mumkin. Ya`ni, maxalliy ishlab chiqaruvchilar transport xarajatlarining yo`qligi xisobiga, boshqa mintaqalardagi nisbatan yuqori sifatli va arzon maxsulotlar ishlab chiqaruvchilarga nisbatan ustun bo`lishlari mumkin. Qishloq xo`jaligi maxsulotlarining ko`p qismi ularni tashish va saqlash xarajatlari yetarli darajada yuqori ekanligi bilan ajralib turadi. Bu xam dexqonchilik xam chorvachilik maxsulotlariga tegishlidir.

Shuning uchun, bugungi kunda turli raqobat kuchlarining ta`siri ostida qishloq xo`jaligida ishlab chiqarishning nisbatan kichik bo`lgan tarkibi vujudga keldi.

Qishloq xo`jaligi ishlab chiqaruvchilari o`rtasidagi raqobat kurashi ta`sir doirasining pasayishiga xam aynan kichik tovar ishlab chiqaruvchi tarkib sabab bo`ldi. Iqtisodiyotning boshqa tarmoqlaridan farqli o`laroq, raqobatchi tushunchasi qishloq xo`jaligi korxonalarini uchun mushoxadali bo`lib, bunda daromadlarini ko`paytirish yoki saqlab qolish maqsadlari uchun asosiy turtki bo`ladigan va unga qarab mo`ljallanish mumkin bo`lgan aniq bir raqobatchilar (musobaqadosh) mavjud emasdir. Raqobatchilar orasida g`olib bo`lish ishtiyoqi yoki ulardan ortda qolmaslikka intilish esa sezilarsiz darajadadir. Tashqaridan qaraganda bu xolat raqobatning mavjud emasligini ko`rsatishi mumkin. Lekin, qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishida, “mukammal raqobat”ga yaqinlashish sharoitida, ishlab chiqaruvchilarga ta`sir ko`rsatuvchi raqobatchilar ko`rinishidagi tashqi kuchlar sifatida raqobatning pasayishi fenomeni kuzatiladi. Xaqiqatda esa, raqobat kurashining yanada yuqori bosqichga o`tishi ro`y beradi. Bozor munosabatlarining rivojlanishi natijasida ishlab chiqaruvchilar o`rtasidagi gorizontal raqobat o`z kuchini yo`qotmoqda. Agrar biznesda ma`lum bir darajada qishloq xo`jaligi maxsulotlarini sotish tizimi monopollashmoqda. Biroq, ushbu bozorda ro`y berayotgan umumiy integratsiya jarayonlari bilan bog`liq tarzda, tovarning kelib

chiqishi bilan bog'liq bo'lgan barcha bosqichlarni o'zida birlashtiruvchi vertikal integratsiyalashgan va kooperatsiyalashgan tarkiblar o'rtasida yanada kuchliroq bo'lgan raqobat kuzatilmoqda. Bunga misol qilib agrofirkmalarni keltirish mumkin. Ushbu birlashmalarning tarkibida bo'lgan xolda qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari xam ushbu raqobatda bevosita ishtirok etishga majburdirlar. Shu nuqtai-nazardan zamonaviy agrar ishlab chiqarishda aniq bir tumandagi raqobat sub`ektlari o'rtasidagi raqobat kurashining ta`siri sezilarli darajada pasaygan xolda asosan xududiy kooperatsiyalashgan tarkiblarning raqobatlashuvi raqobatning o'ziga xos xususiyati xisoblanadi.

Shuningdek, qishloq xo'jaligi tarmog'idagi raqobatning o'ziga xususiyatlarini belgilovchi quyidagi bir qator omillar mavjuddir. Ularning orasida ko'p xolatlarda maxsulot ishlab chiqarishga ketgan xarajatlarni qoplash imkoniyatini bermayotgan va xo'jaliklarning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta`sir ko'rsatayotgan "baxolar nomutanosibli" muammosi eng asosiylaridan biri xisoblanadi. Ma`lumki, xo'jaliklarning yuqori xosil olishi va yuqori mexnat unumdorligiga erishishi yetarli darajada zamonaviy texnikalardan foydalanishga asoslanadi. Bugungi kunda, ishlab chiqarish jarayonida aynan yuqori quvvatli va ko'p funktsiyali texnikalardan (traktorlar, kombaynlar) foydalanilishi natijasida qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari keng ko'lamli ishlarni o'z vaqtida bajarishga erishmoqdalar. Shuning bilan birga, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi, ayniqsa dexqonchilik soxasi mavsumiy xisoblanadi, ekinlarni ekish va yig'ishtirib olish jarayonlarida bajariladigan ishlarning xajmi keskin ortadi. Ekinlarni ekish va yig'ishtirib olish ishlarining optimal vaqti juda qisqa bo'lib, ushbu jarayonda yuqori samarali texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, ob-xavo sharoitlarining doimiy tarzda qulay bo'lmasligi xam ushbu texnikalardan to'laqonli va samarali foydalanish imkoniyatini bermaydi. Lekin, xar bir xo'jalik o'zining texnika va uskunalar parkiga ega bo'lishga majburdirlar, biroq ushbu parkdan ishlab chiqarish tsiklining ko'p qismida foydalanilmaydi. Masalan, g'alla o'rish kombaynlari, chopiq traktorlari, seyalkalar, transopt tarktorlaridan ishlab chiqarish tsiklining tegishli qismidagida foydalaniladi xolos. Shuningdek, qishloq

xo'jaligini barqaror rivojlantirishda almashlab ekishning ilmiy asoslangan tizimi xam muxim axamiyat kasb etadi va bu xam turli qishloq xo'jaligi mashinalari tizimlaridan foydalanish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Lekin, aytish joizki, qishloq xo'jaligining mavsumiylik omili ta'sirida mavjud texnika va uskunalardan foydalanish koeffitsienti sezilarli darajada pastdir. Bundan tashqari, qishloq xo'jaligi maxsulotlarining bir qismi (yalpi maxsulotning 15-20 foizi atrofida) tarmoqning o'zida iste'mol qilinadi, bu esa o'z navbatida iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga nisbatan taqqoslanganda ishlab chiqarishning tovarlilik darajasini pasaytiradi. Xosilni yig'ishtirib olish va maxsulotlardan foydalanish vaqtlarining o'zaro mos kelmasligi xam yirik xajmli ko'p sonli omborxonalar qurishni talab etadi, lekin ushbu inshootlardan xam yilning ko'p qismida foydalanilmaydi. Bu esa, o'z navbatida doimiy xarajatlarning ortishiga olib keladi.

Shuning bilan birga, qishloq xo'jaligi bozoriga davlat va yirik monopol tashkilotlar xam kuchli ta'sir ko'rsatadi. Natijada qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari mukammal raqobat uchun zarur bo'lgan mustaqil faoliyat yuritishlari uchun ma'lum ma'noda imkoniyatga ega bo'lmaydilar. Bularning barchasi qishloq xo'jaligi bozorining mukammal faoliyat yuritishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bozorda bir vaqtning o'zida samaradorlik darajasi turli bo'lgan ko'p sonli ishlab chiqaruvchilarning ishtirok etishi va ularning orasida eng kuchli bo'lganlari xar doim xam raqobat kurashida g'olib bo'la olmasliklari aynan yuqoridagi sabablar bilan izoxlanadi.

Ta'kidlash joizki, qishloq xo'jaligida infratuzilmalarning yetarli darajada rivojlanmaganligi, maxsulot saqlanadigan omborlarning yetishmasligi yoki mavjud emasligi, birlamchi qayta ishlash va tayyorlash punktlarining yo'qligi, yo'l-transport imkoniyatlarining noqulaygili kabilar xam raqobatbardoshlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, tegishli transport va aloqa vositalarining rivojlanmaganligi, konsalting, axborot, lizing va boshqa turdagi xizmatlarni ko'rsatish talab darajasida emasligi xam ishlab chiqaruvchilarning erkin raqobat bozorlarida muvaffaqiyatli ishtirok etishlariga to'sqinlik qiluvchi omillar xisoblanadi.

Shuningdek, qishloq xo'jaligi maxsulotlarini qayta ishlash tizimidagi monopoliyaning ta'sirini kamaytirishda maxsulot ishlab chiqaruvchilar bilan ularni qayta ishlovchilar o'rtasida integratsiyani rivojlantirishga aloxida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Integratsiya sanoat va qishloq xo'jaligi o'rtasida o'zaro manfaatli bo'lgan shartnomaviy baxolarni belgilash, ishlab chiqarishni xamkorlikda rivojlantirish, xarajatlarni kamaytirish, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilishga ko'proq mablag' yo'naltirish, mexnat unumdorligini oshirish, pirovarida esa qishloq xo'jaligi tarmog'ining raqobatbardoshligini oshirishga imkon beradi.

Xozirda ishlab chiqarish omillarining ta'siri xam samarali raqobatni rivojlantirish va raqobatbardoshlikni oshirishga imkon bermayapti.

Birinchi, texnik-iqtisodiy omillar. Bugungi kunda agrar ishlab chiqarishda moliyaviy va moddiy-texnika resurslarining zaxirasi mavjud emasdir. Tarmoqning ishlab chiqarish infratuzilmasi xam yetarli darajada rivojlanmagandir. Asosiy ishlab chiqarish fondlarining eskirganlik darajasi (jismoniy va ma'naviy) yuqoridir, tarmoqning fond bilan qurollanganlik darajasi pasayib bormoqda, qishloq xo'jaligi yerlarining xolati yomonlashmoqda, sho'rlanganlik darajasi kuchaymoqda.


Ikkinchi, tarmoqda faoliyat yuritishning xuquqiy jixatlari tugallanmagan ko'rinishga ega bo'lib va takomillashtirish talab etiladi.

Uchinchi, tashkiliy-boshqaruv sharoitlarining nomukammalligi. Ya'ni, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining tarkibini takomillashtirish zaruriyati, raqobat kurashi ishtirokchilarini shakllantirish boshlang'ich bosqichda ekanligi, boshqarish shakli va uslublarini bozor munosabatlari talablariga mos kelmasligi, boshqarishda rag'batlantirish omillaridan yetarli darajada foydalanmaslik.

To'rtinchi, agrar sektor faoliyatidagi ijtimoiy-psixologik omillarning bozor munosabatlariga mos kelmasligi. Ya'ni, ko'plab qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining bozor munosabatlari sharoitida mustaqil faoliyat yuritishga psixologik jixatdan tayyor emasliklari, o'zini-o'zi boshqarish etikasi bozor an'analarning mavjud emasligi va bozor sharoitida raqobat kurashi borasidagi bilimlarning yetishmasligi.

Shuni aloxida ta`kidlash lozimki, tarmoqda resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, moliviy xolatni yaxshilash va barqaror rivojlanishni ta`minlashda xam raqobat muxitining rivojlanganligi muxim axamiyat kasb etadi. Iqtisodiyot tarmoqlarida, xususan argar tarmoqda raqobat muxitini rivojlantirish ko`p qirrali jarayon bo`lib, unda erkin raqobatning rivojlanishi xam bir qator omillarga bog`liqdir.

Raqobat muxitining rivojlanishiga ta`sir ko`rsatuvchi omillar tizimi



1.2 – rasm.

Bu esa, ushbu omillarni chuqurroq o'rgangan xolda ularni tizimlashtirishni talab etadi. Biz ularni quyidagi keltirilgan tarzda tizimlashtirini taklif etamiz. Bizningcha, qishloq xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan xolda ularni to'qqizta yo'nalishda tizimlashtirish va ushbu omillarning bir-biriga chambarchas bog'liq ekanligini xisobga olgan xolda ularning ta'sirini kompleks tarzda baxolash lozim. Bunda, omillarni o'rganilayotgan ob'ektga tegishliligi bo'yicha talqin etish maqsadga muvofiqdir. Qishloq xo'jaligi tarmog'ining raqobatbardoshligini oshirishda yana bir muxim masalalardan biri qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining, xususan fermer va dexqonlarning malakasi va ularning shaxsiy tajribalari xisoblanadi. Bu borada taniqli iqtisodchi A.Marshallning fikrini keltirib o'tishni lozim topdik.

Uning ta'kidlashicha "fermer ro'y berayotgan o'zgarishlar va isloxotlar bilan mos ravishda faoliyatini rivojlantirish uchun avloddan-avlodga o'tib kelayotgan dexqonchilik madaniyatini o'rgangan xolda o'z tajribalari yanada rivojlantirishi zarurdir.

Bunda, ular ushbu tajribalardan ishlab chiqarish jarayonida samarali foydalanishning asosiy yo'nalishlarini belgilashda qishloq xo'jaligi fani va amaliyotida erishilayotgan natija va yutuqlarni yetarli darajada kuzatib borishlari uchun imkoniyatga ega bo'lishlari lozimdir"¹³.

Umuman olganda qishloq xo'jaligi tarmog'i raqobatbardoshligini oshirishdan asosiy maqsad qishloq xo'jaligi maxsulotlari bilan ichki va tashqi bozorlarda mustaxkam o'rin egallash va maxalliy ishlab chiqaruvchilarning daromadlarini oshirish xisoblanadi.

Ma'lumki, bugungi kunda yetishtirilayotgan maxsulotlarning tannarxi yuqori, sifat ko'rsatkichlari past bo'lganligi uchun raqobatbardosh emas va tashqi bozorga chiqish imkoniyati chegaralangan. Vaxolanki, fermerlar daromadining asosiy qismi bozordan kelishi, boshqacha qilib aytganda, raqobatbardosh

maxsulotlar yetishtirish orqali bozorlarda mustaxkam o'ringa ega bo'lish asosida daromadlarini oshirishlari lozim. Shundan kelib chiqib, isloxotlarni navbatdagi bosqichida asosiy vazifalardan biri maxsulot raqobatbardoshligini oshirish va maxsulot eksportini ko'paytirish bo'lishi kerak.

1.2. Qishloq xo'jaligi tarmog'i raqobatbardoshligini aniqlovchi ko'rsatkichlar va uni baxolashning uslubiy asoslari

Ma'lumki, xar bir tarmoqning raqobatbardoshligini oshirib borish, ishlab chiqilayotgan maxsulot va ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini yaxshilash xisobiga tarmoq yalpi maxsuloti qiymatini ko'paytirish masalalari iqtisodiyotni erkinlashtirish va isloxotlarni chuqurlashtirish sharoitida olib borilayotgan iqtisodiy isloxotlarning bosh maqsadi xisoblanadi.

Respublika agrar tarmog'ida olib borilayotgan iqtisodiy isloxotlar yangi bosqichga kirib bormoqda. Ushbu tarmoqda amalga oshirilgan iqtisodiy isloxotlarning o'tgan bosqichlarida asosan boshqarish tizimini takomillashtirish, iqtisodiy munosabatlarni shakllantirish, ta'minot va xizmat ko'rsatish tizimini rivojlantirish, qishloq xo'jaligi korxonalarini moliyalashtirish, kredit bilan ta'minlash, soliq va sug'urta mexanizmlarini takomillashtirish kabi masalalarga aloxida ahamiyat qaratildi.

Bizningcha, isloxotlarning yangi bosqichida yetishtirilayotgan qishloq xo'jalik maxsulotlari va tarmoqda ko'rsatilayotgan xizmatlar raqobatbardoshligini oshirishning tashkiliy, iqtisodiy mexanizmlari va xuquqiy asoslarini takomillashtirish asosida yetishtirilayotgan maxsulotlar va ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini jaxon standartlariga yaqinlashtirishga qaratish lozim. Shuningdek, qishloq xo'jaligi tarmog'i raqobatbardoshligini oshirishda fermer xo'jaliklari tomonidan davlat buyurtmasi asosida paxta va g'alla ishlab chiqarish tizimini takomillashtirish, davlat buyurtmasidan ortiqcha yetishtirilgan maxsulotni

¹³ Marshall A. Printsipo' ekonomicheskoy nauki. Stranitsa 492, 1990 g

sotish tizimining xuquqiy va iqtisodiy mexanizmlari ishlab chiqish masalalariga xam aloxi e`tibor berish zarur. Chunki, bugungi kunda ular faoliyati faqatgina rejani bajarish bilan chegaralanib, daromadini past darajada bo`lishiga va ularning asosiy qismini zarar bilan ishlashiga olib kelmoqda. Bu esa tarmoq raqobatbardoshligini oshirishgasalbiy ta`sir qilayotgan asosiy omillardan bo`lmoqda.

Ta`kidlash lozimki, respublika Xukumati tomonidan qishloq xo`jaligi tarmog`i raqobatbardoshligini oshirishning tashkiliy asoslarini takomillashtirish bo`yicha bir qator o`ziga xos tadbirlar olib borilmoqda, bular avvalambor, xo`jaliklarning bir xil maxsulot yetishtirishga ixtisoslashtirish, kooperatsiya jarayonlarini rivojlantirish, yetishtirilgan maxsulotlarni sotish tizimini takomillashtirish, qishloq xo`jaligi tovar maxsuloti yetishtiruvchilarni moddiy rag`batlantirish bilan bog`liq.

Lekin, bugungi kunda tarmoq raqobatbardoshligini ta`minlash bo`yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarda asosiy e`tibor paxta-g`allachilik yo`nalishidagi fermer xo`jaliklarini barqaror rivojlantirishga ustuvorlik berilib kelinmoqda. Vaxolanki, bozor iqtisodiyotiga o`tish sharoitida tarmoq raqobatbardoshligini ta`minlash nafaqat qishloq xo`jaligida ishlab chiqarish jarayonini to`g`ri tashkil etish, balki, ishlab chiqarilgan maxsulotlarni qayta ishlash, saqlash, qadoqlash, sotish va boshqa turli xizmatlarni ko`rsatish jarayonini xam jadal rivojlantirishni taqozo etadi.

Ma`lumki, xar bir tarmoqniq raqobatbardoshligini oshirishning asosiy omillaridan bir barqaror rivojlangan narx (baxo) munosabatlari xisoblanadi. Shuni xisobga olgan xolda qishloq xo`jaligi tarmog`ida ishlab chiqarilayotgan (meva, sabzavot, poliz, chorvachilik maxsulotlari) maxsulotlarga baxo belgilash tizimi bosqichma-bosqich erkinlashtirilib, bozor iqtisodiyoti qonunlari asosida ishlab chiqarilayotgan qishloq xo`jaligi maxsulotlarga baxo belgilash tizimi yaratildi.

Ammo, qishloq xo`jaligi tarmog`ida olib borilgan iqtisodiy isloxotlar natijasida ishlab chiqarilayotgan maxsulotlarga belgilanayotgan narxlarni bosqichma-bosqich erkinlashtirilishi natijasida bozor iqtisodiyotiga mos baxo

tizimi shakllangan bo'lsada ushbu jarayonda to'laqonli bozor tamoyillariga mos narx tizimi mavjud deb bo'lmaydi. Chunki, bugungi kunda ishlab chiqarilayotgan maxsulotlarni sotib oluvchi qayta ishlash korxonalari monopol mavkeiga ega bo'lganligi, qishloq xo'jaligi maxsulotlari bozorida raqobat muxiti shakllanmaganligi va maxsulot uchun baxolar faqatgina sotib oluvchilar tomonidan belgilanayotganligi qishloq xo'jaligi tarmog'i raqobatbardoshligini pasayishiga olib kelmoqda.

Shu bilan birga ta'kidlash lozimki, bugungi kunda qishloq xo'jaligi tarmog'ida ishlab chiqarilayotgan qishloq xo'jaligi maxsulotlariga ikki xil narxni (shartnoma asosida belgilanayotgan narxlar va davlat xarid narxi) belgilanishi fermer xo'jaliklarini sifatli maxsulot yetishtirish, maxsulot tannarxini kamaytirish asosida tarmoq raqobatbardoshligini oshirishga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shuningdek, davlat extiyoji uchun sotib olinayotgan paxta xom ashyosi uchun to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirilmayotganligi va to'lovlar bir necha qismga bo'lib to'lab berilayotganligi maxsulot yetishtiruvchilarni ushbu mablag'lardan samarali foydalanishiga xam salbiy ta'sir etmoqda. Chunki, to'lovlarni bir necha bosqichda (dekabr-avgust oylari davomida) to'lab berilishi olinadigan mablag'ning inflyatsiya natijasida qadarsizlanishiga olib kelmoqda. Bu esa davlat extiyojlari uchun maxsulot yetishtiruvchilarni faqatgina belgilangan rejani qanday bo'lsa xam bajarishga, aksincha yetishtirilayotgan maxsulotning sifatini oshirish natijasida qo'proq daromad olishga bo'lgan qiziqishlarini yo'qolishiga sabab bo'lmoqda.

Ushbu xolatlarni va tarmoq raqobatbardoshligini oshirishda narx siyosati asosiy o'rin egallashini xisobga olgan xolda qishloq xo'jaligi maxsulotlari uchun narx belgilash mexanizmini takomillashtirish talab etiladi. Qishloq xo'jaligi maxsulotlariga belgilanayotgan narx tizimini takomillashtirishda shartnomaviy, kafolatlangan va boshqa narxlarni belgilash tizimini shakllantirish, tarmoqda yetishtirilayotgan maxsulotlar sifatini yaxshilash va maxsulot tannarxini kamaytirishni rag'batlantirish mexanizmini joriy qilish, maxsulot yetishtiruvchi, xizmat ko'rsatuvchi xamda sotib oluvchilar o'rtasida f yuchers munosabatlarini rivojlantirish masalalariga aloxida e'tibor qaratish lozim.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida maxsulot ishlab chiqarish xajmini iste`molchilarning talab va extiyojlari belgilaydi, bozorga kiritilayotgan maxsulotlar sifatining yuqori va narxining arzon bo`lishi ularning raqobatbardoshligini ta`minlaydi. Shuning uchun xam, iste`molchilar talabini sifatli, ekologik toza va arzon baxolardagi maxsulotlar bilan qondirish qishloq xo`jaligi tarmog`i ishlab chiqaruvchilarning asosiy mezoni bo`lishi lozim.

Qishloq xo`jaligi maxsulotlari iste`molchilarga yetib borgungacha bir necha (saralash, qadoqlash, qayta ishlash) bosqichdan o`tadi. Xar bir bosqich aloxida tarmoqlar yoki korxonalar tomonidan amalga oshiriladigan mustaqil faoliyatga asoslanib, o`ziga xos bo`lgan resurslar sarfini taqozo etadi va natijada qo`shimcha qiymat yaratiladi. Ushbu tarmoqlarning xar biri mustaqil va ixtisoslashgan faoliyat yo`nalishiga ega bo`lsada, ular faoliyati natijasi bir-biriga bevosita bog`liq bo`lib, bir soxa faoliyati natijasi ikkinchi soxa faoliyati natijasiga pirovardida esa qishloq xo`jaligi tarmog`i raqobatbardoshlik darajasida o`z aksini topadi.

Qishloq xo`jaligi maxsulotlari yetishtirishdagi texnologiyalar, mexnatni to`g`ri tashkil etish va fermer xo`jaliklarning moddiy-texnika bazasi xamda xizmat ko`rsatish tizimining bozor talablariga qanchalik darajada moslasha olishi, maxsulot yetishtirish sifati, miqdori va maxsulot yetishtirish uchun sarflangan resurslar xajmini muqobillashtirish asosida ishlab chiqarilgan maxsulot tannarxining pasaytirish mumkin. Natijada ishlab chiqarilgan maxsulot sifati va baxosi maxsulot yetishtiruvchiga daromad keltirishni ta`minlab, kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayoni davom etishi uchun sharoit yaratadi. Shu bilan birga, sifatli va nisbatan arzon ishlab chiqarilgan qishloq xo`jaligi maxsuloti, tayyorlash, saqlash va qayta ishlash tizimi korxonalari uchun sifatli va nisbatan arzon maxsulot yaratish uchun imkoniyat tug`dirib, qishloq xo`jaligi tarmog`ining raqobatbardoshlik darajasini oshirishga asos bo`lib xizmat qiladi.

Yuqoridagilarni xisobga olgan xolda, qishloq xo`jaligini va qayta ishlash sanoatini rivojlantirishga yo`naltirilgan investitsiyalar, xususan xorijiy va xususiy investitsiyalarni jalb qilish, qishloq xo`jaligi maxsulotlarini saqlash tizimini rivojlantirish, axoliga sifatli va ekologik toza oziq-ovqat maxsulotlari yetkazib

berish imkonini beruvchi xosirdorligi yuqori ekin navlari va maxsuldor chorva mollari naslini yaratish, qishloq xo'jaligi maxsulotlarini oxirgi iste'molchilarga yetkazib berishda transport tizimi va sotish tarmoqlarini bozor sharoitida ishlashga moslashtirishning iqtisodiy va xuquqiy asoslarini takomillashtirish masalari qishloq xo'jaligi tarmog'ini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashda asosiy vazifalar sifatida belgilanishi lozim.

Ma'lumki, qishloq xo'jaligi tarmog'ida amalga oshirilayotgan iqtisodiy isloxlarning asosiy maqsadlaridan biri - raqobatbardosh bozor munosabatlariga asoslangan qishloq xo'jaligi soxasini qo'llab quvvatlash xisoblanadi.

Bugungi kunda qishloq xo'jaligi tarmog'ida maxsulot ishlab chiqaruvchilarni moliyaviy qo'llab quvvatlash tizimi ayrim kamchilik ega bo'lib, tarmoqning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olmagan xolatlari xam mavjud, bu xam o'z navbatida ishlab chiqarilayotgan maxsulotlar raqobatbardoshligiga salbiy ta'sir etmoqda.

Shuning uchun, qishloq xo'jaligini moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, bunda qishloq xo'jaligida innovatsion jarayonni rivojlantirish, zarur texnika va asbob-uskunalar xamda samarali texnologiyalarni joriy etish, tarmoqda investitsion muxitni shakllantirish, maxsus jamg'armalar tizimi rivojlantirish, qishloq xo'jaligi maxsulotlarini yetishtirishni moliyalashtirish mexanizmini yanada takomillashtirish, kredit kooperativlari tizimini rivojlantirish kabi masalalarga asosiy e'tiborni qaratish va maxsus davlat Dasturlarini ishlab chiqish lozim. Shu bilan birga, agra tarmoq raqobardoshligini oshirishda maxsulot ishlab chiqaruvchilarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish va tarmoqni rivojlantirishning institutsional asoslarini takomillashtirish masalalariga xam aloxida e'tibor berish maqsadga muvofiqdir.

Mamlakat agrar tarmog'ida amalga oshirilayotgan iqtisodiy isloxlar, tarkibiy o'zgarishlar, avvalambor, ularning qonuniy asoslarini takomillashtirishni taqozo edi.

Respublikada bozor munosabatlarini to'g'ri yo'ldan borishi xamda raqobatchilik kurashini vujudga keltirish borasida qabul qilingan qonun xujjatlari ma'lum darajada qishloq xo'jaligi raqobatbardoshligini oshirishga imkoniyat va

shart-sharoitlar yaratib bergan bo'lsada, bugungi kunda ularning amaliyotda qo'llanishi talab darajasida emas.

Shuning uchun, agrar isloxotlarni amalga oshirish jarayonida, tarmoq raqobatbardoshligini ta'minlovchi qonuniy-me'yoriy xujjatlarni muntazam ravishda takomillashtirib borish, ularga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish, pirovardida esa, qonunlarni samarali ishlashini ta'minlash borasida amaliy chora-tadbirlar ishlab chiqish va ularni ishlab chiqarish soxasiga keng joriy qilish lozim.

Umuman olganda, bugungi kunda qishloq xo'jaligi tarmog'i raqobatbardoshlik darajasini oshirishning ob'ektiv zaruratini ilmiy jixatdan ochib berish, bu jarayonga ta'sir etuv omillarni bir tizimga keltirish va ta'sir etish darajasini nazariy asoslash masalalariga yetarlicha e'tibor qaratilmayapti. Shuning uchun xam amaliyotda qishloq xo'jaligi tarmog'ida raqobatbardoshlikni oshirish masalasiga e'tibor qaratilmayapti. Shu nuqtai nazardan isloxotlarning xozirgi talablaridan va rivojlangan mamlakatlar tajribalaridan kelib chiqqan xolda qishloq xo'jaligi tarmog'i raqobatbardoshlik darajasini baxolashning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

Rivojlangan davlatlar tajribalarinidan kelib chiqib va chet el adabiyotlarini umumlashtirgan xolda qishloq xo'jaligi tarmog'i raqobatbardoshligini belgilovchi ko'rsatkichlarni bizningcha, uch guruxga bo'lish mumkin.

Birinchi gurux-qishloq xo'jaligi tarmog'ida olib borilayotgan narx siyosatini belgilab beruvchi ko'rsatkichlar, ikkinchi gurux-qishloq xo'jaligi maxsulotlarini raqobatbardoshligini oshirishni bevosita qo'llab quvvatlash ko'rsatkichlari, uchinchi gurux-umumiy tarzda qishloq xo'jaligi tarmog'i raqobatbardoshligini belgilab beruvchi ko'rsatkichlardan iborat.

Qishloq xo'jaligi tarmog'ida olib borilayotgan narx siyosatini belgilab beruvchi ko'rsatkichlarga, nominal rakobatbardoshlik koeffitsienti va nominal raqobatbardoshlik darajasini kiritish mumkin. Bu ko'rsatkichlarning birinchisi qishloq xo'jaligi maxsulotlarini ichki baxosini jaxon bozoridagi narxiga nisbati (2.1-formula) bilan, ikkinchisi esa ular o'rtasidagi farq (2.2-formula) bilan aniqlanadi.

$$P_{\kappa} = \frac{M_{\text{u}\delta\text{H}}}{M_{\text{m}\delta\text{H}}} \quad (2.1)$$

$$R_d q M_{\text{ibn}} - M_{\text{tbn}} \quad (2.2)$$

Bunda:

R_k – raqobatbardoshlik koeffitsienti

R_d – raqobatbardoshlik darajasi

M_{ibn} – maxsulotning ichki bozordagi narxi

M_{tbn} – maxsulotning tashqi bozordagi narxi

Mazkur ko'rsatkichlar faqatgina maxsulotning ichki va tashqi bozordagi baxolari o'rtasidagi farqni aniqlash imkonini beradi, lekin maxsulotni ishlar chiqarish uchun sarflangan resurslar narxi xisobga olinmaganligi, ularning samaradorlik darajasini aniqlab bermaydi. Bunda faqatgina qishloq xo'jaligi maxsulotining nisbatan raqobatbardoshlik darajasi aniqlanishi mumkin, xolos. Maxsulotni yetishtirishga sarflangan resurslar qiymatini xisobga olinmasligi maxsulotdan olingan qo'shimcha qiymat miqdorini aniqlash imkonini bermaydi.

Shuning uchun xam, ushbu ko'rsatkichlar bilan birga samarali raqobatbardoshlik koeffitsienti va samarali raqobatbardoshlik darajasi kabi ko'rsatkichlardan xam foydalaniladi. Ushbu ko'rsatkichlar maxsulotning ichki va tashqi bozordagi sotish baxolari nisbatani emas, balki, maxsulotni sotish baxosi va uni ishlab chiqarish uchun sarflangan resurslar qiymati o'rtasidagi farqni ya'ni, qo'shilgan qiymat miqdorining o'zaro nisbatini ifodalaydi. Ya'ni, samarali raqobatbardoshlik koeffitsienti va samarali raqobatbardoshlik darajalari respublikada ishlab chiqarilgan maxsulot baxosi va tannarxi o'rtasidagi qiymat, xorijda ishlab chiqarilgan maxsulot baxosi va tannarxi o'rtasidagi qiymat bilan taqqoslash (nisbati va farqi) asosida aniqlanadi (2.3-2.4-formulalar).

$$CP_{\kappa} = \frac{(P_{M_{\text{t}\delta\text{H}}} - P_{M_{\text{t}\text{H}}})}{(X_{M_{\text{t}\delta\text{H}}} - X_{M_{\text{t}\text{H}}})} \quad (2.3)$$

$$SR_{dq}(RM_{tbn}-RM_{tn})-(XM_{tbn}-XM_{tn}) \quad (2.4)$$

Bunda:

SR_k – samarali raqobatbardoshlik koeffitsienti

SR_d – samarali raqobatbardoshlik darajasi

RM_{tbn} – respublikada ishlab chiqarilgan maxsulotning tashqi bozordagi narxi

RM_{tn} – respublikada ishlab chiqarilgan maxsulot tannarxi

XM_{tbn} – xorijiy davlatlar ishlab chiqarilgan maxsulotning tashqi bozordagi narxi

XM_{tn} – xorijiy davlatlar ishlab chiqarilgan maxsulot tannarxi

Qishloq xo'jaligi raqobatbardoshligini baxolashda tarmoqqa ajratilayotgan subsidiyalar miqdori xam xisobga olinadi. Bunda, qishloq xo'jaligi maxsulotlarini ishlab chiqaruvchilar uchun ajratilayotgan bevosita subsidiyalar, shuningdek, maxsulot uchun belgilangan soliqlar xam xisobga olinadi (2.5-formula).

$$ЖбКХрð = \frac{(Mибн + Сmb - C) - Mтbn}{Mтbn} \quad (2.5)$$

Bunda:

$JbQXrd$ – qishloq xo'jaligining jaxon bozoridagi raqobatbardoshlik darajasi

$Mibn$ – maxsulotning ichki bozordagi narxi

Smb – maxsulot birligiga to'g'ri kelgan subsidiya miqdori

$Mtbn$ – maxsulotning tashqi bozordagi narxi

S – maxsulot uchun belgilangan soliqlar

Mazkur formuladan shunday xulosa qilish mumkinki, qishloq xo'jaligi uchun ajratilayotgan subsidiya miqdori kancha kam va soliq yuki qancha ko'p bo'lsa tarmoq raqobatbardoshlik darajasi shuncha past bo'ladi. Aksincha, tarmoqni davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash darajasi yuqori bo'lib, tarmoqda belgilanayotgan soliq stavkalari past bo'lganda, uning raqobatbardoshlik darajasi yuqori bo'ladi. Lekin, ushbu ko'rsatkichlarda nominal rakobatbardoshlik koeffitsienti va nominal raqobatbardoshlik darajasini xisoblash uslubidagi kamchilik kabi ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorlik darajasi, qishloq xo'jaligini bilvosita qo'llab quvvatlash ko'rsatkichlari, maxsulot ishlab

chiqarishdan olingan qo'shimcha qiymat inobatga olinmagan. Shuning uchun, tarmoq raqobatbardoshlik darajasini aniqlashda umumiy tarzda qishloq xo'jaligi tarmog'i raqobatbardoshligini belgilab beruvchi maxsulot ishlab chiqaruvchilarni imtiyozli kreditlar ajratish asosida subtsidiyalash xajmi, soliq imtiyozlarini belgilash asosida moliyaviy qo'llab-quvvatlash miqdori, xizmat xaqisiz yoki imtiyozli baxolarda ko'rsatilgan xizmatlar xajmi, to'g'ridan-to'g'ri ajratilgan dotatsiya va subtsidiyalar, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish resurslariga imtiyozli baxolarni belgilash asosida qo'llab-quvvatlash miqdori, jaxon bozori baxosidagi maxsulot xajmi, sarflangan ishlab chiqarish resurslari qiymati, ishlab chiqarish resurslari uchun belgilangan soliqlar miqdori, maxsulot uchun joriy qilingan kvotadan olingan samara, maxsulot uchun joriy qilingan bojxona to'lovlari qiymati kabi ko'rsatkichlardan foydalaniladi.

Umumiy tarzda tarmoq raqobatbardoshligini xisoblashda yuqoridagi ko'rsatkichlar ikki qismga bo'linib, birinchi guruxda barcha ko'rsatkichlar qiymati jamlanib, undan ishlab chiqarish resurslariga belgilangan soliq miqdori ayrib tashlanadi, ikkinchi guruxda barcha ko'rsatkichlar o'zaro ayrib tashlanib, ishlab chiqarish resurslariga xisoblangan soliq qiymatin qo'shiladi. Ikkita olingan ko'rsatkichlar nisbatining yuz foizi umumiy tarzda tarmoq raqobatbardoshlik darajasini ko'rsatuvchi koeffitsient xisoblanadi (2.6-formula). Bu ko'rsatkichning qanchalik yuqori bo'lishi, tarmoqning shunchalik raqobatbardoshligini ko'rsatadi.

$$ATp\delta = \frac{K_{\text{u}\text{v}} + C_{\text{u}} + X_{\text{u}\text{b}} + \text{D}\text{C}\text{b} + \text{I}\text{C}\text{P}\text{u}\text{b} + K_{\text{c}} + B_{\text{m}} + M_{\text{ж}\text{b}\text{b}} + \text{I}\text{C}\text{P}\text{к} - \text{I}\text{C}\text{P}\text{b}\text{c}}{K_{\text{u}\text{v}} - C_{\text{u}} - X_{\text{u}\text{b}} - \text{D}\text{C}\text{b} - \text{I}\text{C}\text{P}\text{u}\text{b} - K_{\text{c}} - B_{\text{m}} - M_{\text{ж}\text{b}\text{b}} - \text{I}\text{C}\text{P}\text{к} + \text{I}\text{C}\text{P}\text{b}\text{c}} * 100 \% \quad (2.6)$$

Bunda:

ATrd-qishloq xo'jaligi tarmog'i raqobatbardoshlik darajasi;

Kich-maxsulot ishlab chiqarish uchu ajratilgan imtiyozli kredit;

Si-soliq imtiyozlari;

Xib-xizmat xaqisiz yoki imtiyozli baxolarda ko'rsatilgan xizmatlar;

DSb-to'g'ridan-to'g'ri ajratilgan dotatsiya va subtsidiyalar;

IchRib-qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish resurslariga belgilangan imtiyozli baxolar;

Ks- maxsulot uchun joriy qilingan kvotadan olingan samara miqdori;

Bt- maxsulot uchun joriy qilingan bojxona to'lovlari qiymati;

IChRk-maxsulot yetishtirish uchun sarflangan ishlab chiqarish resurslari qiymati;

IChRbs-ishlab chiqarish resurslari uchun belgilangan soliqlar miqdori.

Umuman olganda, qishloq xo'jaligi tarmog'i raqobatbardoshligini baxolashda tarmoqda olib borilayotgan narx siyosati, tarmoqni davlat tomonidan moliyaviy-iqtisodiy jixatdan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari muxim ahamiyat kasb etib, tarmoq ishlab chiqarish faoliyati bo'yicha belgilanayotgan soliq imtiyozlari, moliyaviy jixatdan qo'llab-quvvatlash maqsadida ajratilayotgan mablag'lar miqdori, qishloq xo'jaligi maxsulotlarini ishlab chiqarish xarajatlari (tannarx) miqdori, maxsulot uchun belgilanayotgan bozor baxolari va davlat tomonidan qo'yilgan imtiyozli narxlar va shu kabi boshqa qishloq xo'jaligi xamda unga xizmat ko'rsatuvchi va bevosita ushbu soxa faoliyati bilan bog'liq bo'lgan soxa sub`ektlari faoliyati raqobatbardoshligini belgilab berishda asosiy o'rin egallaydi.

Xulosa qilib aytganda, qishloq xo'jaligi tarmog'i ishlab chiqarish faoliyatining moliyaviy barqaror bo'lishi ya`ni ushbu tarmoq davlatning turli yo'nalishdagi qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlarisiz barqaror faoliyat yuritishi uning yuqori darajada raqobatbardoshligini belgilab beradi.

2. BOB. QISHLOQ XO'JALIGI TARMOG'IDA RAQOBATBARDOSHLIK DARAJASINING XOZIRGI XOLATI


2.1. Qishloq xo'jaligi tarmog'i raqobatbardoshlik darajasi va uni oshirishga ta'sir etuvchi omillar taxlili

Mustaqillik yillarida respublikada amalga oshirilgan iqtisodiy isloxotlarda qishloq xo'jaligida bozor munosabatlarini shakllantirish, tarmoq iqtisodiyotini erkinlashtirish va modernizatsiyalash jarayonlariga aloxida e'tibor qaratildi. Qishloq xo'jaligi maxsulotlarini ishlab chiqarish xajmini ko'paytirish asosida qishloq xo'jaligi tarmog'i raqobatbardoshligini oshirish, eng avvalo jaxon bozorida xaridorgir bo'lgan qishloq xo'jaligi maxsulotlarini ishlab chiqishni keng yo'lga qo'yish keyingi isloxotlarning asosiy vazifasi sifatida belgilanmoqda.

Ma'lumki, qishloq xo'jaligi tarmog'i raqobatbardoshligini oshirish siyosatining ijobiy natija berishi tarmoqning barcha yo'nalishlarini birdek barqaror rivojlanishini ta'minlovchi xar bir tarmoq saloxiyati va imkoniyatlaridan foydalanishiga bog'liq. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligi tarmog'i samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirish, unga asoslangan xolda xar bir davlatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, qishloq xududlarida ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni o'zaro uyg'unlashgan va bir-biriga bog'liq xolda yechish, tashqi savdo va bojxona qonunlarini takomillashtirish bo'yicha keng qamrovli chora-tadbirlarni amalga oshirish, qishloq xo'jaligi xom ashyosi va oziq-ovqat maxsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha muvofiqlashtirilgan siyosatga asoslanmog'i lozim.

Shuni ta'kidlash lozimki, qishloq xo'jaligi tarmog'i raqobatbardoshligini oshirish qishloq xo'jaligi soxasining xar bir saloxiyati va imkoniyatlaridan foydalanish bilan birga ushbu jarayonga ta'sir qiluvchi bir qator omillar xam mavjud .

Qishloq xo'jaligi raqobatbardoshligiga ta'sir etuvchi omillar tizimi



Manba: muallifning ilmiy Bitiruv malakaviy ishilarida tuzilgan.

3-rasm

Qishloq xo'jaligi tarmog'i raqobatbardoshligiga ta'sir etuvchi omillarga respublikada iqtisodiyotining boshqa soxalari rivojlanish darajasining qishloq xo'jaligiga nisbatan yuqoriligi, qishloq xo'jaligi tarmog'ida ishlab chiqarish resurslarining narxini qishloq xo'jalik maxsulotlari narxiga nisbatan tez o'sishi, davlat extiyoji uchun yetishtirilayotgan paxtani 100 foizini, g'allani esa 50 foizini bozor narxlaridan past bo'lgan baxolarda sotib olinishi, (ichki va tashqi bozor narxlariga nisbatan 2-4 marotaba past), bu maxsulotlarni tashqi bozorga olib chiqishdagi ma'muriy to'siqlar, shuningdek, bevosita ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan sug'oriladigan yer maydonlarining kamayib borishi, ekinlar tarkibida g'alla va paxta maydonlarining ko'pligi (80-85%) xamda yuqori daromadli va raqobatbardosh qishloq xo'jaligi maxsulotlarining ekin maydonlarini

chegaralanganligi, ba`zi xolatlarda umuman ekishni taqiqlanganligi, diversifikatsiyasi takomillashmaganligi, ishlab chiqaruvchilarning moddiy-texnika vositalari bilan ta`minlanish darajasini pasaytligi, chorva mol bosh sonlari ko`paygani bilan chorvachilik maxsulotlarini tovarlilik darajasini pastligi va boshqa shu kabilarni keltirish mumkin.

Bundan tashqari, iqtisodiyot tarmoqlariga kiritilayotgan investitsiyalarning asosiy qismi sanoatga yo`naltirilayotganligi va buning natijasida mavjud texnologiyalarni modernizatsiya qilinishi xam tarmoq raqobatbardoshlik darajasiga salbiy ta`sir ko`rsatishi mumkin.

Taxlillar shuni ko`rsatadiki, iqtisodiyot soxalariga 2011 yilda jami 3838,3 mlrd. so`m investitsiyalar yo`naltirilgan bo`lib shundan 68,3 foizi ishlab chiqarish tarmoqlariga to`g`ri kelgan. Bu ko`rsatkich 2013 yilda mos ravishda 4938,3 mlrd.so`mni yoki 75,4 foizni tashkil qilgan. Ishlab chiqarish tarmoqlari tarkibida sanoatga yo`naltirilgan investiyalarning ulushi jami investitsilar tarkibida 2012 yilda 36,8 foizni, qishloq xo`jaligi tarmog`i ulushi esa mos ravishda 3,3 va 3,1 foizdan iborat bo`lgan, ya`ni qishloq xo`jaligi tarmog`iqa ajratilayotgan investitsiyalar xajmi kamaygan. Bu esa tarmoq raqobatbardoshlik darajasini pasayganligini ko`rsatadi .

Iqtisodiyot tarmoqlariga kiritilgan chet el investitsiyalar bo`yicha xam shunday xolatni kuzatish mumkin. Jumladan, 2013 yilda xorijiy investorlar tomonidan respublikaga kiritilgan investitsiyalarning faqatgina 4,1 foizi qishloq xo`jaligigi yo`naltirilgan. 2013 yilda esa bu ko`rsatkich 0,7 foizni tashkil qilgan xolos

1- jadval.

Iqtisodiyot tarmoqlariga yo`naltirilgan investitsiyalar dinamikasi

Iqtisodiyot tarmoqlari	Yillar											
	2008		2013		2010		2011		2012		2013	
	mlrd. so`m	%	mlrd. so`m	%	mlrd. so`m	%	mlrd. so`m	%	mlrd. so`m	%	mlrd. so`m	%
Jami	2344,6	100	2473,2	100	3012,9	100	3838,3	100	3849,0	100	4938,3	100
Ishlab chiqarish soxasi	1477,1	63,0	1586,3	64,1	1968,3	65,3	2619,8	68,3	2698,2	70,1	3723,5	75,4

I. Sanoat	656,5	28,0	707,1	28,6	899,6	29,9	641,7	24,5	2013,8	36,8	1832,1	37,1
II. Qishloq va o'rmon xo'jaligi	100,8	4,3	84,7	3,4	95,9	3,2	175,8	4,6	189,8	3,3	153,1	3,1
III. Qurilish	11,7	0,5	11,6	0,4	24,5	0,8	51,4	1,3	62,5	1,2	88,9	1,8
IV. Transport va aloqa	475,9	20,3	571,1	23,1	609,9	20,2	792,7	20,7	1249,8	22,8	1298,8	26,3
V. Umumiy ovqatlanish va savdo	77,4	3,3	31,7	1,3	39,1	1,3	80,9	4,6	93,8	1,7	159,5	3,2
VI. Boshqalar	154,7	6,6	180,1	7,3	299,3	9,9	485,4	12,6	234,6	7,9	187,7	3,8
Noishlab chiqarish soxasi	867,5	37,0	886,9	35,9	1044,6	34,7	1218,5	31,7	1639,3	29,9	1214,8	24,6

Manba: O'zR Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Bundan ko'rinib turibdiki, qishloq xo'jaligida yangi tashkil etilgan fermer xo'jaliklarida aylanma mablag'larini yetarli bo'lmagan sharoitda soxaga yo'naltirilgan investitsiyalarning kamligi tarmoq iqtisodiyotini ko'tarishga, uning raqobatbardoshlik darajasini oshirishga salbiy ta'sir etmoqda.

2- jadval.

Respublika kiritilgan chel el investitsiyalarining iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha tarkibi, (%)

Iqtisodiyot tarmoqlari	Yillar					
	2009	2013	2010	2011	2012	2013
Jami	100	100	100	100	100	100
Ishlab chiqarish soxasi	85,0	82,7	89,5	84,7	90,9	91,2
I. Sanoat	69,6	39,0	46,4	46,7	57,7	58,1
II. Qishloq va o'rmon xo'jaligi	6,1	0,7	3,0	5,0	4,5	4,1
III. Qurilish	0,01	-	0,3	0,9	1,2	1,4
IV. Transport va aloqa	7,3	37,8	38,6	30,9	25,6	25,7
V. Umumiy ovqatlanish va savdo	0,1	0,3	0,9	0,5	0,5	0,6
VI. Boshqalar	13,5	4,9	0,2	0,6	1,4	1,3
Noishlab chiqarish soxasi	15,0	17,3	10,5	15,3	9,1	8,2

Manba: O'zR Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Yuqorida aytib o'tilganidek, ekin maydonlarining qisqarishi xam ma'lum bir darajada tarmoq raqobatbardoshligiga ta'sir qilmoqda. Jumladan, 2012 yilda 2008yilga nisbatan qishloq xo'jaligida foydalaniladigan ekin maydoni 94,0 foizga kamayib, 3561 ming gektarni tashkil etgan. Buning asosiy sababi, qishloq xo'jaligi ekin maydonlarini sanoat korxonalarini va axoliga uy-joylarini qurish uchun

ajratilishi, xamda yerlarning meliorativ xolati yomonlashishi yerlarning sho'rlanishi natijasida qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlar tarkibidan chiqarilishini ko'rsatish mumkin.

Qishloq xo'jaligi tarmog'i raqobatbardoshligini past darajada bo'lishiga ekinlar strukturasi takomillashmaganligi va ekinlar tarkibida bug'doy va paxtaning ulushini yuqori bo'layotganligi xam ta'sir ko'rsatmoqda. Ya'ni, almashlab ekishning joriy qilinmaganligi yildan yilga ekinlar xosildorligini va sifatini pasayishiga olib kelmoqda. Jumladan, agar 2000 yilda umumiy ekin maydonida paxta va bug'doyning ulushi 80,8 %ni tashkil qilgan bo'lsa 2011 yilda bu ko'rsatkich 84,3%, 2012 yilda esa 84%ni tashkil qildi.

Shu davr ichida kartoshka ekinlarining ulushi 1,5% atrofida, sabzavot ekinlari ulushi 4,4% va poliz ekinlari ulushi 1,0% atrofida saqlanib kelgan. O'z navbatida yuqorida sanab o'tilgan ekinlar maydonining kam bo'lishi fermerlarning dexqonchilikdan oladigan daromadiga xam salbiy ta'sir ko'rsatib, ekin maydonlari kichik bo'lgan sharoitda ushbu xolatdan maksimal darajada foydalanish maqsadida ishlab chiqaruvchilar maxsulot yetishtirishda asosiy e'tiborni maxsulot sifatiga emas balki xajmini oshirishga qaratilmoqda.

Qishloq xo'jaligi tarmog'i raqobatbardoshligini oshirishga ta'sir etuvchi omillardan biri maxsulot ishlab chiqaruvchilarning moddiy-texnika resurslari bilan ta'minlanganlik darajasi xisoblanadi.

3-jadval.

Qishloq xo'jaligi ekin turlari maydonlarining dinamikasi

(ming ga)

Kishoq xo'jalik ekinlari	Yillar					
	2008	2013	2010	2011	2012	2012 yilda 2008 yilga nisbatan, %
Jami ekin maydoni	3790,1	3695,7	3646	3633,6	3561	94,0
Shundan						
Don	1790,9	1667,1	1615,2	1616,5	1538,9	85,9
%	47,3	45,1	44,3	44,5	43,2	
Shu jumladan:						
Bug'doy	1507,6	1470,4	1471,3	1446,5	1382,8	91,7
%	39,8	39,8	40,4	39,8	38,8	

Texnik ekinlar	1445	1518,5	1516,7	1476,9	1478,6	102,3
%	38,1	41,1	41,6	40,6	41,5	
Shu jumladan:						
Paxta	1393	1456,3	1470,1	1447,6	1451,6	104,2
%	36,7	39,4	40,3	39,8	40,8	
Kartoshka	49,2	52,1	49,6	52,6	56	113,8
%	1,3	1,4	1,36	1,44	1,57	
Sabzavot	145,6	137,6	137,4	154,2	159,6	109,6
%	3,8	3,7	3,8	4,2	4,48	
Poliz	41,3	34,7	33,8	37	37,7	91,3
%	1,09	0,94	0,93	1,02	1,06	
ozuqa ekinlari	316,5	284,2	293,3	295,5	290,3	91,7
%	8,35	7,7	8	8,1	8,2	

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika Qo'mitasi ma'lumotlari.

So'nggi yillarda Respublika qishloq xo'jaligida texnika ta'minoti me'yorga nisbatan past bo'lishi bilan sifat ko'rsatkichlari xam pasaygan. Jumladan qishloq xo'jalik korxonalarining asosiy texnika turlari bilan 1000 ga ekin maydoni xisobiga ta'minlanish darajasi taxlili shuni ko'rsatadiki, barcha turdagi texnikalar bo'yicha soni 2010 yilda 1995 yilga nisbatan pasaygan. So'ngi yillarda esa amalga oshirilayotgan isloxotlarda milliy qishloq xo'jaligi texnikalarini ishlab chiqish sanoatini rivojlanganligi, texnikalarni lizing olish sharoitlarini takomillashganligi qishloq xo'jaligi maxsulotlarini ishlab chiqaruvchilarning moddiy texnika ta'minotini yaxshilanishiga sharoit yaratib berdi. Jumladan, respublika bo'yicha 2012 yilda 1995 yilga nisbatan barcha turdagi traktorlar bilan ta'minlanish 55,6 foizga, yem-xashak o'rish kombaynlari 16,8 foizga, g'alla o'rish kombaynlari 69,5 foizga, paxta terish mashinalari 5,6 foizga, kul tivatorlar 86,2 foizga, chigit ekish seyalkalari 86,2 foizga va omochlar 5,6 foizga kamaygan. Shuni xam takidlash lozimki xozirgi kunda qishloq xo'jaligida ishlatilayotgan texnika vositalarining ko'pchiligi o'zining amortizatsiya muddatini o'tab bo'lgan. Natijada bir tomondan uni sozlash va ishlatishga katta miqdorda mablag' sarflangan, ikkinchi tomondan bajarilayotgan ishning sifati past bo'lmoqda. Bu esa o'z navbatida qishloq xo'jaligi robatbardoshligiga ta'sir qilmoqda.

**Respublika qishloq xo'jaligini texnika vositalari bilan ta'minlanish
darajasi (dona)**

Texnika turi	1000 ga ekin maydoni xisobiga									2012 yilda 1995 yilga nisbatan,%
	Me`yor	Ta'minlanganlik								
		1995 yil		2000 yil		2010 yil		2012 yil		
		Xaqi qatda	Me`yor ga nisbatan %	Xaqi qatda	Me`yor ga nisbatan %	Xaqi qatda	Me`yor ga nisbatan %	Xaqiqatda	Me`yor ga nisbatan %	
Barcha turdagi traktorlar	44,7	50,4	112,7	29,9	67,0	26,0	58,2	28,0	62,6	55,6
G'alla o'rish kombaynlari	3,7	5,9	159,5	4,4	119,0	4,2	114,0	4,1	110,8	69,5
Em xashak o'rish kombaynlari	15,5	18,5	119,4	8,2	53,0	3,6	23,5	3,1	20,0	16,8
Paxta terish mashinalari	21,9	17,8	81,3	2,6	11,9	1,1	5,3	1,0	4,5	5,6
Omochlar	11,1	11,5	103,6	5,1	46,0	3,3	30,3	5,1	4,6	5,6
Kul tivatorlar	17,5	17,4	99,4	16,9	96,6	14,2	81,2	15,0	85,7	86,2
Chigit ekish seyalkalari	17,2	14,0	81,4	12,7	73,8	12,2	70,9	13,3	45,9	44,3
Don seyalkalari	4,7	2,7	57,4	2,0	42,5	2,2	46,8	3,0	85,7	86,2

Manba: O'zR Davlat Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan

Bundan qo'rinib turibdiki, bugungi kunda qishloq xo'jaligi tarmog'ida amalga oshirilayotgan isloxlarda qishloq xo'jaligini zamonaviylashtirishga va barqaror rivojlantirishga qaratilgan yagona agrotexnik siyosatga, agrotexnologiyalarni takomillashtirishga va ularni qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini turli tarmoqlariga joriy etishga, qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilariga bozor tamoyillari va mexanizmlari asosida xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlar faoliyatini muvofiqlashtirishga e'tibor qaratilmayapti.

Boshqacha qilib aytganda, qishloq xo'jaligi maxsulotlarini ishlab chiqaruvchilarga xizmat ko'rsatuvchi aksariyat korxonalarining monopol mavkei saqlanib qolmoqda. Xizmat ko'rsatish tizimida rakobat muxitini kuchaytirish, xizmatlar turini kengaytirish va sifatini oshirish asosida turdosh shaxobchalar o'rtasida sog'lom raqobat muxitini shakllantirish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi uchun zarur bo'lgan resurslar, ya'ni mineral o'g'it, yonilg'i-moylash materiallari, zaxarli kimyoviy vositalarni taqsimlashni davlat monopoliyasidan chiqarish masalalari o'z yechimi topmagan. Ushbu muammolar bugungi kunda

chuqur taxlil qilinmagan va ularning tarmoq raqobatbardoshligiga ta`siri qanday darajada ekanligi o`rganilmagan.

Jumladan, yetishtirilayotgan maxsulotlarning sifatini past bo`lishiga va tarmoq raqobatbardoshligini pasayishiga soxani mineral o`g`itlar bilan ta`minlashdagi kamchiliklar xam o`z ta`sirini ko`rsatmoqda.

Bugungi kunda bir tomondan mineral o`g`itlar xajmini talabga nisbatan kam bo`lsa, ikkinchi tomondan, o`g`it turlari (NPK) orasidagi nisbatga e`tibor bermaslik xam maxsulotlar sifatiga salbiy ta`sir ko`rsatmoqda va o`g`itlar samaradorligini past bo`lishiga olib kelmoqda.

Ilmiy asoslangan me`yorga asosan berilayotgan mineral o`g`it tarkibi (NPK) azot, fosfor va kaliy 1,0x0,7x0,5 bo`lishi kerak, ammo 2012 yilda bu ko`rsatkich 1,0x0,15x0,011 bo`lgan.

Taxlillar shuni ko`rsatadiki, 2012 yilda barcha turdagi mineral o`g`itlarga bo`lgan talab 1477,8 ming tonnani tashkil etgani xolda xaqiqatda 725,2 ming tona yetkazib berilgan. Bu xajm talabga nisbatan 49,0 foizni tashkil etgan.

5-jadval.

Qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishini mineral o`g`itlar bilan ta`minlanish darajasi, ming tonna

Ko`rsatkichlar	1995 y	2000 y	2010 y	2011 y	2012y
Barcha turdagi mineral o`g`itlar bilan xaqiqatda ta`minlanish, ming tonna (fizik xolda), sh.j.	543,1	755,4	702,9	716,4	725,2
Azotli	346,0	571,9	457,4	616,5	621
Fosforli	151,5	152,4	213,5	93,5	97
Kaliyli	45,6	31,1	32,0	6,4	7,2
Barcha turdagi mineral o`g`itlarga bo`lgan talab, ming tonna (fizik xolda)	1703,0	1708,0	1558,1 9	1508,2	1477,8
Talabga nisbatan ta`minlanganlik darajasi, %	32,0	44,2	45,1	47,5	49,0

Manba: O`zR Davlat statistika qo`mitasi ma`lumotlari asosida tayyorlandi

Bitiruv malakaviy ishlar natijasi shuni ko`rsatadiki, qishloq xo`jaligida turli xil agroservis xizmatlarini ko`rsatish tizimi talab darajasida tashkil etilmaganligi,

muqobil servis tuzilmalarining yetishmasligi, xizmatlar bozorida raqobat muxitining shakllanmaganligi, xizmatlar son va tur jihatdan cheklanganligi ularning sifatini pastligi, o'z vaqtida bajarilmasligi ishlab chiqarilayotgan maxsulot tannarxi tarkibida xizmat ko'rsatish xarajatlari salmog'ining ortib borishi va maxsulot sifatini pasayishi kabi salbiy oqibatlariga olib kelmoqda, bu esa o'z navbatida qishloq xo'jaligi tarmog'i raqobatbardoshligini ta'minlash imkonini bermayapti.

Bundan tashqari, qishloq xo'jaligini boshqarish tizimida ma'muriy uslublarning saqlanib qolishi, xususan davlat extiyohlari uchun maxsulot ishlab chiqarish, qayta ishlash va sotish tizimida monopol muxitning mavjudligi va erkin bozor munosabatlari rivojlanishiga sharoitlar yetarli emasligi, maxsulot sifatini oshirish va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish uchun dexqonlarda manfaatdorlik uyg'onishiga to'siq bo'lmoqda. Davlat extiyohlari uchun baxo shakllanishida ishlab chiqarish xarajatlari asos sifatida qabul qilinayotganligi, dexqonlarda xarajatlarni kamaytirish emas, balki uni oshirib ko'rsatishga manfaatdorlik tug'dirmoqda.

Amaliyotda almashlab ekish tizimining izdan chiqqanligi sababli tuproq unumdorligining pasayib ketishi bilan birgalikda tuproqda o'simlik zararkunandalari va kasalliklari xam ko'payib bormoqda. Buning natijasida bir tomondan yetishtirilayotgan xosilning bir qismi yo'qotilayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan kasallik va zararkunandalarga qarshi kurashish uchun katta miqdorda xarajatlar qilinmoqda. Ekinlarni joylashtirishda bozor qonuniyatlarini xisobga olishga e'tiborsizlik oqibatida, unumdorligi past, meliorativ xolati yomon ekin maydonlariga xam ekin turlari majburan joylashtirilmoqda. Bunday maydonlardagi past xosildorlik, ishlab chiqarishning zarar bilan yakunlashga va sifati past maxsulot yetishtirishga sabab bo'lmoqda. Ya'ni, ekin maydonlari miqdorini qat'iy belgilanishi xosildorlikni pasayishiga olib kelmoqda.

Umuman olganda, asosiy turdagi qishloq xo'jaligi maxsulotlari ishlab chiqarishga davlat buyurtmasi va qat'iy baxo belgilash tizimining saqlanib qolinayotganligi, iqtisodiyotning agrar va sanoat tarmoqlari maxsulotlari

narxlarining keskin farq qilishi qishloq xo'jaligida raqobatbardoshlikni oshirishga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi asosiy muammolardan bo'lib qolmoqda. Shuning uchun xam, tarmoqda raqobatbardoshlikni oshirib borishda nafaqat baxo belgilash mexanizmini va narx nomutanosibliigi masalasini shuning bilan birgalikda boshqaruv, markazlashgan moddiy-texnik ta'minot tizimi, xamda ichki va tashqi bozorni erkinlashtirish kabi masalalarning raqobatbardoshlikka ta'sirini o'rganish isloxotlarning keyingi bosqichida asosiy vazifa qilib belgilanishi lozim.

2.2. Qishloq xo'jaligi tarmog'ida raqobatbardoshlikni oshirishning iqtisodiy mexanizmlari

Bozor munosabatlari sharoitida, qishloq xo'jaligi tarmog'i raqobatbardoshligini oshirishga, maxsulot yetishtiruvchilar, maxsulotni sotib oluvchilar va xizmat ko'rsatuvchi turli mulkchilik shakllidagi sub'ektlarni ijobiy moliyaviy natijaga erishish uchun qulay iqtisodiy shart-sharoitlar yaratish, turli iqtisodiy mexanizmlar asosida qulay iqtisodiy muxit shakllantirish asosida erishiladi. Lekin, bugungi kunda respublika agrar tarmog'i raqobatbardoshligini talab darajasida ta'minlashda va uni muntazam ravishda oshirishda iqtisodiy mexanizmlardan umuman foydalanilmayotir.

Eng avvalo shuni ta'kidlash kerakki, bugungi kunda qishloq xo'jaligida xarajatlarni boshqarish tizimining mavjud emasligi, ushbu yo'nalishda monitoring yuritish tizimining shakllanmaganligi, yetishtirilayotgan maxsulotlar tannarxini oshishiga, sifat va samaradorlik ko'rsatkichlarini pasayishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa qishloq xo'jaligi tarmog'ida faoliyat yakuni bo'yicha olinadigan daromadlarini va manfaatdorligini, pirovard natijada raqobatbardoshlikni pasayishiga olib kelmoqda.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida asosiy maqsad davlat extiyojlari uchun yetishtirilayotgan qishloq xo'jaligi maxsulotlariga belgilanayotgan ishlab chiqarish rejasini bajarish qaratilgan, ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi, maxsulot sifatini oshirish masallari esa ikkinchi darajali bo'lib qolmoqda. Boshqacha qilib aytganda, maxsulot ishlab chiqarish tannarxini kamaytirish, rentabellikni oshirishga

rag'batlantiruvchi chora-tadbirlar qo'llanilmayapti, ishlab chiqarishda iqtisodiy samarali xosil degan tushuncha e'tibordan chetda qolmoqda.

Shu bilan birga, qishloq xo'jaligida qo'llanilayotgan an'anaviy texnologiyalar soxani barqaror rivojlantirishga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Maxsulot yetishtirish jarayonida og'ir texnika vositalarining dalaga 15-20 martagacha kiritilishi birinchidan tuproqning zichligini oshirib, uning sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan bo'lsa, ikkinchidan xarajatlarning keskin oshib ketishiga sabab bo'lmoqda.

Ishlab chiqarish resurslar narxlarining o'sish sur'atlari, qishloq xo'jalik maxsulotlari baxosining o'sish sur'atlaridan yuqoriligi xam maxsulot tannarxiga salbiy ta'sir qilmoqda. Ushbu xolatni chuqurroq o'rganish maqsadida Namangan viloyatidagi paxta va g'allachilik ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari faoliyati taxlil qilindi.

6-jadval

Namangan viloyatida 2013 yilda paxta va g'alla yetishtirish uchun sarflagan xarajatlar miqdori

Ming so'm

Ko'rsatkichlar	1 gektar xisobiga		1 tonna xisobiga	
	paxta	g'alla	paxta	g'alla
O'rtacha xosildorlik, ts	28,4	62,1		
Jami xarajat, so'm	1507,8	1147,0	530,7	184,7
Shu jumladan				
-mexnat xaqi (ajratmalari bilan)	661,4	144,9	232,8	23,3
jamiga nisbatan %	43,9	12,6	43,9	12,6
-o'g'it	301,8	258,6	106,2	41,6
jamiga nisbatan %	20,0	22,5	20,0	22,5
mexanizatsiya	39,9	178,0	14,0	28,7
jamiga nisbatan %	2,6	15,5	2,6	15,5
-urug'lik	69,3	207,2	24,4	33,4
jamiga nisbatan %	4,6	18,1	4,6	18,1
-YoMM	256,4	167,7	90,2	27,0
jamiga nisbatan %	17,0	14,6	17,0	14,6
kimyoviy vosita	29,9	31,2	10,5	5,0
jamiga nisbatan %	2,0	2,7	2,0	2,7
SFU	6,2	5,9	2,2	1,0

jamiga nisbatan %	0,4	0,5	0,4	0,5
soliq	97,0	84,6	34,1	13,6
jamiga nisbatan %	6,4	7,4	0,0	7,4
Elektr energiya	7,45	10,70	2,62	1,72
jamiga nisbatan %	0,49	0,93	0,49	0,93
-boshqa turdagi xarajatlar	38,42	58,23	13,52	9,38
jamiga nisbatan %	2,55	5,08	2,55	5,08

Manba: Namangan viloyati fermer xo'jaliklari faoliyatini o'rganish asosida tuzilgan

Bitiruv malakaviy ishi natijalariga ko'ra, 2013 yilda bir gektar ekin maydonida paxta yetishtirish uchun 1507,8 ming so'm xarajat qilingan, shundan asosiy qismini ya'ni, 43,9 foizini mexnat xaqi, 20,0 foizini o'g'it, 17,0 foizini YoMM xarajatlari tashkil qilgan.

Don maxsulotini ishlab chiqishda esa mineral o'g'itga sarflangan xarajat miqdori nisbatan yuqori bo'lib 22,5 foizni tashkil etgan. Shuningdek, jami sarflangan xarajatning 15,5 foizini mexanizatsiya xizmatlari, 18,1 foizini urug'lik xarajatlari tashkil qilgan. Bir tonna maxsulot ishlab chiqarish xisobiga xam ushbu xarajat turlarining ulushi nisbatan yuqori bo'lgan.

Ta'kidlash kerakki, ishlab chiqarish resurslar narxlarining o'sish sur'atlari, qishloq xo'jalik maxsulotlari baxosining o'sish sur'atlaridan yuqoriligi maxsulot tannarxiga salbiy ta'sir qilmoqda. Ya'ni, o'tish davri muammolari ta'sirida bir tomondan qishloq xo'jalik korxonalarining sotib olish qobiliyatlari pasayishi yuz berayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan qishloq xo'jaligi uchun ishlab chiqarish resurslarini yetkazib beruvchi tarmoq umumiy iqtisodiy xolati yomonlashib bormoqda. Natijada, sanoat maxsulotlari sifati pasayishi bilan birgalikda baxo o'sishi tezlashib, qishloq xo'jalik maxsulotlari yetishtiruvchi korxonalarining iqtisodiy xolatini yomonlashishiga, tarmoq raqobatbardoshligini pasayishiga olib kelmoqda.

Xarajatlarni boshqarish qishloq xo'jaligi barqarorligiga, soxada moliyaviy xolatni yaxshilash, maxsulot tannarxini pasaytirish, yetishtiriladigan maxsulot raqobatbardoshligini oshirishga bevosita ta'sir ko'rsatar ekan, soxada moliyaviy xolatni yaxshilash, to'g'ridan-to'g'ri xarajalarni kamaytirish, bir resurs birligiga olinadigan daromadni ko'paytirish, ekinlar tarkibida yuqori daromadli ekinlar

maydonini oshirish, narx belgilashni (davlat buyurtmasi maxsulotlariga) xarajatdan emas, maxsulotni dastlabki va chuqur qayta ishlangan maxsulotlarning bozor baxolaridan kelib chiqib belgilash, maxsulot tayyorlash va qayta ishlash tizimini erkinlashtirish, qayta ishlash va tayyorlash korxonalarini to'liq davlat tasarrufidan chiqarish orqali mazkur tizimda raqobat muxitini shakllantirish, davlat buyurtmasi doirasida ishlab chiqilayotgan maxsulotlarning ekin maydonlari va maxsulot miqdorini belgilash tizimidan voz kechish va faqat maxsulot miqdorini belgilash tizimini joriy etish lozim.

Lekin, salbiy jixatlar bilan birga amalga oshirilayotgan isloxotlar natijasida erishilgan ijobiy natijalarni xam aloxida ta'kidlash lozim. Jumladan, seleksiya ishlariga Respublika rahbariyati tomonidan aloxida e'tibor qaratganligi va nav mualliflarini rag'batlantirish mexanizmining takomillashtirilganligi natijasida bir gektarga sarflanayotgan chigit urug'lik xarajatlarini kamaytirishga erishildi. Jumladan, 1997 yilda bir gektar maydonga 123 kg. chigit sarflangan bo'lsa, 2013 yilga kelib, bir gektar ekin maydoniga 44,1 kg. konditsion urug'lik sarflashga erishildi.

7-jadval.

Respublikada paxta urug'ligi xarajatlarining dinamikasi

Yillar	Sarflangan urug'lik ming tonna							Bir gektarga urug'lik sarfi, kg	
	Jami	Shu jumladan sinflar bo'yicha						Ekishga	Qayta ekish bilan birga
		1 sinf		2 sinf		3 sinf			
	Xajmi	%	Xajmi	%	Xajmi	%			
1997	185,1	147	79,4	36,9	19,9	1,2	0,6	92,7	123,0
2000	130,8	123,5	94,4	7,3	5,6	0	0,0	72,7	90,5
2009	123,7	118,7	96,0	5	4,0	0	0,0	66,6	87,0
2009	110,1	102,7	93,3	7,4	6,7	0	0,0	66,1	73,6
2010	91,9	88,8	96,6	3,1	3,4	0	0,0	61,0	62,4
2011	82,7	Konditsion urug'lik						55,1	57,2
2012	73,0	Konditsion urug'lik						48,5	49,1
2013	72,1	Konditsion urug'lik						42,3	44,1
2013 y. 1997 y. nisbatan, %	38,9	-	-	-	-	-	-	45,6	35,8

Manba: Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan

Shuni ta'kidlash lozimki, qishloq xo'jaligi tarmog'ida maxsulot ishlab chiqaruvchilarning qariyb 90 foizini bugungi kunda davlat ehtiyojlari uchun maxsulot yetishtiruvchi fermer xo'jaliklari tashkil qiladi. Shuni xisobga olib, ta'kidlash mumkinki, ushbu maxsulot ishlab chiqaruvchi sub'ektlarning

raqobatbardoshlik darajasi tarmoq raqobatbardoshligini oshirishda asosiy o'rin egallaydi.

Ma'lumki, ishlab chiqarilmayotgan maxsulotlar (paxta, g'alla)ga narxlar xom ashyoni sinf, nav va boshqa texnik belgilari bo'yicha tabaqalashgan xolda belgilanmoqda. Ushbu xolat paxtachilik tarmog'i raqobatbardoshligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatib, amaliyotda esa, fermer qanchalik sifatli paxta xom ashyosi yetishtirsa unga to'lanadigan narx xam yuqori bo'lmoqda, bu esa fermerlar o'rtasida raqobatni vujudga keltirmoqda, tarmoq raqobatbardoshligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Bundan tashqari, paxtachilikda urug'lik tizimida amalga oshirilgan chora tadbirlar va urug'lik sifatini yaxshilanishi ishlab chiqilayotgan paxta xom ashyosi sifatiga xam ijobiy ta'sir etdi. Natijada yuqori sifatli va raqobatbardosh maxsulot olish mumkin bo'lgan xomashyo yaratishga imkon tug'ildi. Natijada bugungi kunda yetishtirilgan paxta xom ashyosining 73,4 foizi birinchi sinfga, olingan maxsulotning 75,9 foizi birinchi navga sotildi. Bu esa o'z navbatida ma'lum jixatda tarmoq raqobatbardoshligini oshirishga imkoniyat yaratdi.

8-jadval.

Respublikada yetishtirilgan paxta xom ashyosining sifat ko'rsatkichlarining dinamikasi

Yillar	Paxta xom ashyosi sinflar bo'yicha taqsimlanishi, %			Paxta xom ashyosi navlar bo'yicha taqsimlanishi, %				
	1 sinf	2 sinf	3 sinf	1 nav	2 nav	3 nav	4 nav	5 nav
1997	59,4	27,8	12,8	53,5	14,8	11,7	11,0	9,1
2010	72,8	22,7	4,5	75,7	11,0	5,7	4,1	3,5
2011	68,5	26,6	4,9	74,3	11,8	5,7	4,1	4,1
2012	72,6	22,9	4,5	75,2	11,2	5,6	4,0	4,0
2013	73,4	22,0	4,6	75,9	10,7	5,3	4,0	4,1

Manba: Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan

Ma'lumki, qishloq xo'jaligi tarmog'i raqobatbardoshligi bevosita ushbu tarmoqda ishlab chiqarilayotgan maxsulotlarning jaxon standartlariga mos kelishi bilan bog'liq. Xar bir davlatda maxsulot va tovarlarni standartlashtirish bo'yicha,

milliy iqtisodiyotni, fan va texnologiyani rivojlanganlik darajasiga mos xolda muayn tizim yaratilgan. Respublikamiz milliy iqtisodiyotini jaxon xamjamiyatiga integratsiyalashuvi va tashqi aloqalarning rivojlanishi yetishtirilayotgan qishloq xo'jalik maxsulotlarini jaxon standartlariga mos bo'lishligini taqozo etmoqda. Bugungi kunda jaxon bozoriga chiqarilayotgan maxalliy maxsulotlar o'zining ta'm va maza jixatdan ustunligiga ega bo'lsada, sertifikatziya, standart va sifat masalalariga yetarli e'tibor berilmagan. Vaxolanki, yetishtirilayotgan maxsulotning 75-80 foizi xalqaro standart va o'lchamlarga mos bo'lishi zarur.

Mamlakatimizda yetishtirilayotgan qishloq xo'jaligi maxsulotlari sifatini jaxon bozori talablariga muvofiq sertifikatlash va bu boradagi ishlarni nazorat qilish, qayta ishlovchi maxsulot ishlab chiqaruvchi, iste'molchi va boshqa manfaatdor tashkilotlarni maxsulotlarning standart namunalari bilan ta'minlash maqsadida respublika "Sifat" markazi va uning xar bir viloyatda xududiy laboratoriyalari tashkil etildi.

Barcha tegishli rasmiy jarayonlarni soddalashtirish va yengillashtirish maqsadida terminallarda bojxona xizmati, «Sifat» Markazi vakolatxonasi, deklaratsiya xizmati, vagonlarga buyurtma berish va tayyorlash xizmati xamda boshqa xizmatlar joylashtirilgan.

Bundan tashqari, xorijiy firmalar vakillarini paxta tozalash korxonalarining maxsulotlarini tanlashlari uchun sharoitlar yaratildi.

Maxsulot sifati yuzasidan kelib chiqishi mumkin bo'lgan turli nizolarni joyida va qisqa vaqtda xal qilish xamda keyinchalik xaridorlar tomonidan reklamatsiyalar kelishini keskin kamaytirish maqsadida terminallarda «Sifat» Markazining laboratoriyalari vakillari biriktirildi. Bu esa o'z navbatida qishloq xo'jaligi maxsulotlarini eksport qilishda bir qator qulayliklarni yaratdi.

Taxlilarning ko'rsatishicha, respublikaning barcha viloyatlarida yetishtirilayotgan meva-sabzavot va uzum maxsulotlari chet mamlakatlarga eksport qilinmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, 2011 yilda respublika bo'yicha jami 398,2 mln. AQSh dollari qiymatida 908,6 ming tonna qishloq xo'jaligi maxsulotlari eksport qilingan bo'lsa, 2013 yilda bu ko'rsatkich o'z navbatida 666,9

mln. AQSh dollarini va 725,5 ming tonnani tashkil qilgan. Eksport qilingan maxsulotlar miqdori 79,9 foizga kamaygan bo'lishiga qaramay, uning qiymati 167,5 foizga ko'paygan.

9-jadval.

**Respublikada meva-sabzavot va uzum maxsulotlari
eksportining dinamikasi**

№	Xududlar	2011 y.		2013 y.		O'sish yoki kamayish sur'atlari, (%)	
		tonna	ming doll.	tonna	ming doll.		
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	6506,3	2946,2	1536,4	864,1	23,6	29,3
2	Namangan	56451,2	36933,9	42906,1	54622,8	76,0	147,9
3	Buxoro	3728	2556,3	3029,1	1933,9	81,3	75,7
4	Jizzax	9897,3	3754	3603,8	1810,3	36,4	48,2
5	Qashqadaryo	9874,4	4909,2	5257,7	5995,8	53,2	122,1
6	Navoiy	19085,2	340,6	708,2	335,2	3,7	98,4
7	Namangan	123380	12083,7	12843,6	14481	10,4	119,8
8	Samarqand	123351,1	67628,9	150199	128112,8	121,8	189,4
9	Surxondaryo	42247,6	26171	56628,2	57342,9	134,0	219,1
10	Sirdaryo	27405,6	11174,9	30518,8	15823,9	111,4	141,6
11	Toshkent	238688,7	97686,1	196473,2	203004,6	82,3	207,8
12	Farg'ona	103225,3	63464,1	101890,9	43266,5	98,7	68,2
13	Xorazm	3928,5	3210,7	3529,1	3921,4	89,8	122,1
14	Toshkent shaxri	140853,2	65378	116427,4	135447,8	82,7	207,2
	Jami	908622,4	398237,6	725551,5	666963,0	79,9	167,5

Manba: O'zR Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Eksport qilingan maxsulotlar xajmini oxirgi ikki yilda kamayishini bojxona postlarida vujudga kelayotgan bir qator muammolar bilan izoxlash mumkin. Ushbu xolatni chuqurroq o'rganish maqsadida, O'zbekiston-Qozog'iston bojxona postida monografik Bitiruv malakaviy ishilar o'tkazildi. Olib borilgan monografik Bitiruv malakaviy ishilar, eksport qilinayotgan maxsulotlarni bojxona postlarida 10 kungacha qolib ketayotganligini, bunday ushlanib qolishlar asosan sifat sertifikati (30 foiz), standartga to'g'ri kelishi (40 foiz) va yuk bilan bog'liq xujjatlarni to'g'ri rasmiylashtirilishi (15 foiz) bilan bog'liq bo'lmoqda. Bu xolat, birinchidan maxsulotni sifatiga, ikkinchidan uning miqdoriga salbiy ta'sir ko'rsatib, iste'molchilarga o'z vaftida va sifatli maxsulot yetkazib berilmaganligi uchun katta miqdorda zarar ko'rilmoqda. Bu esa respublikamiz agrar tarmog'ining xorij

bozorlardagi raqobatbardoshligini pasaytirib yubormoqda.

Shunday qilib, qishloq xo'jaligi tarmog'i raqobatbardoshligini oshirishda maxsulot tannarxi, baxo belgilash va bojxona tizimi, eksport qilish shart sharoitlari va boshq. shu kabi masalalar davlat tomonidan birgalikda muvofiqlashtirilib borishi maqsadga muvofiq.

Bitiruv malakaviy ishilar shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligi tarmog'i raqobatbardoshligini ta'minlashning asosiy unsurlaridan biri qishloq xo'jaligi maxsulotlariga narx (baxo) belgilash tizimi bo'lib, talab va taklifdan kelib chiqqan xolda, raqobatga asoslanmagan narxning mavjud bo'lishi tarmoq raqobatbardoshligini oshirishda asosiy to'siqlardan xisoblanadi.

Qishloq xo'jaligi maxsulotlari narxlarini taxlil qilish shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligi maxsulotlar bozorlarining o'ziga xos xususiyatlarini ta'siri ostida, ichki bozorlarda qishloq xo'jaligi maxsulotlarning narxi 2009-2012 yillar mobaynida turlicha shakllangan.

Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, piyoz va pomidorlarning narxlari taxlil qilinayotgan yillar davomida nobarqaror ko'rinishga ega bo'lgan, shuni e'tiborga olish kerakki, ushbu turdagi maxsulotlar asosan maxalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqarilsada ularning narxi asosan 1-2 choraklarda yuqori bo'lgan va sekin-asta pasayib borgan. Bizning fikrimizcha, bu xolatni yil davomida ishlab chiqarilgan maxsulotlarni saqlash uchun katta sig'imli muzlatkichlar va omborxonalar tizimining yo'qligi va ushbu turdagi maxsulotlar eksporti xajmining oshganligi bilan izoxlash mumkin.

Agar 3-4-chorakda maxsulot talabga nisbatan ko'proq bo'lganligi xisobiga uni sotish narxi arzon bo'lishi iste'molchilar foydasiga bo'lsa, 4-chorak oxiri 2-chorak boshida maxsulot kam bo'lganligi xisobiga iste'molchilar qimmatroq narxda sotib olishlariga to'g'ri keladi. Maxsulot ishlab chiqaruvchilar esa 3-4-chorakda maxsulot sotish baxosi past bo'lishi xisobiga ishlab chiqarish xarajatlarini xam qoplay olmasliklari mumkin. Bu xolat esa, o'z navbatida dexqonning shu turdagi maxsulotni kelgusida kamroq yetishtirishga yoki umuman yetishtirmasligiga sabab bo'lishi mumkin.

Shu bilan birga, chorvachilik maxsulotlarini sotish xolatining taxlili ushbu turdagi maxsulotlar baxosining barqaror o'sishi ko'rsatdi. Buning asosiy sababi ushbu turdagi maxsulotlarga bo'lgan talabning oshib borganligidir.

Qo'y go'shti bo'yicha barcha bozorlarda taklif me'yorda, talab esa passiv; mol go'shtiga taklif xamda talab darajasi mutanosib ravishda teng. Tuxum va sut maxsulotlarining taklifi talabga nisbatan yuqoridir.

Meva va poliz maxsulotlari narxi xam xuddi sabzavotlar singari 1-2 choraklarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan va keyinchalik pasayib borgan.

Yuqorida keltirilgan taxlillardan shuni xulosa qilish mumkinki, maxsulotlar narxining shakllanishi va undagi tebranishlar maxsulot ishlab chiqarish xajmini maxsulot ishlab chiqaruvchilarning o'zlari belgilashlari, bu soxada axborot tizimining yaxshi ishlamasligi, mamlakat xududlarining tabiiy-iqlim sharoiti bir-biridan farq qilishi bilan bevosita bog'liq bo'lib, maxsulot yetishtirish va uni sotish masalasiga yangicha yondoshishni talab etadi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, qishloq xo'jaligi maxsulotlar bozorini maxsulotlar bilan barqaror ta'minlash birgina maxsulot yetishtirish xajmi bilan emas, balki shu maxsulotni sotish va axolining xarid qilish imkoniyati bilan belgilanishi kerak. Ma'lumki, avvalgi yillarda maxsulot yetishtiruvchilar yirik xo'jaliklar, maxsulotni sotib oluvchilar esa tayyorlov korxonalarini bo'lgan. Bunda maxsulot yetishtiruvchilar ko'proq e'tiborni yetishtirilgan yoki sotib olingan maxsulotlarning umumiy xajmiga qaratganlar. Ammo maxsulotning sifat ko'rsatkichi va sotilish baxosi masalalariga yetarlicha e'tibor berilmagan.

Bundan tashqari, avvalgi tayyorlov idoralari tarqatildi, ammo o'rniga mujassamlashgan yangi tizim yaratilmadi. Asosiy vositalarni davlat ta'sarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonida bunday ob'ektlarning ko'pchiligi xususiylashtirilganligi va turli xil mulkchilikka asoslangan korxonalar ixtiyoriga o'tishi bilan o'zlarining avvalgi yo'nalishini o'zgartirgan yoki mutlaqo ish faoliyatini to'xtatgan. Natijada, qishloq xo'jaligi maxsulotlar bozorining muxim bo'g'ini yetarli darajada ishlamayapti. Agar avvallari yoz oylarida maxsulotlarning bir qismi sovutgichlar bilan jixozlangan bazalarga olib kelingan va shu orqali

maxsulot ko'paygan davrida narx-navoni bir maromda ushlab turish imkoniyati bo'lgan bo'lsa, endilikda bunday imkoniyat chegaralanib qolgan. Jumladan, oziq-ovqat maxsulotlarini sotish kanallari taxillari shuni ko'rsatmoqdaki, bugungi kunda oziq-ovqat maxsulotlarining asosiy qismi dexqon bozorlari orqali iste'molchilarga yetkazilmoqda

10-jadval.

Respublika bo'yicha qishloq xo'jaligi maxsulotlarni sotish kanallari ulushining o'zgarishi, %

	2008 y.	2013 y.	2010 y.	2011 y.	2012 y.
Uzum va meva-sabzavot maxsulotlari					
Tayyorlov tashkilotlari	9,2	7,4	7,1	7,2	7,5
Dexqon bozorlari	78,3	81,8	83,3	86,1	87,2
Iste'mol kooperativlari	7,1	6,0	5,2	4,5	4,1
Yarmarkalar	5,4	4,8	4,5	2,2	1,2
Go'sht va sut					
Tayyorlov tashkilotlari	16,0	16,0	13,5	13,1	12,7
Dexqon bozorlari	84,0	84,0	86,5	86,9	87,3

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari tuzilgan.

Bugungi kunda qishloq xo'jaligi maxsulotlarini ishlab chiqarish va sotishda katta erkinliklar berilishi bir tomondan ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'lsa, ikkinchi tomondan bir qator salbiy natijalarni xam namoyon qilmoqda. Bu xolat birinchidan mamlakat bo'yicha oziq-ovqat maxsulotlari balansini xisoblashda qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda. Ikkinchidan, fermer va dexqon xo'jaliklarining yetarlicha axborot ma'lumotlariga ega bo'lmasligi xisobiga ba'zi turdagi maxsulotlar bir yilda ortiqcha yetishtirilsa, ikkinchi yili shu turdagi maxsulotlar bo'yicha taqchillik yuzaga kelmoqda. Bu esa ichki bozorni barqaror ta'minlab turish imkonini bermayapti, ikkinchi tomondan, narx-navoning doimiy tarzda o'zgarib turishiga sabab bo'lmoqda, dexqon esa xar doim xam maxsulot yetishtirishdan yetarlicha foyda ko'ra olmaydi pirvard natijada qishloq xo'jaligi tarmog'i raqobatbardoshligini ta'minlashda qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda.

Xulosa qilib aytganda, ishlab chiqilayotgan maxsulotlar tannarxini kamaytirish chora tabirlarini amalga oshirish va maxsulotlarni sotish baxolarini tartibga solish tizimini rivojlantirish, tovar maxsuloti ishlab chiqaruvchilarga turli iqtisodiy imtiyozlar berish asosida qishloq xo'jaligi tarmog'i raqobatbardoshligini

ta`minlash va muntazav ravishda oshirib borishga erishish mumkin.

2.3. Qishloq xo'jaligi tarmog'ida raqobatbardoshlikni ta`minlash bo'yicha xorijiy davlatlar tajribalari

Xozirgi kunda jaxonda yuz berayotgan globallashtirish jarayoni kundankunga mamlakatlarning xo'jalik xayoti va tarmoqlarini xam qamrab olmoqda. Iqtisodiyotning biror bir tarmog'i yo'qki, u rivojlanishdan to'xtab qolgan bo'lsa. Global iqtisodiyot taraqqiyotning eng muxim muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Qishloq xo'jaligi tarmog'i jaxon iqtisodiyotining eng muxim tarmovlaridan biri xisoblanib, uning ishtirokisiz insoniyatning majudligini xam tasavvur qilish qiyin.

Ma'lumotlarga qaraganda, jaxonda ishlab chiqariladigan Yalpi ichki maxsulotning 20-25 foizi qishloq xo'jaligi tarmog'i zimmasiga to'g'ri keladi va yildan yilga tarmoqda turli ximikatlar, mashinalardan foydalanishning natijasida maxsulotlarni qayta ishlash xajmining ortishi va unga xizmat ko'rsatuvchi korxonalar sonining o'sishi (savdo, transport va umumiy ovqatlanish) kuzatilmoqda.

Jaxon tajribasi shuni ko'rsatadiki, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab qishloq xo'jaligi tarmog'ida fan va texnikaning eng so'nggi yutuqlarini joriy qilish xisobiga ishlab chiqarish xajmlarining bir muncha o'sishiga va tarmoq raqobatbardoshligini oshirishga erishildi.

Jaxonda qishloq xo'jalik maxsulotlarini yetishtirish xajmlari 1996 yilda eng yuqori cho'qqisiga chiqqan bo'lib, keyingi yillarda esa bir qator rivojlanayotgan davlatlarda asosan Xitoy va Xindistonda o'sgan bo'lishiga qaramasdan uning kamayishi kuzatilgan. Rivojlanayotgan davlatlar YaIMda qishloq xo'jalik maxsulotlarining xissasini yuqori bo'lishi bu mamlakatlarda iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarini, jumladan xizmat ko'rsatish u qadar rivojlanmaganligidan dalolat beradi. Rivojlangan davlatlarda esa qishloq xo'jalik maxsulotlarini ishlab chiqarish xajmlari yildan yilga kamayib borgan.

Bitiruv malakaviy ishilarining ko'rsatishicha, rivojlanayotgan davlatlar o'zining eksport saloxiyatini oshirishiga bir qator muammolar salbiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Eng asosiy muammolardan biri xalqaro bozorni yaxshi bilmaganlik va yetishtirilgan maxsulotni chet mamlakatlarga sotish tizimini yaxshi yo'lga qo'yilmaganligidir. Xalqaro marketing tizimi shunday murakkab tizimki, yetishtirilgan maxsulotni ichki bozorda sotish marketingi va uni sotishga nisbatan keskin farq qiladi. Bu esa xar bir tarmoq raqobatbardoshligini oshirishning asosiy omili bo'lib xisoblanadi.

Rivojlangan davlatlarda eksportni rag'batlantirish uchun Xukumat tomonidan turli xildagi imtiyozlar berilib, o'z maxsulotini eksport qiluvchi tarmoqlar tegishli ravishda rag'batlantirilib boriladi. Xukumat shuningdek, maxsulot ishlab chiqaruvchilarga xalqaro bozorda sotish uchun raqobatbardosh maxsulot ishlab chiqarish va uni eksportga sotishni yo'lga qo'yish uchun turli strategiyalar, Dasturlar ishlab chiqib, amaliyotga tadbiiq etadi.

Bitiruv malakaviy ishilar shuni ko'rsatmoqdaki. jaxon bozorini turli xildagi maxsulotlar bilan muntazam ta'minlovchi va yuqori raqobatbardoshlikka ega bo'lgan qishloq xo'jaligi tarmog'i AQSh tegishlidir. Jumladan, AQSh tomonidan 2013 yilda jami 57708,3 mlrd.so'mlik maxsulot boshqa davlatlarga eksport qilingan. Bu kabi ro'yxatga ko'plab Osiyo, yeI davlatlarini kiritish mumkin.

Yuqorida ta'kidlanganidek, bugungi kunda qishloq xo'jaligi tarmog'i raqobatbardoshligi yuqori darajada rivojlangan davlatlardan biri bu AQSh xisoblanadi. AQSh agrar tarmog'ida narx, soliq, kredit, innovatsiyalar va boshq. iqtisodiy, shuningdek xuquqiy, tashkiliy mexanizmlarni takomillashtirib borish asosida fermerlar va qishloq xo'jaligi maxsulotini qayta ishlab chiqaruvchi korxonalar o'rtasida raqobat muxiti rivojlantirish uchun yetarli shart-sharoitlar yaratilgan.

AQShda fermerlar o'rtasida raqobatni yo'lga ko'yishdan asosiy maqsad qishloq xo'jaligi maxsulotlari raqobatbardoshligini muntazam oshirib borish orqali mamlakat axolisini sifatli va arzon oziq-ovqat maxsulotlari bilan ta'minlash va qishloq xo'jaligi maxsuloti eksportini oshirish xamda buning natijasida valyuta

tushumini ko'paytirish xisobiga tarmoq raqobatbardoshligini ta'minlashdir.

11-jadval.

Jaxonda eng yirik qishloq xo'jalik maxsulotlari eksportyori bo'lgan davlatlar

mlrd. AQSh dollari

№	Mamlakatlar	Yillar				Farqi (-;+)
		1990	1995	2008	2013	
1	Argentina	5,4	8595,1	8052,9	13963,1	13957,7
2	Avstraliya	9,6	11098,1	14022,4	18897,3	18887,7
3	Braziliya	6,3	10160,0	10250,4	26852,4	26846,1
4	Kanada	8266,4	11617,7	14888,8	20711,3	12444,9
5	Daniya	6339,7	7905,1	7926,7	11614,9	5275,2
6	Frantsiya	21486,1	29438,9	28452,8	41479,3	19993,1
7	Germaniya	3469,4	21007,5	21193,3	37966,9	34497,5
8	Indoneziya	2320,3	5039,4	4511,0	10315,9	7995,6
9	Italiya	6928,9	12544,8	13198,1	21847,5	14918,5
10	Meksika	3473,8	5212,1	7227,5	10222,6	6748,8
11	Niderlandiya	15359,3	25303,4	23443,0	38591,5	23232,3
12	Ispaniya	5894,4	10813,4	12421,1	21909,5	16015,1
13	Buyuk Britaniya	9426,2	12738,9	12946,2	16637,7	7211,5
14	AQSh	34332,4	51220,7	46979,3	57708,3	23376,0
15	Bel giya	832,1	277,5	13436,4	21629,7	20797,6
16	Xitoy	9713,1	13090,5	11735,1	17200,6	7487,6
	Jami	238914,0	366814,6	350482,6	563902,3	324988,3

Manba: BMTning FAO tashkiloti ma'lumotlariga asosida tuzilgan

AQSh qishloq xo'jaligi tarmog'i raqobatbardoshligini ta'minlashga birinchi navbatda, tarmoqni xususiylashtirish va erkinlashtirish orqali erishilgan. Ammo davlatning roli xam saqlanib qolingan. Shu bilan birga qishloq xo'jaligi sub'ektlari butunlay davlat nazoratida bo'ldi deyish xam to'g'ri emas. Amaliyotda esa bozor mexanizmlarini ishlash tamoyillari muxim axamiyat kasb etadi.

AQSh qishloq xo'jaligi tarmog'ini moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha xam jaxonda ilg'or mamlakatlardan biri xisoblanadi. Moliyaviy yordam asosan quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi. Jumladan:

- qishloq xo'jaligi maxsulotlarini talab darajasida ishlab chiqarish resurslari bilan ta'minlash;
- qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida fan va texnika yutuqlarini joriy qilish;
- qishloq xo'jaligi maxsulotlarini eksport qilishni rag'batlantirish;

- qishloq xo'jaligi maxsulotlarini qayta ishlash tizimini rivojlantirish;
- qishloq xo'jaligi maxsulotlariga belgilanadigan baxoni tartibga solish;
- qishloq xo'jaligi tarmog'iqa xizmat ko'rsatuvchi korxonalarini rivojlantirish va boshq.

AQSh agrar tarmog'ida raqobatni rivojlanishida davlat yetakchi rol o'ynaydi ya'ni, tarmoqqa ajratiladigan yirik moliyaviy mablag'lar orqali past foizlarda fermerlarga kreditlar ajratadi, jaxon bozorida qishloq xo'jaligi maxsulotlari narxi arzonlashganda, fermerlarni zarar ko'rmasligi uchun ushbu maxsulotlarni yuqori narxlarda sotib oladi, soliq va sug'urta bo'yicha turli imtiyozlarni berishi eng asosiysi raqobatni rivojlanishini ta'minlovchi xuquqiy asoslarni muntazam takomillashtirib boradi.

Respublika agrar tarmog'i raqobatbardoshligini oshirishda AQShda to'plangan tajribalarning quyidagilaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

- maxsulot yetishtiruvchi, maxsulot sotib oluvchi va servis xizmati ko'rsatuvchi tizimlar o'rtasida raqobatni rivojlantirishga davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash darajasini oshirish;

- past foizlarda imtiyozli kredit berishda fermerlarning ixtisoslashganlik darajasiga emas balki mavjud extiyojiga qarab kredit berish tizimini yo'lga qo'yish, shuningdek sug'urta tashkilotlari tomonidan tarmoqni kreditlash amaliyotini qo'llash;

- maxsulotlar turlarini yetishtirish va tanlash bo'yicha erkinlik berish va qishloq xo'jaligi maxsulotlari narxini chegaralashni kamaytirish;

- maxsulotlar raqobatbardoshligini oshirib borishda muntazam ravishda davlat tomonidan agrar fanni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish va boshq.

Yuqoridagi tavsiya va takliflarni (AQShda to'plangan tajribalar) amaliyotga joriy etib borish, milliy qishloq xo'jaligi tarmog'i raqobatbardoshligining ta'minlanishi va eksport tizimini rivojlanishida muxim ahamiyat kasb etib qoladi.

Qishloq xo'jaligi maxsulotlari eksporti orqali jaxon xamjamiyatiga qo'shilish va qishloq xo'jaligi tarmog'i raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha Xitoyda olib borilgan islohotlar xam katta qiziqish uyg'otadi. Xitoy qishloq xo'jaligida

eksportni rivojlantirishda o'ziga xos xususiyatlar mavjud bo'lib, bular mulk davlat tasarrufida saqlanib qolingan xolda, tarmoqda faoliyat ko'rsatuvchi sub`ektlarga erkinlik berish orqali yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishilib, mamlakat iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi tarmog'i o'ziga xos o'rin egallagan.

Xitoyda qishloq xo'jaligi maxsuloti yetishtiruvchilar va qayta ishlovchilar, ya'ni davlat tasarrufidagi korxonalar, qo'shma korxonalar, kollektiv korxonalar va xususiy korxonalar (individual-oila xo'jaliklari) o'rtasida raqobat shakllantirilgan.

Xitoy qishloq xo'jaligida asosan, texnik ekinlar (paxta, g'alla va boshq.) davlat buyurtmasi asosida yetishtiriladi va xarid narxlari orqali sotib olinadi, buyurtmadan ortiq qismini xo'jaliklar ichki va tashqi bozorlarga erkin sotish imkoniyatiga ega. Shuningdek, Xitoyda qishloq xo'jaligi maxsulotlarini eksportini rivojlantirishdagi strategik vazifalardan biri bu maxsulotni sotish va narx belgilash, eksport tizimini erkinlashtirish xisoblanadi.

Xitoy meva-sabzavot maxsulotlari eksport xajmining oshib borishida 1988 yilda qabul qilingan «Sabzavot dasturi» katta rol o'ynamoqda. Bugungi kunda ushbu maxsulotlar raqobatbardoshligi bo'yicha jaxon qishloq xo'jaligi bozorlarida Xitoy davlatining yetakchilik qilishida strategik dastur muxim ahamiyat kasb etmoqda.

Xitoy qishloq xo'jaligi maxsulotlari eksportini rivojlantirishda birinchi navbatda quyidagilarga e'tibor qaratilgan. Bular jumlasiga:

- dexqonga ekin turini mustaqil tanlash imkoniyati berilgan;
- maxsulotni ichki va tashqi bozorlarda sotish tizimi erkinlashtirilgan;
- past foizli va samarali soliq tizimi joriy qilingan (faqat yer solig'i va suvga to'lanadigan xaq boshqa soliq turlariga nisbatan yuqoridir);
- davlat mablag'lari xisobiga tarmoqda marketing Bitiruv malakaviy ishilarini yo'lga qo'yilgan;
- davlat tomonidan ichki bozorda qishloq xo'jaligi maxsulotlarini tashuvchi transport tizimini rivojlantirishga yirik xajmda subsidiyalarni berilgan;
- maxsulot yetishtiruvchilarga uzoq muddatli yillik 3-4 foizlik kreditlar ajratish mexanizmi ishlab chiqilgan va boshq.

Xitoy qishloq xo'jaligi maxsulotlari eksport tizimini rivojlantirish asosida tarmoq raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha to'plangan ilg'or tajribalaridan respublika qishloq xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlarini xisobga olgan xolda foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Qishloq xo'jaligi maxsulotlari eksportini rivojlantirish bo'yicha Turkiya davlatida xam o'ziga xos tajribalar to'plangan. Iqlim sharoitlari respublikamizda shakllangan tabiiy-iqlim sharoitlardan keskin farq qilgan Turkiyada asosan subtropik meva-sabzavot maxsulotlari yetishtirish rivojlangan. Ushbu maxsulotlarni yetishtirishda fermer xo'jaliklari yetakchilik qiladi.

Ma'lumki, qishloq xo'jaligi rivojlanib borishida xizmat ko'rsatuvchi tarmoq ya'ni bozor infratuzilmasining tutgan roli muximdir. Turkiyada infratuzilma sub'ektlari yuqori darajada rivojlangan bo'lib, ushbu soxada to'plangan tajribalarga to'xtalib o'tsak.

Turkiyada "Meva-sabzavot maxsulotlari sifatini yaxshilash asosida eksport xajmini oshirish xisobiga tarmoq raqobatbardoshligini ta'minlashda xududlarda infratuzilma ob'ektlarini rivojlantirish strategik" dasturi qabul kilingan bo'lib. Bu dasturga ko'ra:

- qayta ishlangan maxsulotlar sifati va xajmini oshirish maqsadida, maxsulotlarni muzlatish korxonalarini qurish;

- maxsulotlarni saqlash uchun sovutkichlar bilan ta'minlangan omborlarni qurish;

- xududlarda mevalarni etilen bilan dezodaratsiya qilish kameralarini barpo qilish;

- maxsulotni tashish uchun ixtisoslashgan transport tizimini rivojlantirish;

- maxsulotga birlamchi ishlov berish, saralash, qadoklash va tara ishlab chiqarish tsexlarini rivojlantirish;

- yig'im terim davrida, chet ellik xaridorlar bilan shartnomalar tuzish va mazkur buyurtmalarni yirik maxalliy kompaniyalarda joylashtirish. bo'yicha vositachi firmalarni rivojlantirish asosiy maqsad qilib belgilangan.

Vengriyada qishloq xo'jaligi maxsulotlarini eksport tizimi turli mulkchilik

shakllarining tashkil etilishi va yer dexkonga uzoq yillik shartnoma asosida xususiy mulk qilib berilishi natijasida rivojlantirilgan.

Bugungi kunda Vengriya qishloq xo'jaligi maxsulotlari eksporti orqali jaxon xamjamiyatiga qo'shilishda quyidagilarga axamiyat berilgan:

- maxsulotlar eksporti bo'yicha me'yoriy-xuquqiy asoslar bazasi yaratilgan;
- tarmoqda axborot, konsalting va boshqa noishlab chiqarish xizmatlarini davlat tomonidan olib borishga ustunlik berilgan;

- Qishloq xo'jaligi vazirligi va uning xududlardagi boshqarmalarida monitoring Bitiruv malakaviy ishilarini o'tkazish va maxsulot ishlab chiqaruvchilarni ichki va tashqi bozorlardagi xolat to'g'risidagi ma'lumotlar bilan ta'minlash yo'lga qo'yilgan;

- qishloq xo'jaligida xizmat ko'rsatuvchilar sub'ektlar turli mulk shakllariga asoslangan;

- qishloq xo'jaligi maxsuloti yetishtiruvchilarga xizmat ko'rsatuvchi maxsus davlat banklari tashkil etilgan va boshq.

Frantsiya yeI-dagi eng yirik qishloq xo'jaligi yerlariga ega bo'lgan va tarmoq raqobatbardoshligi yuqori bo'lgan davlatlardan biri xisoblanadi. Frantsiyaning qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yer maydoni 30 mln. ga tashkil qilib, yuqori xosildorlikka ega (boshokli ekinlar xosildorligi 60 tsG'ga). yeI-da ishlab chiqarilayotgan jami qishloq xo'jaligi maxsulotlarining 21 foizi Frantsiya xissasiga to'g'ri keladi (qiymat ko'rinishida). Qishloq xo'jaligi maxsulotlari eksporti bo'yicha AQSh dan so'ng 2-o'rinda turadi.

Frantsiya qishloq xo'jaligi tarmog'i raqobatbardoshligi asosan boshqa davlatlar kabi qishloq xo'jaligida maxsulotlarni eksport qilish xisobiga ta'minlagan. Shuning uchun xam ushbu davlat qishloq xo'jaligi maxsulotlarini eksport qilish va uning xajmini oshirish bo'yicha ko'p yillik tarixiy tajriba to'plangan. Frantsiya qishloq xo'jaligi maxsulotlari eksportini rivojlantrishda uchta omil, ya'ni xususiylashtirish, erkinlashtirish va davlatning bozor mexanizmlari orqali tartibga solish vazifasi asosiy rol o'ynaydi. Eng asosiysi qishloq xo'jalik maxsulotlari eksport xajmini oshirishda davlatning tartibga solish vazifalari

bo'yicha to'plangan tajribalar muxim ahamiyatga ega. Bular,

- tarmoqni boshqarish va tartibga solishda davlatning siyosiy va iqtisodiy vazifalari aloxida ajratilgan;

- davlat tomonidan tarmoqni samarali moliyalashtirish tizimini rivojlangan;

- kredit mablag'larini olish bo'yicha mavjud qiyinchilik va kamchiliklarni tugatib borishda maxalliy xokimiyat organlari tomonidan aniq dasturlar ishlab chiqilgan va bu dasturga zarur o'zgartirishlar kiritib boriladi;

- davlat tomonidan melioratsiya va irrigatsiya tadbirlarini olib borishga aloxida e'tibor qaratilgan;

- davlat tomonidan tarmoqda o'tkaziladigan sug'urtalash tadbirlarini qo'llab-quvvatlash mexanizmi ishlab chiqilgan va joriy qilingan.

Frantsiyada qishloq xo'jalik maxsulotlarini yetishtiruvchi korxonalar o'rtasida raqobat muxitini rivojlantirishga aloxida e'tibor qaratiladi. Shu sababli tarmoqda ishlab chiqarish yuqori darajada tashkil etilgan bo'lib, ushbu maxsulotlar jaxon bozorida raqobatbardoshligi bilan ajralib turadi.

Frantsiya qishloq xo'jaligi maxsulotlari (olma, nok, shaftoli, uzum, pomidor, rangli qaram, sabzi va qovun) keng assortimentda ishlab chiqariladi va yuqori sifati, ekologik tozaligi, inson salomatligiga xavfsizligi xamda bu maxsulotlar raqobatbardoshligi bo'yicha yeI-da oldingi o'rinlarda turadi. Misol uchun, jaxonda Frantsiya vino maxsulotlari bilan raqobatlasha oladigan vinolar kam xisoblanadi. Xar bir davlat oshxonasining uchtasidan birida Frantsiya vinolari uchraydi.

Bizningcha, qishloq xo'jaligi maxsulotlari eksportini rivojlantirish asosida jaxon xamjamiyatiga qo'shilishda qishloq xo'jaligi tarmog'i raqobatbardoshligini shakllantirish va maxsulotlar raqobatbardoshligini oshirish muxim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun xam, bu boradagi yevropa davlatlarida to'plangan tajribalardan respublika qishloq xo'jaligiga mos keladiganlaridan foydalanish zarurdir.

Qishloq xo'jaligi rivojlangan davlatlarda, qishloq xo'jaligi maxsulotlari eksportini rivojlantirish va maxsulotlar raqobatbardoshlik darajasini oshirish bo'yicha to'plangan tajribalar turlicha bo'lsada, ammo umumiy xususiyatlardan

xoli emas.

Qishloq xo'jaligi maxsulotlari eksportini rivojlantirish bo'yicha to'plangan xorij tajribalaridan respublika qishloq xo'jaligining o'ziga xos shart-sharoitlarini xisobga olgan xolda quyidagilarni foydalanishga tavsiya etish mumkin:

- qishloq xo'jaligi sub`ektlariga maxsulotlarni yetishtirishdan boshlab to sotishgacha bo'lgan jarayonlar bo'yicha erkinlik berish orqali iqtisodiy samaradorlikni ta`minlash (Xitoy va AQSh tajribasi);

- maxsulot yetishtirish va sotish xamda xizmat ko'rsatish turlari bo'yicha aloxida kooperatsiyalarni tashkil etish. Bu o'z navbatida, qishloqda kichik tadbirkorlikni rivojlanishiga muxim turtki bo'ladi (Xitoy va Vengriya tajribasi);

- soliq, kredit va sug'urtalash jarayonlarida keng imkoniyatlarning yaratish (Frantsiya, AQSh tajribasi);

- qishloq xo'jaligi maxsulotlarini ishlab chiqaruvchilarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlarini kuchaytirish (AQSh, yevropa davlatlari tajribasi);

- qishloq xo'jaligi maxsulotlariga baxo belgilashni erkinlashtirish (Pol sha, Turkiya tajribasi);

- qishloq xo'jaligi maxsulotlari eksport xajmini oshirishga ta`sir ko'rsatuvchi iqtisodiy, siyosiy, tashkiliy va boshqa mexanizmlarni ketma-ketlik tamoyilida amalga oshirish (Xitoy, AQSh tajribasi).

Xulosa qilib shuni ta`kidlash lozimki, qishloq xo'jaligi maxsulotlari eksport xajmini oshirish bilan bog'liq ko'plab iqtisodiy - ijtimoiy muammolarni xal etib borilishida, albatta, xorij tajribasining ijobiy tomonlarini, qishloq xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlarni to'liq xisobga olgan xolda amaliyotga tatbiq etib borish, o'z navbatida tarmoqning raqobatbardoshligini oshirishda katta xissa qo'shadi.

**3 – BOB. ISLOXOTLARNING YANGI BOSQICHIDA QISHLOQ XO'JALIGI
TARMOG'I RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING TASHKILY-IQTISODIY
MEXANIZMLARI**

**3.4. Qishloq xo'jaligi tarmog'i raqobatbardoshligini ta'minlashni
davlat tomonidan tartibga solish tizimini takomillashtirish**

Mamlakatimiz qishloq xo'jaligidagi ko'p yillik tajriba va rivojlangan davlatlarning qishloq xo'jaligini islox qilishda olib borayotgan siyosatlarini umumlashtirish shuni ko'rsatmoqdaki, bozor munosabatlari sharoitida erkin bozorlarda kuzatilayotgan jiddiy kamchilik va nomutanosibliklar davlatning aralashuvi yo'li bilan xal etiladi. Bunda, agrar soxani davlat tomonidan tartibga solish zaruriyati nafaqat ayrim bir omillarning ta'siri bilan, balki ko'plab omillarning, ayniqsa qishloq xo'jaligining va tarmoqda takror ishlab chiqarish jarayonlari sharoitlarining o'ziga xos xususiyatlarini belgilab beruvchi quyidagi omillarning ta'siri bilan izoxlanadi:

-mamlakat iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi tarmog'ining o'ziga xos o'rni;

-mamlakatimiz axolisining qariyb 60 foizi qishloq xududlarida istiqomat qilishi;

-tarmoqda ishlab chiqarish tabiat xodisalari va iqlim o'zgarishiga ko'p jihatdan bog'liqligi;

-mamlakat agrar siyosatining bozor munosabatlariga moslashgan yagona tizimi shakllanmaganligi;

-bugungi qishloq xo'jaligini yuritish usuli (intensiv texnologiya) yer, suv, mexnat va moddiy resurslarning yuqori sarfiga asoslanganligi;

-qishloq xo'jaligida xarajatlarni boshqarish tizimi shakllanmaganligi va amalda qo'llanilayotgan texnologiya maxsulotning raqobatbardoshligini ta'minlamayotganligi;

-bir resurs birligi xisobiga (er, suv, mexnat va boshqa moddiy resurslar) olinayotgan maxsulot miqdorining kamayib borayotganligi;

-tuproqning sho'rlanib, strukturasi buzilib, bal-bonitetining pasayib borayotganligi, suv resurslarining ifloslanib, sifati pasayib borayotganligi;

-qishloq xo'jalik korxonalarini moliyalashtirish, kredit va resurslar bilan ta'minlashni ortiqcha markazlashtirib yuborganligi;

-qishloq xo'jaligi ixtisoslashuvi ishlab chiqarish samaradorligini va ekologik muvozanatni ta'minlay olmasligi;

-qishloq xo'jaligida qayta tiklanadigan resurslardan foydalanish sur'atlari ularning qayta tiklanishi sur'atlaridan va atrof muxitning ifloslanishi xajmi ekotizimning tiklanishi darajasidan yuqoriligi;

-qishloq xo'jaligida xo'jalik yuritish shakllarining tez o'zgarishi va boshqarish tizimida kadrlar qo'nimsizligining yuqoriligi;


-qishloq xo'jaligida moddiy manfaatdorlikni iqtisodiyotni boshqa tarmoqlariga nisbatan pastligi va boshqalar.

Yuqoridagi vaziyatlar qishloq xo'jaligi tarmog'ida umumiy ishlab chiqarish jarayoni davlat tomonidan doimo qo'llab-quvvatlanish zarurati mavjudligidan dalolat beradi.

Agrar soxani davlat tomonidan tartibga solish tizimi o'zida, qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining o'zgaruvchan bozor sharoitlariga moslashuvchanligi va raqobatbardoshligini ta'minlashga qaratilgan qonunchilik, ijro va nazorat ko'rinishidagi chora-tadbirlarni aks ettiradi. Umuman olganda, ushbu chora-tadbirlar tarkibiy jihatdan butun bir tashkiliy-ma'muriy, xuquqiy va iqtisodiy chora-tadbirlardan iborat bo'lishi lozim.

Olib borilgan nazariy va amaliy izlanishlar yakuni bo'yicha qishloq xo'jaligi tarmog'i raqobatbardoshligini ta'minlashning davlat tomonidan tartibga solish yo'nalishlari belgilab olindi.

Qishloq xo'jaligi tarmog'i raqobatbardoshligini ta'minlashni davlat tomonidan tartibga solishning asosiy yo'nalishlari



Manba: Muallifning ilmiy Bitiruv malakaviy ishlari asosida tuzilgan

4-rasm.

Bozor munosabatlari sharoitida qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarini, ularning tashkiliy-xuquqiy shakllaridan qat'iy nazar byudjetdan qo'llab-quvvatlash davlat tomonidan tartibga solishning asosiy yo'nalishlaridan biri xisoblanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida samarali agrar siyosatni shakllantirish uchun davlat tomonidan tartibga solish yo'nalishlari ko'lamini, tezkor qisqa muddatli tartibga solishdan keng ko'lamlil tartibga solish yo'nalishlarigacha yoki uzoq muddatli strategik tartibga solishgacha bo'lgan jarayonlarni to'g'ri belgilab olish muxim ahamiyat kasb etadi. Ularning o'zaro mutanosibligi qishloq xo'jaligi tarmog'ida bozor munosabatlarning samarali sub`ektlarini shakllantirish va takror ishlab chiqarishni ta'minlash, oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi xomashyosi uchun yuqori talabni qo'llab-quvvatlash, qishloq xo'jaligi tarmog'i maxsulotlarining barqaror taklifini shakllantirish, ijtimoiy siyosatni amalga oshirish, maxalliy qishloq xo'jaligi maxsulotlari va xomashyolari ishlab chiqaruvchilarini ximoyalash va nixoyat tarmoqning raqobatbardoshligini ta'minlash imkonini beradi.

Umuman olganda, mamlakatimiz agrar soxasida amalga oshirilayotgan tub isloxotlar natijasida qishloqda fermerlik xarakatini bosqichma-bosqich rivojlantirilib borilayotgan bir sharoitda, ayniqsa 2008 yilda boshlanib, bugungi kunda davom etayotgan xalqaro moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida tarmoqni davlat tomonidan tartibga solishning eng muxim va asosiy vazifalari quyidagilar xisoblanadi:

-tizimli monitoring olib borish va istiqboldagi rivojlanish tendentsiyalarini bashorat qilish vositasida qishloq xo'jaligi tarmog'idagi ijtimoiy-iqtisodiy xolatni taxlil qilish va baxolash;

-hozirda kuzatilayotgan jarayonlarda ijobiy o'zgarishlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilash bo'yicha optimal qaror qabul qilish va asoslash maqsadida qishloq xo'jaligi tarmog'ini barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni rejalashtirish.

Rejalashtirish davlat tomonidan tartibga solish tizimida muvofiqlashtiruvchi bo'g'in bo'lib, bir vaqtning o'zida istiqbolni belgilash kabi davlat tomonidan tartibga solishning asosi va mexanizmining dastagi xisoblanadi. Bugungi kunda

rejalashtirishning keng qo'llanilayotgan uslubi maqsadli-dasturlar ishlab chiqish xisoblanadi.

Qishloq xo'jaligi tarmog'ini davlat tomonidan tartibga solishning ma'muriy va iqtisodiy mexanizmlari, shakllari xamda uslublari, bir tomondan, bozor sharoitida davlatning xo'jalik sub`ektlari bilan o'zaro aloqasini o'zida aks ettiradi. Ikkinchi tomondan esa, ushbu aloqalarning ko'rinishi turlicha bo'lib, ma'muriy usullar to'g'ridan-to'g'ri aloqalarni bildiradi, iqtisodiy usul esa – bilvosita aloqani ya'ni, tovar-pul munosabatlarini tartibga soladi.

Mamlakatimiz agrar tarmog'ining raqobatbardoshligini ta'minlashda davlat tomonidan tartibga solishning samarali tizimini shakllantirish, qishloq xo'jaligi soxasi raqobatbardosh bo'lgan bozor munosabatlari rivojlangan davlatlarning tajribalarini o'rganishni va O'zbekiston sharoitida ulardan foydalanish yo'nalishlarini belgilab olishni talab etadi.


Xozirgi kunda rivojlangan davlatlar agrar siyosati asosini turli subsidiya, dotatsiya va imtiyozlar asosida qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlash tashkil etmoqda. Rivojlangan davlatlarda qishloq xo'jaligiga sarflanayotgan mablag'lar ishlab chiqarilayotgan maxsulotlarning bozor baxosidan 1,5 – 2 marta ko'pdir. AQSh va yevropa ittifoqi (EI) davlatlarida qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab quvvatlash natijasida maxsulot ishlab chiqarishning o'sishiga va qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishiga erishilmoqda. Eksport qilinayotgan qishloq xo'jaligi maxsulotlarining asosiy qismi shu mamlakatlar ulushiga to'g'ri kelmoqda. Xorijiy davlatlar tajribalarini umumlashtirgan xolda qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlarini 2 guruxga ya'ni, bevosita va bilvosita qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlariga ajratish mumkin.

Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bilvosita chora-tadbirlari asosan qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining daromadlarini ximoyalashga qaratilgan bo'lib, bular:

- to'g'ridan-to'g'ri davlat kompensatsion to'lovlari;
- tabiiy ofatlar natijasida ko'rilgan zararni qoplash;

-ishlab chiqarishni qayta tashkil etish, o'zgartirish natijasida bo'ladigan yo'qotishlarni qoplash kabilar.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini davlat tomonidan tartibga solish va iqtisodiy qo'llab-quvvatlash tizimi



Manba: Muallifning ilmiy Bitiruv malakaviy ishilarida tuzilgan

5-rasm.

Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan bilvosita qo'llab-quvvatlash choratadbirlari quyidagilardan iborat:

- qishloq xo'jaligi maxsulotlarining ichki baxolarini qo'llab – quvvatlagan xolda oziq-ovqat bozori baxosiga aralashuv, kvota va tariflar belgilash, oziq-ovqat maxsulotlariga eksport va import soliqlarini belgilash;

- o'g'itlar, ximikatlar va chorva ozuqalarini sotib olish uchun subsidiyalar berish, olingan kreditlarning foizlarini va mulklarni sug'urtasi uchun to'lovlarni

to'lab berish yo'li bilan qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining xarajatlarini kompensatsiyalash;

- bozor sharoitiga mos dasturlar ishlab chiqish va joriy qilishga davlat mablag'larini yo'naltirish, maxsulotlarni saqlash va tashishdagi transport xarajatlarini subsidiyalash orqali agrar bozorni rivojlantirishda ishtirok etish;

- ishlab chiqarishga taa'luqli bino ishootlarni qurish, irrigatsiya-melioratsiya loyixalari, yerni rekul tivatsiya qilish uchun va fermerlar yoki qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining uyushmalari xamda kooperatsiyalarini tashkil qilish, ishlab chiqarish infratuzilmalarini rivojlantirish uchun uzoq muddatli chora-tadbirlarni amalga oshirishga davlat mablag'larini taqsimlash orqali subsidiyalar ajratish.

Jumladan, AQShda 30%, Germaniyada 50% va Yaponiyada esa 75% qishloq xo'jaligi maxsulotlariga dotatsiya beriladi. yeI davlatlarida qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlash uchun byudjetdan YaIMning 25%dan 30%gacha, Rossiyada 1%, Qozog'iston Respublikasida 0,7% miqdorida mablag' sarflanadi. Davlat byudjetidan ajratilayotgan mablag'lar 1 ga xaydaladigan yer xisobiga yeI davlatlarida o'rtacha 855 dollarni, Shveysariyada 4214 dollarni, AQShda 107,5 dollarni, Kanadada 83 dollarni, Finlandiyada 500 dollarni, Qozog'istonda 7,5 dollarni, bir qishloq xo'jaligi korxonasi xisobiga esa AQShda esa 45000 dollarni, Qozog'istonda 1200 dollarni tashkil etadi.

Xozirda respublikamizda davlat tomonidan paxta va g'alla ishlab chiqarishni subsidiyalash siyosati yuritilmoqda. Jumladan, qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari elektr energiya xarajatlarini imtiyozli narxlarda to'laydilar, qishloq xo'jaligi texnikalari narxining bir qismini davlat to'lab beradi, lizing xizmatlarini joriy etmoqda, kredit subsidiyalari beradi va xar yili qarzlarini kechib boradi. So'nggi yillarda subsidiyaning xajmi 345 mln.dan 750 mln AQSh dollari oralig'ida bo'lmoqda. Keyingi 8 yil ichida qishloq xo'jaligiga ajratilayotgan subsidiyalar xajmi 2 marotaba qisqarganligini kuzatish mumkin. Ajratilayotgan subsidiyaning asosiy qismi irrigatsiya ishlariga sarflanmoqda. Chunki, suv resurslarini yig'ish, suv inshootlarini shakllantirish va yetkazib berish ishlarini

barchasi davlat tomonidan amalga oshirilmoqda. Shuning uchun so'nggi yillargacha qishloq xo'jaligiga ajratilayotgan subsidiyalarning 30 foizidan 50 foizigacha bo'lgan qismi suv resurslari bilan bog'liq bo'lgan yo'nalishlarga ajratilgan.

Shunday qilib, qishloq xo'jaligining raqobatbardoshligini ta'minlashda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash ko'plab rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar agrar siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Davlat tomonidan qo'llab quvvatlashda turli iqtisodiy mexanizmlardan (byudjetdan to'lovlar, qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari xarajatlarini kompensatsiyalash, ishlab chiqarish infratuzilmalarini takomillashtirishni subsidiyalash, turli dasturlarni ishlab chiqish va joriy qilishni moliyalashtirish) foydalangan xolda qishloq joylarda ijtimoy-iqtisodiy infratuzilmalarni shakllantirish va bu asosida qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishga mo'ljallangan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Shu nuqtai-nazardan, Bitiruv malakaviy ishilar davomida AQSh va yel davlatlarining qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan dasturlarini taxlil qilingan xolda ayrim jixatlari umumlashtirildi.

Masalan, xozirda yelida qishloq xo'jaligini byudjetdan qo'llab-quvvatlash to'rt yo'nalishda amalga oshiriladi:

-qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilariga byudjetdan to'g'ridan-to'g'ri to'lovlar;

-qishloq xududlarining rivojlanishini qo'llab-quvvatlash;

-qishloq xo'jaligini tarkibiy jixatdan (investitsion loyixalar) qo'llab-quvvatlash;

-qishloq xo'jaligiga ko'rsatiladigan xizmatlarni moliyalashtirish (davlat chora-tadbirlari);

Shuningdek, yel davlatlarida qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari narxlarini qo'llab-quvvatlash aloxida axamiyat kasb etadi. G'arbiy yevropa davlatlarida qishloq xo'jaligi maxsulotlariga kafolatlangan narxlar mexanizmi amal qiladi. Masalan, Finlyandiyada narxlarning uch toifasi: maqsadli, dotatsion va qo'shimcha narxlardan foydalaniladi. Ya'ni, ushbu davlatda Qishloq va suv

xo'jaligi vazirligi tomonidan maqsadli narxlar belgilanadi va qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari bilan kelishilgan xolda tasdiqlanadi. Ushbu narxlar yil davomida inflyatsiyani xisobga olingan xolda o'zgartirilishi mumkin. Mamlakatning qishloq xo'jaligi uchun eng qulay xududlaridagi xo'jaliklarda ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi maxsulotlarining tannarxi asosida ishlab chiqilgan narxlar modeli narxlarning asosi tashkil etadi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi uchun noqulay bo'lgan xududlarda esa dotatsiyalar taqdim etiladi.

Eksport qilinadigan qishloq xo'jaligi maxsulotlariga esa, kafolatlangan narxlar kabi, dotatsion narxlar xam belgilanadi. Qo'shimcha narxlar esa, davlat tomonidan ajratilgan kvotalardan ortiqcha ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi maxsulotlariga belgilanishi ko'zda tutilgan. Bu, ushbu mamlakatning u yoki bu xududida joylashgan ichki bozorlarda shakllangan vaziyatlarga bog'liq xolda o'zgarib turadi va maqsadli narxlarga nisbatan past bo'ladi.

12 - jadval

EI davlatlarida qishloq xo'jaligini byudjetdan qo'llab-quvvatlash darajasi

Ko'rsatkichlar	1990-2000 yillar	2012 yil
Qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarini byudjetdan qo'llab-quvvatlash:		
Qishloq xo'jaligi maxsulotlarining tannarxiga nisbatan, %	41	34
Byudjetdan qo'llab-quvvatlashning jamiga nisbatan, %	13,2	17,7
Yalpi qishloq xo'jaligi maxsulotiga nisbatan, %	62	65
Ximoyalashning nominal koeffitsienti:		
Ishlab chiqaruvchilarni	1,57	1,31
Iste'molchilarni	1,5	1,31

Manba: yeVROSTAT ma'lumotlari

EIda qishloq xo'jaligini davlat tomonidan tartibga solishning asosiy ko'rsatkichlaridan biri – ishlab chiqarilgan maxsulotlarning fermerlar narxlarini byudjetdan qo'llab-quvvatlash darajasi xisoblanadi. Umuman olganda, yeI davlatlari bo'yicha qishloq xo'jaligi tarmog'ini davlat tomonidan qo'lab

quvvatlashga yo'naltirilgan mablag'larning miqdori 2012 yilda yalpi qishloq xo'jaligi maxsulotining 65% ini tashkil etdi.

Qishloq xo'jaligi tarmog'i raqobatbardoshligini ta'minlashni davlat tomonidan tartibga solish borasidagi xorijiy tajribalarni o'rganishda, AQShda amalga oshirilayotgan davlat dasturlarini o'rganish va umumlashtirish xam muxim ahamiyat kasb etadi. Shu o'rinda, ta'kidlash joizki, AQShning Qishloq xo'jaligi vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2012 yilda mamlakatdagi jami qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining uchdan bir qismi u yoki bu shaklda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash to'lovlaridan foydalanish imkoniga ega bo'lishgan.

Shuningdek, AQShda qishloq xo'jaligini sug'urtalash dasturlari yuqori darajada samarali faoliyat yuritishmoqda. Sug'urta dasturlarining turli-tumanligi (20 dan ortiq) va yuqori samaradorlik ushbu dasturlarda fermerlarning faol ishtirok etishlarini ta'minlamoqda. Masalan, 1998 yili amerika fermerlari tomonidan 73,8 mln.ga ekin maydonlari sug'urta qilingan bo'lsa, 2012 yilga kelib ushbu ko'rsatkich – 88,9 mln.gani tashkil etgan, bu esa jami ekin maydonlarining 62%ni tashkil etadi.

AQShda eng ommaviylashgan sug'urta dasturlari sifatida “Xosilni ko'p martalik sug'urtalash” (MPCI - Multiple Peril Crop Insurance), “Yuqori darajada jiddiy bo'lgan risklarni sug'urtalash” (CAT - Catastrophic Crop Insurance), “Daromadlarni sug'urtalash” (CRC - Crop Revenue Coverage (CRC) dasturlarini keltirish mumkin.

Umuman olganda, rivojlangan davlatlarda qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlashning ko'p qirrali tizimi shakllangan bo'lib, ko'plab davlatlarning agrar siyosati mamlakatni oziq-ovqat maxsulotlari bilan kafolatlangan tarzda maksimal ta'minlashga; qishloq xo'jaligida barqaror iqtisodiy sharoitni qo'llab-quvvatlashga; tarmoqning investitsion joibadorligini belgilovchi – daromadlilikning ma'lum bir minimal darajasiga erishishga; ortiqcha ishlab chiqarishni tartibga solishga; xalqaro bozorlarda maxalliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini ta'minlashga qaratilgandir.

Olib borilgan ishlanishlar shuni ko'rsatmoqdaki, qishloq xo'jaligi tarmog'ining raqobatbardoshligini ta'minlashda davlat tomonidan tartibga solish kontsepsiyasi quyidagi asosiy tamoyillar asosida tuzilishi lozimdir:

Mutanosiblik tamoyili – bunda, davlatning umumiy iqtisodiy siyosati bilan agrar siyosatning o'zaro mutanosibligi nazarda tutiladi;

Bir butunlik tamoyili – Respublikamiz bo'yicha mukammal yagona agrar siyosatning ta'minlanishi;

Tenglik tamoyili – qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan o'z dasturlarini ishlab chiqishda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan sub'ektlarning teng xuquqliligi;

Tizimlilik tamoyili – bunda, mamlakatimiz qishloq xo'jaligining faoliyat yuritishini barcha soxa va jixatlarini qamrab oluvchi davlat tomonidan tartibga solishning turli shakl va usullaridan: ma'muriy, iqtisodiy va institutsional; bevosita va bilvosita, ichki va tashqi iqtisodiy usullaridan tizimli foydalanish nazarda tutilmoqda;

Samaradorlik tamoyili – strategiya barqarorlashtirish siyosatini amalga oshirishga, agrar soxa iqtisodiyotining rivojlanishiga va mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga imkon berishi lozim;

Erkinlik tamoyili – qishloq xo'jaligi va qishloqlarda faoliyat yuritayotgan xo'jalik sub'ektlari qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish dasturlarida imkoniyatlaridan kelib chiqqan xolda erkin ishtirok etilari lozim;

Universallashtirish tamoyili – samarali xo'jalik yuritish va mulkchilik shakllari, quyi tarmoqlarga yoki boshqa tegishliligidan qat'iy nazar faoliyat yuritish uchun bir xil sharoitlar tashkil qilish uchun yagona talablarni ilgari surish;

Ijtimoiy yo'naltirilganlik tamoyili – bunda, ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish, demografik xolatni yaxshilash, yangi ish o'rinlarini tashkil etish va qishloqlarda ishsizlikni qisqartirishga yo'naltirilgan dasturlarni rivojlantirish nazarda tutilmoqda;

Ma'suliyatlilik tamoyili – qishloq xo'jaligini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha qabul qilingan dasturlarni o'z vaqtida va to'liq

moliyalashtirish uchun tegishli davlat boshqaruvi organlarining ma'suliyati va javobgarligi nazarda tutilmoqda.

Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan tartibga solish strategiyasini ishlab chiqishda yuqorida keltirib o'tilgan tamoyillarga amal qilinishi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining samaradorligini oshirish va fermerlarning raqobatbardosh faoliyat yuritishlari uchun imkon beradi. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatimiz agrar tarmog'ining barqarorligini va bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatbardoshligini xamda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlaydi.

3.2. Qishloq xo'jaligi tarmog'i raqobatbardoshligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish

Mamlakatni rivojlantirish va isloxotlarni chuqurlashtirishning xozirgi bosqichidagi ustuvor yo'nalishlardan biri maxalliy ishlab chiqarilgan raqobatbardosh tovarlar bilan ichki iste'mol bozorlarini to'ldirish va import tovarlar miqdorini kamaytirish xisoblanadi. Bu xolat nafaqat mamlakat va mintaqalarning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bilan, balki ishsizlikni oldini olish, iste'molchilar va ishlab chiqaruvchilarning daromadlarini oshirish, qishloq xo'jaligi tarmog'i iqtisodiyotidagi investitsiya jarayolarini rivojlantirish kabilar bilan izoxlanadi.

Qayta ishlash korxonalarini va firmalar tomonidan mamlakatimizning boy agrar xomashyo salohiyatidan to'la foydalanish, ishlab chiqarilayotgan maxsulotlarning assortimentlarini kengaytirish va maxsulotlar sifatini oshirish agrar oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarishni rivojlantirishning asosiy yo'nalishi xisoblanadi.

Agrar soxa raqobatbardoshligini oshirish strategiyasining asosiy yo'nalishlaridan biri klasterlashtirish orqali rivojlanish shart-sharoitlari va tendentsiyalarini baxolashga kompleks o'tish xisoblanadi. Iqtisodiyotning turli sektorlariga tegishli korxonalarini geografik chegaralangan o'zaro konsentratsiyasi sifatida mintaqaviy klasterlarni tashkil etish mumkin. Mavjud shart-sharoit va

imkoniyatlardan kelib chiqqan xolda mamlakatimiz viloyatlarida agrosanoat klasterlarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Klasterlarni shakllantirish mintaqalardagi agrar saloxiyatlardan samarali foydalanishga yordam beradi, shu orqali turli korxonalar va firmalarning o'zaro muvaffaqiyatli aloqasini ta'minlaydi, mintaqalarni rivojlantirish strategiyasining eng maqbul variantini tanlash imkoniyatini beradi.

Umuman olganda raqobatbardosh klasterlarni tashkil etish ular joylashgan mintaqalarni barqaror rivojlantirish imkonini beradi, bu esa tumanlararo iqtisodiy integratsiyaning asosiy sharti hisoblanadi, klasterlarni rivojlantirishga ko'maklashuvchi ishlab chiqarishlarni va infratuzilma ob'ektlarini joylashtirishning asosiy katalizatori bo'ladi.

Viloyatlarda agroklasterni rivojlantirish yangi texnologiyalar va yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor maxsulotlar ishlab chiqarish borasidagi davlat siyosatining maqsadi va ustuvorliklariga bog'liq bo'lishi va mos kelishi lozim. Shuningdek klasterlar viloyatlarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan xolda texnologik parklarni o'zida mujassamlashtirmoq'i lozim.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xo'jaligi tarmog'idagi integratsiyalashgan va kvaziintegratsiyalashgan tarkibiy tuzilmalarning faoliyat yuritishi bilan bog'liq bo'lgan, metodologik va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan ko'plab muammolar vujudga keladi. Qishloq xo'jaligi tarmog'ining raqobatbardoshligini oshirish zaruriyati esa, birinchi navbatda mavjud saloxiyatdan maksimal darajada foydalanish imkonini beruvchi agrar iqtisodiyotning raqobatbardosh modelini tanlash bilan bog'liq bo'lgan vazifalarni xal etishni talab etadi.

Integratsiyalashgan xo'jalik yuritish shakllarining rivojlanish tendentsiyalari shuni ko'rsatmoqdaki, integratsiyaning turli shakl va turlarining iqtisodiy o'sishga, barqaror iqtisodiy rivojlanishga, agrosanoat majmui tarmoqlari maxsulotlarining raqobatbardoshligiga ta'sirini aks ettiruvchi masalalar muxim ahamiyat kasb etmoqda. Integratsiyalashgan tuzilmalarni o'rganish natijasida, qishloq xo'jaligi tarmog'ining raqobatbardoshligini ta'minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi

sifatida agrasanoat majmuida klaster tuzilmalarini tashkil qilish va rivojlantirishga aloxida e`tibor qaratdik.

Ushbu masalani to`g`ri xal etish mamlakatimiz iqtisodiy siyosatini asoslashda, agrar soxaning institutsional asoslarini takomillashtirishda, integratsiyaning yanada samaralari shakllarining rivojlanishiga ko`maklashishda muxim axamiyat kasb etadi.

Klasterlarni tashkil qilish borasida iqtisodchi olimlarning qarashlari turlichaligini xisobga olgan xolda ta`kidlash lozimki, raqobatbardoshlikning yangi kontsepsiyasi doirasida ushbu iqtisodiy tushunchaga ilmiy yondashuvda, iqtisodiy siyosatning innovatsion va inestitsion bo`g`inlarini amalga oshirish va qishloq xo`jaligi tarmog`idagi integratsiyalashgan tizimlarni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini amaliy jixatdan transformatsiyalashuviga yo`naltirilgan, sifat jixatdan yangi integratsiyalashgan tuzilmalarni tashkil etish imkoniyatlarini ko`rib chiqishda nazariy va amaliy jixatdan asoslangan ilmiy ishlanmalar talab etiladi.

Raqobat ustuvorligi nazariyasiga klasterlar nuqtai-nazaridan yondashuvning asoschisi bo`lgan M. Porterning fikricha, “mamlakat ichkarisida (yoki xalqaro miqyoslarda) mutloq raqobat ustuvorligiga ega bo`lgan tarmoqlardagi firmalar, odatda mamlakat mintaqalarida tizimli joylashgan bo`lishadi va mamlakatning aynan shu bir mintaqasida jamlanganlik xususiyatlariga ega bo`ladi”¹⁴. Raqobatbardosh firmalar o`zlari aloqada bo`ladigan bozor sub`ektlariga: ta`minotchilar, iste`molchilar va raqobatchilarga doimiy ravishda o`z ta`sirlarini o`tkazishadi. O`z navbatida, ushbu firmalar raqobatbardoshligining ortishi lider-firmalarning faoliyatiga va raqobatbardoshlik mavqelariga ijobiy ta`sir ko`rsatadi. Bunday o`zaro aloqadorlikning natijasi esa klasterlarning shakllanishi, ya`ni bir-biriga chambarchas bog`liq bo`lgan, o`zaro raqobatbardoshliklarining ortishiga birgalikda xarakat qiluvchi firmalarning uyushmasi xisoblanadi. Aloxida klasterlar,

¹⁴ Porter M. Konkurentsia. [Tekst] / M. Porter; – M.: Izdatel skiy dom “Vil yams”, 2002. – v 2-x tomax. - 496s.

¹⁵ Porter M. Konkurentsia. [Tekst] / M. Porter; – M.: Izdatel skiy dom “Vil yams”, 2002. – v 2-x tomax. - 496s.

maxalliy va jaxon bozorlarida o'zlari ixtisoslashgan aloxida tarmoqlarning raqobatbardoshligini ortishiga imkon beradi¹⁵.

Agroklaster o'zida, qo'shilgan qiymatning yaratilishidagi texnologik zanjirga kiruvchi, ASMning turli tarmoqlarini o'zida birlashtiruvchi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi asosida tashkil etilgan, tizimli infratuzilma bo'g'inlariga ega bo'lgan, mintaqaviy jixatdan maxalliydashgan va innovatsion yo'naltirilgan integratsiyalashgan tuzilmani aks ettiradi.

Bizning fikrimizcha, klasterlar integratsiyalashgan va kvaziintegratsiyalashgan o'zaro munosabatlar doirasida yaratilgan maxsulotlarni o'zida aks ettiradi va ushbu turdagi xamkorliklarning natijasi o'laroq ko'plab ijobiy jixatlarga egadir.

Shuni aloxida ta'kidlash lozimki, agrosanoat klasterlari asta-sekinlik bilan tashkil etilgan xolda sezilari natijalarga va barqaror raqobatbardoshlikka bir necha yillardan keyingina erishiladi. Bunday tuzilmalar qishloq xo'jaligi tarmog'ining turli soxalarida keskin o'zgarishlar bo'lishiga olib kelmaydi, lekin mintaqaviy darajada samarali bandlik siyosatini olib borishda va soliq solinadigan bazani kengaytirishda muxim axamiyat kasb etadi. Shuningdek, mintaqalarning mavjud geografik joylashuvi, iqlimi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bilan bog'liq bo'lgan oziq-ovqatlar ishlab chiqarish bo'yicha xamda texnika va texnologiyalarni takomillashtirishga yo'naltirilgan integratsiyalashgan tizimda faoliyat yuritishi imkoniyatlari borasidagi raqobat ustuvorliklaridan amaliyotda foydalanish kabilarni xam bevosita agrosanoat ishlab chiqarishi soxasidagi klasterlarning ustuvor jixatlari qatoriga kiritish mumkin. Klasterning bo'g'inlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tovarlar, texnologiyalar, axborot-ma'lumotlar, xizmatlar va boshqalarni ayirboshlash vositasida shakllanadi.

Agrar soxa iqtisodiyotini innovatsion klasterlar asosida boshqarish xam bir qator o'ziga xos afzalliklarga ega bo'lib, ular quyidagilardan iboratdir:

- soliqqa tortiladigan bazani kengaytirish imkonini beradi;
- qishloq axolisi bandligi darajasini oshirish;

-zarar bilan ishlayotgan fermerlar va boshqa qishloq xo'jaligi korxonalarini qayta ixtisoslashtirish;

-investitsion oqimni tartibga solish va qo'yilmalarning samaradorligini baxolash;

-agrar bozorlardagi tadbirkorlik faoliyatlarini rivojlantirish;

-klasterning barcha korxonalarida innovatsiyalarni jadal joriy etish asosida qishloq xo'jaligi tarmog'i korxonalarining innovatsion salohiyatni rivojlantirish;

-taxlillar olib borish uchun ma'lumotlar bazasini takomillashtirish.

Qishloq xo'jaligi korxonalarini, fermer va dehqon xo'jaliklari (xomashyo yetkazib beruvchilar); qishloq xo'jaligi mashinasozligi korxonalarini (texnikalar, asbob-uskunalar yetkazib beruvchilar); oziq-ovqat sanoatining qayta ishlovchi korxonalarini; agrar soxadagi integratsiyalashgan korxonalar (korporatsiyalar); konsalting tashkilotlari; ilmiy Bitiruv malakaviy ishi institutlari; oliy o'quv yurtlari; qonunchilik organlari, xukumat organlari, moliyaviy institutlar agrosanoat klasterlarining ishtirokchilari bo'lishi mumkin.

Aytish joizki, bugungi kunda respublikamizning barcha xududlarida agrar klasterlarni tashkil qilish uchun ma'lum bir shart-sharoitlar mavjuddir. Lekin, birinchi navbatda bunday tuzilmalarni tashkil etish qay darajada samarali degan savolga javob topish maqsadga muvofiqdir.

Shu nuqtai-nazardan, klasterlarni tashkil etishda aynan mintaqalar miqyosida tegishli taxlillarni amalga oshirish, avvalambor u yoki bu turdagi ishlab chiqarishda mintaqalarning raqobat ustuvorliklarini aniqlashga qaratilgan Bitiruv malakaviy ishlarini amalga oshirishni talab etadi.

Mintaqalarning raqobat ustuvorliklarini aniqlashni quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishini taklif etamiz:

1. Maqsad va vaziflarni shallantirish;
2. Baxolash uslubiyotini tanlash;
3. Baxolash mezonlari va ko'rsatkichlarini aniqlash;
4. Taqqoslash uchun muqobil tomonni tanlash;
5. Ma'lumotlarning mavjudligini tekshirish;

6. Ma`lumotlarni jamlash va qayta ishlash;

7. Ma`lumotlarni taxlil qilish va natijalarini umumlashtirish.

Raqobat ustuvorliklarini aniqlashda baxolashning statistik usullaridan, umumlashtirish va natijalarni taqqoslash usullaridan, ko'rsatkichlar bo'yicha ranglarni taqqoslash (reyting) usullaridan foydalaniladi. Taxlil respublikaning barcha viloyatlari bo'yicha amalga oshiriladi.

Olib borilgan taxlillar davomida, aniq bir mintaqaning raqobat ustuvorliklariga asoslangan klaster dasturlarining samaradorligini belgilab beruvchi omillar belgilab olindi va ular quyidagilardan iboratdir:

-ilmiy-texnikaviy bazaning mavjudligi va yaqinligi;

-infratuzilmalarning rivojlanishi;

-resurslar bazasining yetarli darajada mavjudligi;

-o'zaro aloqalarni shakllantirish borasida tajribali bo'lgan integratsiyalashgan tuzilmalarning mavjudligi;

-investitsiyalardan foydalanish imkoniyatlari;

-tuzilma tashkilotchilarining tadbirkorlik qobiliyatlari;

-malakali kadrlarning mavjudligi.

Shuningdek, mintaqalar agrar tarmog'ining raqobat ustuvorliklarini baxolash mezonlari va ko'rsatkichlari sifatida korxonalarining moliyaviy barqarorligi, investitsion faollik, korporativ rivojlanganlik, infratuzilmalarning rivojlanganligi, mehnat resurslarining sifat jihatdan rivojlanganligi va korxonalarining resurslar bilan ta'minlanganligi indekslaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda, mintaqalar agrar tarmog'ining raqobat ustuvorliklarini o'rganishda, qishloq xo'jaligi tarmog'idagi integratsion va kooperatsion jarayonlarning rivojlanganlik darajasini, samarali mulkdorlarni shakllanishi jarayonini, innovatsion rivojlanish darajasini, biznesni faol rivojlantirish maqsadida kuchayib borayotgan raqobatchilik va xamkorlik sharoitlarida faoliyat olib borishga tayyorlik, qishloq axolisining iqtisodiy faolligi darajasi, agrar maxsulotlar eksporti va importining tarkibi, qishloq axolisining daromadlari va boshqa bir qator ko'rsatkichlarni keng taxlil qilish talab etiladi.

Umuman olganda, agroklasterni tashkil qilishga qo'yidagi 2 jadvalda keltirilgan vazifalarni bosiqchma-bosqich amalga oshirish orqali erishiladi.

13-jadval

Agrosanoat klasterini tashkil etish bosqichlari

№	Bosqichlarning nomi	Asosiy tavsifi
1.	Loyixani tayyorlash	<p>Maxsulot ishlab chiqarish ixtisosligini baxolash;</p> <p>Xamkorlikda faoliyat olib borish shart-sharoitlari bilan klaster ishtirokchilarini tanishtirish uchun birlamchi loyixani tayyorlash;</p> <p>Klasterni tashkil etish loyixasini ishlab chiqish;</p> <p>Agroklasterning faoliyat yuritishi uchun me`yoriy-xuquqiy bazani tashkil etish.</p>
2.	Analitik taxlil	<p>Klasterni tashkil qilish mo'ljallanyotgan mintaqadagi innovatsion faoliyatni rivojlantirishdagi muammolarni aniqlash uchun monitoring o'tkazish, maqad va vazifalarni belgilab olish, maqsadlarga erishish uchun aniq chora-tadbirlar (loyixalar) ishlab chiqish, loyixalarni mavjud resurslar salohiyati bilan muvofilashtirish, davturlarni korrekcirovka qilish;</p> <p>Klasterning ichki tarkibini va uchun faoliyat yuritishi tamoyillarini taxlil qilish;</p> <p>Klasterlarning tashqi muxitini taxlil qilish.</p>
3.	Strategiyani ishlab chiqish	<p>Ishtirokchilarning xamkorlikdagi faoliyati ko'lamlarini belgilash;</p> <p>Agroklasterni innovatsion rivojlantirish kontseptsiyasini ishlab chiqish;</p> <p>Klasterning innovatsion dasturlarini shakllantirish;</p> <p>Klasterda kadrlar siyosatini yuritish asoslarini ishlab chiqish.</p>
4.	Uzoq muddatli istiqbolni belgilash	<p>Klaster aloqalarning samaradorligini monitoring qilish;</p> <p>Mintaqaviy agroklasterni rivojlantirishning uzoq muddatli istiqbol ko'rsatkichlarini ishlab chiqish.</p>

Manba: Muallifning ilmiy Bitiruv malakaviy ishlarini asosida tuzilgan

Klaster tizimini tashkil qilish nazarda-tutilayotgan korxonalarining ishlab chiqarish faoliyatining yo'nalishini baxolash ishlari, bazasida klaster tashkil qilinayotgan tarmoq sifatida qishloq xo'jaligini asosiy tarmoqlarining raqobat ustuvorliklarini taxlil qilish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Buni xisob-kitob qilish uchun mintaqalarning ixtisoslashuvi koeffitsientini xisoblash uslubiyotidan foydalaniladi. Mintaqalarning ixtisoslashuvini tavsiflash maqsadida IS (index of specialization) ko'rsatkichi qo'yidagi formula orqali xisob-kitob qilinadi:

$$IS_i = \frac{\left[\frac{X_{iR}}{k} \right]}{\left[\sum_{i=1}^k X_{iR} \right]} / \frac{\left[\frac{Y_{iR}}{k} \right]}{\left[\sum_{i=1}^k Y_{iR} \right]} \times 100 \%, \text{ bu yerda}$$

X_{iR} – 1 mintaqaning barcha toifadagi xo'jaliklarida tegishli turdagi maxsulot ishlab chiqarish xajmi;

Y_{iR} – i mintaqada yalpi qishloq xo'jaligi maxsuloti ishlab chiqarish xajmi;

K – ko'rib chiqilayotgan mintaqalar soni.

Ko'rsatib o'tilgan ixtisoslashuv indeksi ishlab chiqarishni maxalliyashtirish indeksining bir ko'rinishi xisoblanib, mintaqaning tegishli maxsulot turini ishlab chiqarishning umumiy xajmidagi ulushi, o'rganilayotgan mintaqalar bo'yicha yalpi qishloq xo'jaligi maxsulotining umumiy xajmida ushbu mintaqaning ulushiga nisbatan necha foiz yuqori ekanligini ko'rsatadi.

Shuningdek, navbatdagi bosqichda bevosita klasterni tashkil qilish bilan bog'liq masalalar xal etiladi. Bundan kelib chiqqan xolda aytish joyizki, bazaviy korxonalarini (lider korxonalarini) aniqlash, asosiy xamkorlarni belgilash, mintaqaviy imkoniyatlarni (ishlab chiqarish omillarining xolati, ularning sifati va ixtisoslashuvi darajasi, raqobat va strategik rivojlanish uchun muxit, talab darajasi, agrar soxaga aloqador yoki ko'maklashuvchi kabi) maxsulotlarni sotish mo'ljallanyotgan ustuvor bozorlarni aniqlab olish muxim ahamiyat kasb etadi.

Integratsiyalashgan tuzilmalarni (agrofimalarni), shuningdek, integratsion aloqalarga kirishmagan qishloq xo'jaligi korxonalarini, mashinasozlik korxonalarini va

mashina-texnologiya stantsiyalari, savdo tashkilotlarini klasterlarning asosiy ishtirokchilari sifatida qatnashishlari mumkin.

Klaster tizimlari doirasida oliy o'quv yurtlarining salohiyati va imkoniyatlaridan foydalanishni xam taklif etamiz. Oliy o'quv yurtlari ishtirokida klasterlarni shakllantirish ishlab chiqarish tuzilmasiga xam, ta'lim muassasasiga xam ustuvorlik beradi. Korxonalar texnik va texnologik qayta qurollanish asosida yuqori samaradorlikka erishadi va oliy o'quv yurtlariga turli amaliy muammolarni xal etishda yordam beradi. Oliy o'quv yurtlarida fundamental Bitiruv malakaviy ishlar olib borish va ta'lim xizmatlarini ko'rsatish borasidagi ta'lim-tarbiya berish va ilmiy-texnikaviy salohiyatlaridan keng ko'lamda foydalanish imkoniyatlari vujudga keladi. Bundan tashqari, oliy o'quv yurtlari uchun juda muxim bo'lgan jarayon – iqtisodiyotning real sektori korxonalari bilan bevosita aloqalar mavjud bo'ladi.

Oliy o'quv yurtlarining mintaqaning o'sish nuqtasiga integratsiyalashuvi imkoniyatlarini baxolash, uning klasterlashtirishdagi ishtiroki klasterlarni tashkil etish strategiyasining barcha afzalliklari va kamchiliklarini aniqlash imkonini beradi. Bunda, boshqa xududlar va tashkilotlarda mavjud bo'lmagan o'zlarining ustuvor tomonlaridan mintaqalar tomonidan xam, oliy o'quv yurtlari tomonidan xam samarali foydalanish imkoniyati vujudga keladi. Ya'ni, oliy o'quv yurtlari agrosanoat klasterlariga qo'shilganlarida o'zlarining oldiga asosiy vazifa – ASMning ilmiy-texnikaviy salohiyatini saqlab qolish va undan yanada kengroq foydalanishni ustuvor vazifa qilib belgilashlari nazarda tutilmoqda. Oliy o'quv yurtlarining agrosanoat klasterlariga qo'shilishi ularga yana bir ustuvorlik beradi, ya'ni institutsional investorlar tomonidan bir vaqtning o'zida o'zlarini qiziqtirgan iqtisodiyotning real sektoriga xamda ta'lim va ilmiy-Bitiruv malakaviy ishi jarayonlariga investitsiya kiritishlari mumkin bo'ladi. Mashinasozlik korxonalari esa oliy o'quv yurtlari yordamida agrar ishlab chiqaruvchi tuzilmalarda doimiy monitoring olib borishlari mumkin, bu esa mintaqalarda mashina va uskunalarga bo'lgan talabni aniqlash, shuningdek ishlab chiqarilayotgan maxsulotlarning sifatini oshirish masalasini xal etish imkonini beradi. Davlat boshqaruvi

organlarining oliy o'quv yurtlari bilan xamkorligi ASMning barcha soxalaridagi vaziyatni to'g'ri baxolash va bundan kelib chiqqan xolda agrar siyosatni yanada takomillashtirish imkonini beradi. Shuningdek, oliy o'quv yurtlari ilmiy ishlanmalarni amaliyotga qo'llash imkoniyati, ilmiy faoliyatlari yo'nalishlarini yanada kengaytirish, konsalting va boshqa xizmatlar ko'rsatish asosida daromad olish, o'zlarida ta'lim olgan mutaxassislarni ish bilan ta'minlash kabi bir qator ustuvorliklarga ega bo'lishadi.

Yuqoridagilar bilan birga, klasterda biznes-jarayonlarni ilmiy-texnikaviy jixatdan ta'minlash vazifasini amalga oshiruvchi innovatsion tashkilotlarning ishtirok etishi xam maqsadga muvofiq xisoblanadi.

Umuman olganda, integratsiyalashgan tuzilmalar o'zaro xamkorliklari natijasida klasterda bir-butun ishlab chiqarish zanjirini tashkil etish to'g'risida sinovdan o'tgan, ishonchli ma'lumot va tajribalar taqdim etishi mumkin. Bundan tashqari, integratsiyalashgan tuzilmalar qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari, qayta ishlash korxonalari va ta'lim, ilmiy-Bitiruv malakaviy ishi muassasalari uchun investor vazifasini o'tashi xam mumkin.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi soxasi yetakchilik o'rniga ega bo'lgan klasterlarni shakllantirishning yakuniy bosqichi ma'lum bir mintaqalarning agrosanoat sektorini klasterlashtirish strategiyasini shakllantirish xisoblanadi.

Olib borilgan Bitiruv malakaviy ishilar davomida, klasterlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlari sifatida qo'yidagilar belgilandi:

-korxonalarining innovatsion faoliyatiga maxalliy davlat boshqaruvi organlari tomonidan ko'maklashish mexanizmlarini ishlab chiqish;

-innovatsion faoliyatni me'yoriy-xuquqiy jixatdan tartibga solishni ta'minlash;

-agroklasterlarning barcha ishtirokchilarining faoliyatini axborot bilan ta'minlash;

-agroklasterlar uchun malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish.

Bevosita klasterlarni tashkil maqsadida bazaviy korxonalarni (lider korxonalarni) tanlash, asosiy xamkorlarni belgilash, mintaqaviy qishloq xo'jaligi tarmog'ilarining imkoniyatlarini (ishlab chiqarish omillarining xolati, ularning sifati va ixtisoslashuv darajasi, raqobat muxiti va strategik rivojlanish shart-sharoitlari, talab darajasi va xolati, beovista va bilvosita aloqador korxonalar) aniqlash, maxsulotlarni sotish mo'ljallanayotgan ustuvor bozorlarni belgilash talab etiladi.

Shunday qilib, fikrimizcha, klasterlar tashkil qilish asosida integratsiyalashgan tuzilmalarni tashkil etish ASM tarkibidagi ishlab chiqarish bilan aloqador tarmoqlarning investitsion muxitini yaxshilaydi, innovatsion jarayonlarni rag'batlantiradi, pirovardida esa, ASM tarmoqlarining raqobatbardoshilgi oshadi. Bugungi kunda, mamlakatimizning barcha mintaqalarida ta'lim, ilmiy-Bitiruv malakaviy ishi muassasalari, agrar soxa korxonalari, savdo, xizmat ko'rsatish soxasi va davlat organlarining o'zaro xamkorlikdagi faoliyatiga asoslangan ishlab chiqarish tuzilmalarini tashkil etish uchun shart-sharoitlar mavjuddir. Xulosa qilib aytish joizki, taklif etilayotgan bunday klaster tuzilmalari mamlakatimiz agrar ishlab chiqarishida o'sish nuqtasi bo'ladi, agrar soxaning maxalliy va jaxon bozorlaridagi raqobatbardoshligini oshirishda muxim omillardan biri bo'ladi.

Umuman olganda mamlakatimiz agrosanoat majmuida qishloq xo'jaligi maxsulotlarini ishlab chiqarish, tayyorlash, qayta ishlash va sotish tiziminining uzviy bog'liqligini ta'minlash asosida butun majmuaning iqtisodiy barqaror rivojlanishini va raqoyuatyardoshligini oshirishni ta'minlash uchun quyidagi dolzarb muammolarni xal qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

-davlat tomonidan bozor tamoyillari va iqtisodiyotni erkinlashtirish talablaridan kelib chiqqan xolda qishloq xo'jaligi maxsulotlarini tayyorlash va qayta ishlash soxasini rivojlantirishga qaratilgan yangi qonunlar va qonunosti me'yoriy xujjatlarni qabul qilish, amaldagilarini takomillashtirish;

-fermer va dexqon xo'jaliklari uchun zarur bo'lgan moddiy-texnika vositalari va aylanma mablag'larni sotishga ixtisoslashgan maxsus ulgurji – chakana savdo do'konlarini tashkil etish va rivojlantirish;

-fermer va dexqon xo'jaliklarini respublikamizda va xorijda ishlab chiqarilgan resurslar bilan tanishtirish va tegishli maslahatlar berish maqsadida ixtisoslashgan xududiy ko'rgazmalarni doimiy tashkil etish;

-fermer va dexqon xo'jaliklari bilan yirik tayyorlov va qayta ishlash korxonalari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni erkinlashtirish, jumladan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzishni rag'batlantirish asosida bo'naklash va yakuniy xisob-kitoblar tizimini takomillashtirish;

-maxsulot yetishtirish bilan bog'liq agrotexnik tadbirlarni bajarishga ixtisoslashgan xizmat ko'rsatuvchi infratuzilma shaxobchalarni tashkil etilishi va rivojlantirilishini iqtisodiy rag'batlantirish;

-ayrim fermer xo'jaliklari tomonidan qayta ishlash korxonalarini tashkil etilishini iqtisodiy rag'batlantirish maqsadida imtiyozli kredit ajratish, xorijdan texnologiya va asbob-uskunalar olib kelish bilan bog'liq jarayonlarni erkinlashtirish;

-fermer xo'jaliklarini ixtiyoriy va o'zaro kelishilgan xolda iqtisodiy xamkorligini oshirish maqsadida maxsulotlarni tayyorlash va qayta ishlashni kuchaytirishga ixtisoslashgan «koooperativ» sub`ektlarni tashkil etilishini rag'batlantirish;

-Respublikamizda dexqon va fermer xo'jaliklari xamda agrofimlar o'rtasida ko'ngilli va ixtiyoriy birlashish asosida kooperatsiya munosabatlarini tashkil etish, shuningdek ular tomonidan import yo'li bilan shartnoma asosida olib kelinayotgan mini texnologik tsexlar, qurilma va asbob-uskunalariga imtiyozlarni doimiy belgilash;

-xududiy supermarket va ixtisoslashgan ulgurji bozorlar tashkil etilishi va rivojlantirilishini rag'batlantirish;

-qishloq xo'jaligi maxsulotlari eksportini erkinlashtirish maqsadida uni iqtisodiy rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash, eksport qilish bilan bog'liq

tizimdagi xujjatlashtirish jarayonlarini, ayniqsa ruxsatnoma olish, litsenziyalashtirish va sertifikatlashtirish bilan bog'liq tizimni soddalashtirish;

-ozuq-ovqat maxsulotlari, eng avvalo meva-sabzavot va chorva maxsulotlarining marketingini rivojlantirish asosida mamlakatda yetishtirilayotgan maxsulotlar turi va xajmi, narx-navosi bo'yicha choraklik va yillik xaqiqiy va istiqbol ko'rsatkichlaridan iborat bo'lgan ma'lumotlarni doimiy nashrini tarmoq gazetalarida chop etib borish;

-majmuaga chet va ichki investitsiya jalb etilishini iqtisodiy rag'batlantirishga qaratilgan qonunlar va qonun osti me'yoriy xujjatlarni ishlab chiqish va qabul qilish, shuningdek innovatsion yangiliklarni joriy qilinishini rag'batlantirish bo'yicha iqtisodiy va xuquqiy mexanizmlarni takomillashtirish;

-yangidan tashkil etilayotgan agrofirma faoliyatini samarali yo'lga qo'yish maqsadida ularga o'z maxsulotlarini eksport qilishida mavsumiy imtiyozlar qo'llash, ilg'or texnologiyalarni import yo'li bilan olib kelinishi va qishloq xududlarida yangi ishchi o'rinlarini tashkil etilishini iqtisodiy rag'batlantirish maqsadida imtiyozli kreditlar ajratishni yo'lga qo'yil zarur.

Ushbu tadbirlarni bosqichma-bosqich amaliyotga joriy qilinishi 2010-2015 yillargacha qishloq xo'jaligi maxsulotlarini, jumladan meva-sabzavotning 35-40 foizi, uzumning 50 foizi, sutning 30 foizi va go'shtning 40 foizini qayta ishlashni amalga oshirish, qishloq xududlarida yangi ishchi o'rinlarini yaratish va qo'shimcha daromadni ko'payishini, pirovard natijada butun tizimni barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

3.3. Qishloq xo'jaligi tarmog'i raqobatbardoshligini oshirishning kontseptual asoslari

Mamlakatimiz agrar tarmog'ini barqaror rivojlantirish, raqobatbardoshligini oshirish, mavjud shakllangan muammo va nomutanosibliklarni bartaraf etishda uzoq muddatli "Qishloq xo'jaligi tarmog'ini innovatsion yangilash va raqobatbardoshligini oshirish Strategiyasi"ni ishlab chiqish va bosqichma-bosqich

amalga oshirish muxim ahamiyat kasb etadi. Ushbu strategiya mamlakatimizni istiqbolli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish siyosatining tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan xolda agrar siyosatning asosini tashkil qilishi lozim.

Qishloq xo'jaligi tarmog'ini innovatsion yangilash va bosqichma-bosqich raqobatbardoshligini oshirish strategiyasi tarmoqning raqobatbardoshligini shakllantirish maqsad va vazifalarini xalq etishdagi asosiy ustuvor yo'nalishlar va maqsadli ko'rsatkichlarni qishloq xo'jaligining nisbiy raqobat ustuvorliklari va resurslar salohiyatidan kelib chiqqan xolda belgilab berishi lozim.

Innovatsion yangilash va raqobatbardoshlikni oshirishning uzoq muddatli strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirishning printsipliyal yo'nalishlari quyidagilar xisoblanadi:

- umummilliy manfaatlarni va mamlakat miqyosida iqtisodiy isloxlarni chuqurlashtirishning ustuvor yo'nalishlarini xisobga olish;

- yagona iqtisodiy muxitni tashkil etish va tarmoqlararo iqtisodiy integratsiyani rivojlantirish;

- ijtimoiy-iqtisodiy tartibga solishda davlatning xududiy va tarmoqlararo yondashuvlariga mos kelishi;

- xar bir xudud tabiiy-iqtisodiy salohiyatlarining o'ziga xos xususiyatlarini, ularning raqobat ustuvorliklarini, agrosanoat majmui iqtisodiyotini klasterlashtirish imkoniyatlarini xisobga olish;

- strategiyani amalga oshirishning qonuniy-xuquqiy, iqtisodiy va tashkiliy mexanizmlarni shakllantirish, turli tarmoqlar darajalarida raqobatbardoshlikni kuchaytirish.

Quyida qishloq xo'jaligi tarmog'ini innovatsion yangilash va raqobatbardoshligini oshirish strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirishning printsipliyal tizimi keltirilgan.

Strategiyani ishlab chiqish borasida taklif etilayotgan xar bir bosqichning o'z maqsad va vazifalari, amalga oshirish mexanizmlari va dastaglari, aniq ishlab chiquvchilari va uni amalga oshirishdagi mas'ul javobgarlari mavjuddir.

Qishloq xo'jaligi tarmog'ini innovatsion yangilash va raqobatbardoshligini oshirishning uzoq muddatli strategiyasini ishlab chiqishning printsiplial tizimi

I – bosqich	O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi	Turli xududiy darajalarda strategiyani amalga oshirish mexanizmlari
II- bosqich	O'zbekiston agrar tarmog'ini rivojlantirish strategiyasi	
III – bosqich	Qishloq xo'jaligi tarmog'ini innovatsion yangilash va raqobatbardoshligini oshirish Strategiyasi	
IY- bosqich	Viloyatlarda qishloq xo'jaligi tarmog'ini innovatsion yangilash va raqobatbardoshligini oshirish strategiyasi	
Y- bosqich	Tumanlarda qishloq xo'jaligi tarmog'ini innovatsion yangilash va raqobatbardoshligini oshirish strategiyasi	

Manba: Muallifning ilmiy Bitiruv malakaviy ishilarini asosida tuzilgan

O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi boshqaruv va tartibga solishning turli darajalarida qishloq xo'jaligi tarmog'ini innovatsion yangilash va raqobatbardoshligini oshirish strategiyasi ishlab chiqishda asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasining asosiy yo'nalishlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov tomonidan belgilab berilgandir.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari bevosita ishlab chiqilgan va amalga oshirilayotgan o'rta muddatli davrlarga mo'ljallangan iqtisodiyotning aloxida sektorlari va tarmoqlarini rivojlantirish va islox qilish maqsadli davlat dasturlaridan kelib chiqadi. 2008 yilning yakuniga kelib ularning soni 20 dan ortiqroqni tashkil etdi. Xozirda amalga oshirilayotgan va qishloq xo'jaligi tarmog'ining raqobatbardoshligini oshirish va barqaror rivojlanishini ta'minlashga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatuvchi asosiy maqsadli dasturlar yuqorida keltirilgan.

Olib borilgan taxlillarning ko'rsatishicha, mamlakat agrar soxasida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar soxada institutsional o'zgarishlar, mulkchilik, xo'jalik yuritish shakllari, ekinlar strukturasi takomillashtirish bilan bir qatorda qishloq xo'jalik maxsulotlarini yetishtirishda ma'lum ijobiy o'zgarishlarga olib keldi. Ayni paytda mamlakat axolisini oziq-ovqat maxsulotlari bilan muntazam ravishda ta'minlab turishga erishilmoqda. Ammo shuni ta'kidlash lozimki, bugungi kunda qishloq xo'jaligida mavjud imkoniyatlar yetarlicha ishga solinmayapti. Jumladan, resurslardan (er, suv, mexnat va moddiy resurslar) foydalanish past darajada bo'lmoqda. yerlarni sho'rlanish darajasi yildan-yilga oshib, ball-boniteti pasayib bormoqda. 2008 yilga kelib 1990 yilga nisbatan respublika bo'yicha sho'rlangan yerlarning ulushi 49,1 foizdan 62,5 foizgacha oshgan, ball-boniteti esa o'rtacha 3 ballga pasaygan. Suvlarning ifloslanish va sho'rlanish darajasi yoz oylarida o'rtacha 1,9-2 g/l.gacha ko'tarilmoqda. Tuproq unumdorligining pasayib ketishiga og'ir texnika va ximikatlarni ko'p ishlatilishi xam salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa o'z navbatida mamlakat qishloq xo'jaligida ekologik vaziyatni yomonlashuvi va maxsulot birligi uchun mexnat sarfini oshishiga xamda ko'proq moddiy resurslar sarflanishiga olib kelmoqda.

Qishloq xo'jaligida maxsulot ishlab chiqaruvchilar ko'proq bugungi kundagi natijaga qarab faoliyat yuritmoqdalar. Aksariyat xollarda ekinlardan yuqori xosil olinishiga qaramasdan ishlab chiqarish rentabelligi past bo'lmoqda, ayrim xo'jaliklar esa zarar bilan faoliyat yuritmoqdalar. Pirovardida esa qishloq xo'jaligi tarmog'ining raqobatbardoshligini ta'minlashda turli nomutanosibliklar vujudga kelmoqda.

Bularning barchasi, bevosita qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishni ta'minlash, kelajakda mavjud tabiiy-iqtisodiy saloxiyatdan samarali foydalanishning bozor munosabatlariga mos mexanizmini joriy etish va muntazam takomillashtirilib borilish asosida tarmoqning raqobatbardoshligini oshirishni taqozo etadi.

Mamlakatimiz agrar tarmog'ini barqaror rivojlantirish va raqobatbardoshligini oshirish strategiyasini belgilab beruvchi asosiy maqsadli davlat dasturlari

№	Dasturning nomi	Amalga oshirish muddatlari	Qishloq xo'jaligi tarmog'ini rivojlantirish strategiyasiga ta'siri
1.	O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatish soxasi va servisni rivojlantirish	2006-2010 yillar	Bilvosita
2.	Maxalliy xomashyo resurslari negizida ishlab chiqarishni maxalliylashtirish	2006-2008 yillar	Bilvosita
3.	Shaxsiy yordamchi, dexqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollari, birinchi navbatda qoramollar sonini ko'paytirishni rag'batlantirish	2006-2010 yillar	Bevosita
4.	Qishloq xo'jalik mashinasozligi korxonalarini rivojlantirish va texnik qayta qurollantirishni jadallashtirish	2006-2010 yillar	Bevosita
5.	Paxta tozalash korxonalarini modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirish	2007-2011 yillar	Bevosita
6.	Kimyo sanoati korxonalarini modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirish	2007-2011 yillar	Bilvosita
7.	Sug'oriladigan yerlarning meliorativ xolatini yaxshilash	2008 - 2012 yillar	Bevosita
8.	Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili dasturi	2009 yil	Bevosita

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-2009 yillardagi Qarorlari asosida tuzildi

Qishloqda xo'jalik yuritish shakli asosan fermer xo'jaliklari bo'lishini (bugungi kunda (2013 yilda) yetishtirilgan paxtaning 99,1%i, g'allaning 79,2%i, meva-uzumning 50%i, sabzavot-polizning 40%i, chorvachilik maxsulotlarining 5-6 %i fermer xo'jaliklariga to'g'ri kelgan) xisobga olib, ularni yiriklashtirish bo'yicha ish olib borish zarur.

Xozirda fermerlar yer maydonlari asosan kichik xajmda bo'lishi va o'zlarining texnikasiga ega bo'lmaganliklari sababli maxsulot yetishtirishda:

birinchidan, mexnat sarfi nixoyatda yuqori (me'yorga nisbatan 3-4 marotaba ko'p);

ikkinchidan, fan-texnika yutuqlarini keng miqyosda qo'llash imkoniyati yo'q;

uchinchidan, maxsulotning sifati va raqobatbardoshligi past;

to'rtinchidan, maxsulotning tovarliligi past;

beshinchidan, maxsulotni tashqi bozorga olib chiqish imkoniyati past.

Bularning barchasi, o'z navbatida fermerlarni barqaror rivojlanishi va raqobatbardosh bo'lishi imkoniyatlarini chegaralab qo'yimoqda.

Shuningdek, bugungi kunda dexqon xo'jaliklarini xam barqaror rivojlanishi uchun yetarli sharoit yaratilmagan. Bunda ularning yer uchastkalari va yollanma ishchilarni ishlatish chegaralanib qo'yilganligi, resurslardan foydalanishdagi chegaralashni keltirish mumkin. Oziq-ovqat maxsulotlarining 65 foizidan, shu jumladan, chorvachilik maxsulotlarining 90 foizidan ko'prog'ini shu xo'jalik shaklida yetishtirilishini xisobga oladigan bo'lsak, dexqon xo'jaliklarining barqarorligi qishloq xo'jaligi barqarorligini ta'minlashda muxim o'rin tutishiga yana bir bor iqror bo'lamiz. Shularni xisobga olib, fermer va dexqon xo'jaliklarini yanada yiriklashtirish dasturini ishlab chiqish zarur. Bu jarayon evolyutsion yo'l bilan amalga oshirilishi va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi zarur.

Bu Dastur qishloq xo'jaligi barqarorligi va raqobatbardoshligini ta'minlovchi uchta komponentni o'z ichiga olishi zarur:

1) ekologik komponent – tabiiy, biologik jarayonlardan to'laroq foydalanish;

2) iqtisodiy komponent – sotib olinadigan va qimmat turadigan resurslarni ishlatishni maksimal darajada qisqartirish;

3) ijtimoiy-institutsional komponent – ortiqcha ish bilan band bo'lishni va ishlab chiqarishga barcha oila a'zolarini jalb qilishni qisqartirish.

Fermerlarni yiriklashtirish quyidagi imkoniyatlarni ochib beradi:

-ekinlarni almashlab ekishni joriy qilish;

-mexnat unumdorligini oshirish;

-maxsulot raqobatbardoshligini oshirish;

-maxsulotni tashqi bozorga olib chiqish;

-investorlarni soxaga investitsiya yo'naltirishga bo'lgan qiziqishini oshirish;

-innovatsion loyixalar bilan ishlashni tashkil qilish;

-fermerlarni kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni amalga oshirish imkoniyatini kengaytirish.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida respublikamiz qishloq xo'jaligini ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik va ekologik jixatdan barqaror rivojlantirish asosida raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kunning muxim va dolzarb masalalari bo'lib qolmoqda.

Shularni xisobga olib, qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish va raqobatbardoshligini oshirish Kontseptsiyasi xamda shu asosda tayyorlanayotgan tavsiyalar quyidagi muammolarni o'z ichiga oladi:

-mamlakat agrar siyosatining bozor munosabatlariga moslashgan yagona tizimni shakllantirish;

-qishloq xo'jalik korxonalarini moliya-kredit va boshqa turdagi resurslar bilan ta'minlashdagi markazlashtirilgan tizimdan voz kechish va bu masalalarni joylarda xal qilinishin ta'minlash;

-qishloq xo'jaligida xo'jalik yuritish shakllarining barqaror bo'lishini kafolatlantirish va bu shakllarni bozor munosabatlariga mos ravishda faoliyat yuritishini ta'minlash;

-qishloq xo'jaligida mexnatni rag'batlantirish darajasini iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga tenglashtirish.

-barqaror rivojlanishning asosi bo'lgan: iqtisodiy, texnologik, ekologik, ijtimoiy xolat va ma'naviy xayot o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash;

-qishloq xo'jaligida xarajatlarni boshqarish tizimini shakllantirish va texnologik jarayonlarni maxsulot raqobatbardoshligini ta'minlashni oshirishga qaratilishiga erishish;

-resurs birligi xisobiga (er, suv, mexnat va boshqa moddiy resurslar) olinayotgan maxsulot miqdorini optimal darajaga ko'tarish;

-tuproqning sho'rlanishi, strukturasi buzilishi, ball-bonitetining pasayib borishi, suv resurslarining ifloslanishini oldini olish va bu borada innovatsion loyixalar ishlab chiqish;

-qayta tiklanadigan resurslar tiklanishini tezlashtirish va qayta tiklanmaydigan resurslar sarfini qisqartirish orqali kelgusi avlod xisobiga yashashga chek qo'yish;

-qishloq xo'jalik korxonalarini moliyaviy xolatini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

Rivojlangan davlatlar tajribasi va mamlakatimiz qishloq xo'jaligining rivojlanishi xolatidan kelib chiqib, soxani barqaror rivojlanishini ta'minlash va raqobatbardoshligini oshirishga agrotexnik, ekologik, ijtimoiy, mikroiqtisodiy va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash orqali erishish mumkin.

Agrotexnik barqarorlik deganda tuproq, umuman dexqonchilik qilinayotgan yerlarning unumdorligini uzoq muddat saqlab qolishni; ekologik barqarorlik-atrof-muxitga zarar yetkazmaslik va qishloq xo'jaligidan tashqari soxalarning to'liq saqlanishi;

Ijtimoiy barqarorlik – qishloq axolisi xayot darajasining ko'tarilishi, daromadining oshishi va qishloqda ijtimoiy-madaniy xizmat ko'rsatish darajasining ko'tarilishi;

Mikroiqtisodiy barqarorlik-qishloq xo'jaligi korxonalarini qishloqdagi iqtisodiy sub`ekt sifatida uzoq muddat faoliyat ko'rsatishiga sharoit yaratilishi;

Makroiqtisodiy barqarorlik – ichki bozorni maxsulot bilan to'liq ta'minlash va tashqi bozordagi raqobatbardoshlikni ta'minlashdir.

Shunday qilib, qishloq xo'jaligini barqaror rivojlanishi: birinchidan, axolining talabiga yarasha maxsulot ishlab chiqarishni va qayta ishlash korxonalarini xomashyo bilan ta'minlashi kerak; ikkinchidan, qishloq axolisi daromadini oshirish xisobiga axolining yaxshi xayot darajasini ta'minlash orqali qishloq xududlarining rivojlanishini ta'minlash zarur; uchinchidan, tabiiy saloxiyatni saqlash va oshirishi zarur.

Mamlakat qishloq xo'jaligini barqaror rivojlanishiga o'tish, birinchi navbatda, tuproq unumdorligini pasayishini, suvni ifloslanishini oldini olish, qishloq xo'jaligi ekinlari xosildorligini bir me'yorda ushlab turish uni rentabellik darajasini oshirish xisobiga fermerlar daromadini ko'paytirish imkoniyatini beradi.

Ikkinchidan, ekinlar tarkibini takomillashtirish, axolini oziq-ovqat maxsulotlari bilan tibbiy me`yorga yaqin darajada ta`minlab turish bilan bir qatorda tuproq unumdorligini oshirish, chorvachilik bilan o`simchilik o`rtasidagi mutanosiblikni ta`minlash orqali chorvachilikni xam rivojlantirish imkoniyatini beradi.

Uchinchidan barcha turdagi resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish xisobiga qishloq xo`jaligini barqaror rentabellik soxaga aylantirish imkoniyatini beradi.

To`rtinchidan, qishloq xo`jalik maxsulotlarini ishlab chiqarishda kimyoviy vositalarni qo`llash qisqartiriladi va aksincha, biologik xamda integratsiyalashgan ximoya uslublaridan keng foydalaniladi, bu esa atrof muxit ifloslanishini oldini olib, ekologik toza maxsulot ishlab chiqarish imkonini beradi.

Beshinchidan, tuproqqa ishlov berish minimallashtiriladi, ya`ni texnika vositasitalari daladan bir marotaba o`tishda bir nechta operatsiyani bajarish va shu orqali tuproqning ortiqcha zichlanishiga yo`l qo`ymaslik xamda boshqa turdagi resurslardan xam oqilona foydalanish imkonini beradi.

Oltinchidan, qishloq xo`jaligida urug`chilik, selektsiya va naslchilik ta`minot tizimi takomillashadi, tuproqni organik moddalar bilan boyitish, tuproqdan olib chiqilayotgan organik moddalar o`rnini qoplash, ekinlar strukturasi diversifikatsiyalashga katta e`tibor qaratiladi.

O`z navbatida bu o`zgarishlar mamlakat agrar siyosatini yanada takomillashtirishni talab qiladi.

Qishloq xo`jaligini barqaror rivojlantirish va raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan agrar siyosat quyidagi asosiy yo`nalishlarni o`z ichiga olishi lozim. Jumladan,

- qishloq xo`jaligi mamlakat iqtisodiyotini ustivor yo`nalishi deb qarash;
- agrar siyosatning ustivor yo`nalishlarini belgilash va xar bir yo`nalishdagi siyosat boshqa yo`nalishlaridagi siyosat bilan uzviy ravishda bog`liq bo`lishiga erishish;

-qishloq xo'jaligi bo'yicha qabul qilinayotgan qarorlarning statistik monitoringini olib borish ko'rsatkichlarini qonun asosida belgilab olish;

-vazirliklar va maxalliy organlar bir biri bilan kelishilgan xolda qishloq xo'jaligi bo'yicha qarorlarni qabul qilishini ta'minlash;

-qishloq xo'jaligida davlat, maxalliy organlar va maxsulot yetishtiruvchilarning vazifa, majburiyat va javobgarliklarini aniq belgilab berish;

-barcha boshqarish tizimi fermerlarga, maxsulotni qayta ishlovchi va sotuvchi korxonalariga xizmat ko'rsatishga asoslanishi va ustivorlikni maxsulot maxsulotni sotishga qaratish;

-boshqarishdagi bir-birini takrorlashga barxam berish va xar bir zveno o'zining funktsiyalari, istiqbol va joriy muammolar bilan shug'ullanishi:

-maxsulot yetishtirishda resurslar tejamkorligini ta'minlashga qaratish, mexanizatsiya darajasini ko'tarish;

-maxsulotning sifatli, ekologik jixatdan xavfsiz bo'lishini ta'minlashga qaratish;

-ekologik muvozanatni yaxshilashni iqtisodiy rag'batlantirish va aksincha ekologik muvozanatni buzganligi uchun qat'iy jazo mexanizmini joriy qilish;

-uzoq muddatga mo'ljallangan ekologik toza maxsulot yetishtirish Dasturini ishlab chiqish;

-aloxining ekologik toza maxsulot yetishtirish va iste'mol qilishi bo'yicha bilim saviyasini oshirish;

-chorvachilikda mollar zotlarini yaxshilash, ularni yetarli miqdorda turli ozuqa bilan va yuqori xosil olinishini ta'minlashga qaratish;

-qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tartibini belgilab olish va shu asosida amalga oshirilishini ta'minlash;

-qishloq xo'jaligida xar bir yo'nalish bo'yicha amalga oshirilayotgan isloxotlarning mustaxkam me'yoriy-ququqiy asosini yaratish;

-qishloq xo'jaligini rivojlantirishga qaratilgan uzoq muddatli dasturni ishlab chiqish va x.k.

Shunday qilib, qishloq xo'jaligini barqaror rivojlanishini ta'minlash va raqobatbardoshligini oshirish bevosita mamlakat iqtisodiyotining yuqori sur'atlarda o'sishini ta'minlab dunyo xamjamiyatida mustaxkam o'rin egallashiga zamin yaratadi.

XULOSA

Bugungi kunda mamlakatimiz agrar tarmog'ida kuzatilayotgan ayrim xolatlar, xususan qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining bozor munosabatlariga to'laqonli moslasha olmayotganliklari, xizmat ko'rsatish, moddiy texnika ta'minoti va maxsulotlarni sotish tizimlarida kuchli monopol tashkilotlarning mavjudligi, qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash yetarli darajada emasligi, maxsulot ishlab chiqarish samaradorligining pastligi va boshqa bir qator shu kabi omillarning mavjudligi ta'sirida tarmoqning raqobatbardoshlik darajasi pastligicha qolmoqda.

1. Iqtisodiyotni erkinlashtirish va bozor munosabatlari sharoitida raqobatbardoshlikning globallasuvi zamonaviy texnika va texnologiyalarga xamda innovatsiyalarga asoslangan barqaror iqtisodiy o'sishning asosiy manbai xisoblanadi. Bunday sharoitda mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi ko'p xollarda raqobatbardoshlik omillariga – inson resurslari salohiyatiga, ularning malakasiga, zamonaviy ilmiy Bitiruv malakaviy ishilarining natijalariga, axborot va telekommunikatsiya texnologiyalariga, biznes madaniyati va muxitlariga bog'liqdir.

2. Raqobatbardoshlikning muxim jixatlaridan biri – raqobat ustuvorliklaridir, ya'ni korxonalarda biznes uchun startegik jixatdan muxim bo'lgan va raqobat kurashida g'olib bo'lish uchun bevosita va bilvosita ko'maklashuvchi imkoniyatlarning mavjudligidir. Raqobat kurashida muvaffaqiyat qozonish va bozorlarda liderlikni qo'lga kiritish uchun korxonalar va tashkilotlar tomonidan maxsulotlar ishlab chiqarish va sotish tizimlarida, baxolarni belgilashda, xarajatlarni kamaytirishda zamonoviy texnologiyalar va innovatsiyalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Umuman olganda, raqobatbardoshlik doimiy bo'lmagan xolda, raqobatchilarga nisbatan ustunlik vatq o'tgan sari tashqi va ichki omillar ta'sirida boy berilishi mumkin.

3. Taxlillarga ko'ra, asosiy turdagi qishloq xo'jaligi maxsulotlari ishlab chiqarishga davlat buyurtmasi va qat'iy baxo belgilash tizimining saqlanib qolinayotganligi, iqtisodiyotning agrar va sanoat tarmoqlari maxsulotlari

narxlarining keskin farq qilishi qishloq xo'jaligida raqobatbardoshlikni oshirishga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi asosiy muammolardan bo'lib qolmoqda. Shuning uchun xam, tarmoqda raqobatbardoshlikni oshirib borishda nafaqat baxo belgilash mexanizmini va narx nomutanosibligi masalasini shuning bilan birgalikda boshqaruv, markazlashgan moddiy-texnik ta'minot tizimi, xamda ichki va tashqi bozorni erkinlashtirish kabi masalalarning raqobatbardoshlikka ta'sirini o'rganish isloxlarning keyingi bosqichida asosiy vazifa qilib belgilanishi lozim.

4. Bitiruv malakaviy ishilar shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda qishloq xo'jaligida xarajatlarni boshqarish tizimi mavjud emas, ushbu yo'nalishda monitoring yuritish tizimi shakllanmagan, bu esa o'z navbatida yetishtirilayotgan maxsulotlar tannarxini oshishiga, sifat va samaradorlik ko'rsatkichlarini pasayishiga sabab bo'lmoqda. Natijada qishloq xo'jaligi tarmog'ida faoliyat yakuni bo'yicha olinadigan daromad miqorini va manfaatdorlik darajasini, pirovard natijada esa tarmoq raqobatbardoshligini pasayishiga olib kelmoqda.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida asosiy maqsad davlat extiyojlari uchun yetishtirilayotgan qishloq xo'jaligi maxsulotlariga belgilanayotgan ishlab chiqarish rejasini bajarish qaratilgan, ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi, maxsulot sifatini oshirish masallari esa ikkinchi darajali bo'lib qolmoqda. Boshqacha qilib aytganda, maxsulot ishlab chiqarish tannarxini kamaytirish, rentabellikni oshirishga rag'batlantiruvchi chora-tadbirlar qo'llanilmayapti, ishlab chiqarishda iqtisodiy samarali sifatli xosil degan tushuncha e'tibordan chetda qolmoqda. Ya'ni, ishlab chiqilayotgan maxsulotlar raqobatbardoshligini oshirish va raqobat muxitini shakllantirish masalalari e'tibordan chetda qolmoqda.

5. Mamlakatimiz qishloq xo'jaligidagi ko'p yillik tajriba va rivojlangan davlatlarning qishloq xo'jaligini islox qilishda olib borayotgan siyosatlarini umumlashtirish shuni ko'rsatmoqdaki, bozor munosabatlari sharoitida erkin bozorlarda kuzatilayotgan jiddiy kamchilik va nomutanosibliklar davlatning aralashuvi yo'li bilan xal etiladi. Bunda, agrar soxani davlat tomonidan tartibga solish zaruriyati nafaqat ayrim bir omillarning ta'siri bilan, balki ko'plab omillarning, ayniqsa qishloq xo'jaligining va tarmoqda takror ishlab chiqarish

jarayonlari sharoitlarining o'ziga xos xususiyatlarini belgilab bir qator omillarning ta'siri bilan izoxlanadi.

Agrar soxani davlat tomonidan tartibga solish tizimi o'zida, qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining o'zgaruvchan bozor sharoitlariga moslashuvchanligi va raqobatbardoshligini ta'minlashga qaratilgan qonunchilik, ijro va nazorat ko'rinishidagi chora-tadbirlarni aks ettiradi. Umuman olganda, ushbu chora-tadbirlar tarkibiy jihatdan butun bir tashkiliy-ma'muriy, xuquqiy va iqtisodiy chora-tadbirlardan iborat bo'lishi lozim.

6. Qishloq xo'jaligi tarmog'ining raqobatbardoshligini ta'minlashni davlat tomonidan tartibga solish kontseptsiyasi quyidagi asosiy tamoyillar asosida tuzilishi lozimdir:

Mutanosiblik tamoyili – bunda, davlatning umumiy iqtisodiy siyosati bilan agrar siyosatning o'zaro mutanosibliigi nazarda tutiladi;

Bir butunlik tamoyili – Respublikamiz bo'yicha mukammal yagona agrar siyosatning ta'minlanishi;

Tenglik tamoyili – qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan o'z dasturlarini ishlab chiqishda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan sub'ektlarning teng xuquqliligi;

Tizimlilik tamoyili – bunda, mamlakatimiz qishloq xo'jaligining faoliyat yuritishini barcha soxa va jixatlarini qamrab oluvchi davlat tomonidan tartibga solishning turli shakl va usullaridan: ma'muriy, iqtisodiy va institutsional; bevosita va bilvosita, ichki va tashqi iqtisodiy usullaridan tizimli foydalanish nazarda tutilmoqda;

Samaradorlik tamoyili – strategiya barqarorlashtirish siyosatini amalga oshirishga, agrar soxa iqtisodiyotining rivojlanishiga va mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga imkon berishi lozim;

Erkinlik tamoyili – qishloq xo'jaligi va qishloqlarda faoliyat yuritayotgan xo'jalik sub'ektlari qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish dasturlarida imkoniyatlaridan kelib chiqqan xolda erkin ishtirok etilari lozim;

Universallashtirish tamoyili – samarali xo'jalik yuritish va mulkchilik shakllari, quyi tarmoqlarga yoki boshqa tegishliligidan qat'iy nazar faoliyat yuritish uchun bir xil sharoitlar tashkil qilish uchun yagona talablarni ilgari surish;

Ijtimoiy yo'naltirilganlik tamoyili – bunda, ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish, demografik xolatni yaxshilash, yangi ish o'rinlarini tashkil etish va qishloqlarda ishsizlikni qisqartirishga yo'naltirilgan dasturlarni rivojlantirish nazarda tutilmoqda;

Ma'suliyatlilik tamoyili – qishloq xo'jaligini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha qabul qilingan dasturlarni o'z vaqtida va to'liq moliyalashtirish uchun tegishli davlat boshqaruvi organlarining ma'suliyati va javobgarligi nazarda tutilmoqda.

7. Mamlakatimiz agrar tarmog'ini barqaror rivojlantirish, raqobatbardoshligini oshirish, mavjud shakllangan muammo va nomutanosibliklarni bartaraf etishda uzoq muddatli "Qishloq xo'jaligi tarmog'ini innovatsion yangilash va raqobatbardoshligini oshirish Strategiyasi"ni ishlab chiqish va bosqichma-bosqich amalga oshirish muxim ahamiyat kasb etadi. Ushbu strategiya mamlakatimizni istiqbolli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish siyosatining tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan xolda agrar siyosatning asosini tashkil qilishi lozim.

Qishloq xo'jaligi tarmog'ini innovatsion yangilash va bosqichma-bosqich raqobatbardoshligini oshirish strategiyasi tarmoqning raqobatbardoshligini shakllantirish maqsad va vazifalarini xalq etishdagi asosiy ustuvor yo'nalishlar va maqsadli ko'rsatkichlarni qishloq xo'jaligining nisbiy raqobat ustuvorliklari va resurslar salohiyatidan kelib chiqqan xolda belgilab berishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Huquqiy me'yoriy hujjatlar

1.1. O'zbekiston Respublikasi qonunlari

1.1.1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2003 yil. 40 b.

1.1.2. O'zbekiston Respublikasining “Dehqon xo'jaligi to'g'risida”gi Qonuni. T., 1998 yil.

1.1.3. O'zbekiston Respublikasining “Er to'g'risida”gi Qonuni. T., 1998 yil.

1.1.4. O'zbekiston Respublikasining “Mulk to'g'risida”gi Qonuni. T., 1998 yil

1.1.5. O'zbekiston Respublikasining “Fermer xo'jaligi to'g'risida”gi Qonuni. Yangi tahriri. T., 2004 yil.

1.2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari

1.2.1. Ukaz Prezidenta Respubliki Uzbekistan “O vajneyshix napravleniyax uglubleniya reform v sel skom xozyaystve”. 24 marta 2003 goda.

1.2.2. “2004–2006 yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish kontsepsiyasi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2003 yil 27 oktyabr, PF-3342. O'zbekiston Respublikasi Qonunlar to'plami. 2003 yil, №20.

1.2.3. “Lizing faoliyatini rivojlantirishni yanada rag'batlantirish chora tadbirlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2002 yil 28 avgust.

1.3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari

1.3.1. “Qishloqni lizing sharoitlarida qishloq xo'jaligi texnikasi bilan ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. 2000 yil 2 noyabr, № 424. O'zbekiston Respublikasi moliyaviy qonunlari. 16-ilova, 2000y. 32-88-b.

1.3.2. “Davlat ehtiyojlari uchun harid qilinayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishni mablag' bilan ta'minlash mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. 2002 yil 7 noyabr, №383.

1.3.3. Paxta xom ashyosi yetishtirishda bozor printsiplarini amalga oshirish va uni yetishtirishni tashkil etishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. 2003 yil 19 fevral, №93.

1.3.4. “2004–2006 yillarda fermer xo’jaliklarini rivojlantirish kontsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. 2003 yil 30 oktyabr, №476.

1.4. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti

asarlari va ma`ruzalari

1.5.1. Karimov I.A. O’zbekiston buyuk kelajak sari–T:«O’zbekiston»,1998–686 b.

1.5.2. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o’z qo’limiz bilan quramiz. T-7.- T.: «O’zbekiston», 1999 y. – 410 b.

1.5.3. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. T-8.– T.: «O’zbekiston», 2000 y. – 528 b.

1.5.4. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz ma`sulmiz. T-9. – T.: «O’zbekiston», 2001 y.- 432 b.

1.5.5. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak.T-10. – T.: O’zbekiston. 2002 y.-432 b.

1.5.6. Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o’z kuch-qudratimizga, hamjihatligimizga va qat`iy irodamizga bog’liq. T-12.-T.: 2004 y. – 400 b.

1.5.7. Karimov I.A. O’zbekiston ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy taraqqiyotining asosiy tamoyillari. – T.: O’zbekiston, 1995y., –75 b.

1.5.8. Karimov I.A. Iqtisodiyotni erkinlashtirish, resurslardan tejamkorik bilan foydalanish – bosh yo’limiz. 2001 yilda respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari, iqtisodiy islohotlarni borishini baholash hamda 2002 yilgi vazifalarga bag’ishlangan Vazirlar Mahkamasi yig’ilishida so’zlagan nutq. “Qishloq hayoti” ro`znomasi, 2002 yil 15 fevral.

1.5.9. I.A.Karimov. Vazirlar Mahkamasining 2002 yil birinchi yarim yilligida O’zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish yuzasidan ustivor vazifalar va topshiriqlarning bajarilishi hamda dolzarb muammolarning hal etilishi to’g’risidagi majlisida so’zlagan nutqi. “O’zbekiston ovozi” gazetasi, 2002 yil, 20 iyul, 2-bet.

1.5.10. Prezident Islom Karimovning 2002 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2003 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning asosiy yo’nalishlariga bag’ishlangan Vazirlar Maxkamasi majlisidagi ma`ruzasi. Toshkent sh., 2003y. 17 fevral.

1.5.11. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning viloyat, shahar, tumanlar hokimlari yig'ilishida so'zlagan nutqi. "Xalq so'zi", 1998 y. dekabr.

1.5.12. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi o'n ikkinchi chaqiriq X sessiyasida so'zlagan nutqi. - T., 1999.

1.5.13. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi. Prezident Islom Karimovning 2008 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi . 2009 yil 14 fevral , № 33-34 (4696-4697)

1.5.14. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi.//Xalq so'zi, 2011 yil 22 yanvar .

1.5.15. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza), "Xalq so'zi", 2010 yil 12 noyabr (№ 220),

1.5.16. Karimov I.A.«Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti» mavzusidagi xalqaro konferentsiyaning ochilish marosimidagi nutq // Xalq so'zi, 2012 yil 18 fevral .

1.5.17. Islom Karimov. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. – T.: "O'zbekiston", 2012. – 36 b.

1.5.18. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2012-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi 18.01.2013

1.5.19. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi 18.01.2014

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

2 Kitob va turkum nashrlari

- 2.1.1. Galeev I.B. Povo'shenie effektivnosti proizvodstva v xlopkoseyuhix kolxozax. – T.: «Fan», 1974. – 157 b.
- 2.1.2. Golovanov A.A. Stimulirovanie snijeniya sebestoimosti sel skoxozyaystvennoy produktsii. - M.: «Agropromizdat», 1985. –80 b.
- 2.1.3. Mamarasulov U.M. Iqtisodiyot va bozor munosabatlari. - T.: «Navro'z», 1996. – 448 b.
- 2.1.4. Murakaev M. Ishchi kuchidan foydalanish rezervlari. – T.: O'zbekiston, 1982. – 40 b.
- 2.1.5. Mashenkov V.F. Proizvoditel nost truda v sel skom xozyaystve. M.: «Kolos», 1974. – 222 b.
- 2.1.6. Mirrahimova X.M. Mehnatni tashkil qilish va paxtani tannarxini kamaytirish. - T.: O'zbekiston, 1971. – 48 b.
- 2.1.7. Nazarov R. Amerika paxtachiligi. –T.: «Mehnat», 1992.- 24 b.
- 2.1.8. Ratgauz. M.G. Stimulirovanie proizvodstva i truda v sel skom xozyaystve. - M.: «Ekonomika», 1982. – 126 b.
- 2.1.9. Togoev I.N. Ekonomiya obhestvennogo truda i tsenoobrazovanie na sel skoxozyaystvenno'e produkto'.- M.: «Mo'sl 2, 1996.-243 b
- 2.1.10. Turgunov.S. Rezervo' povo'sheniya proizvoditel nosti truda v xlopkovodstve-T.: «O'zbekiston»1968 y-152b.
- 2.1.11. Husanov R.H. Paxta xom ashyosini yetishtirishda yangi texnologiyaning asosiy mohiyati. – T.: «Mehnat», 1993. – 78 b.
- 2.1.12. Herbanya A.N. Nauchnaya organizatsiya truda i upravlenie.-M.: «Ekonomika», 1966 y.-431 b.
- 2.1.13. Adam Smit. An Into the Nature and Causes of the Wealth of Nations. New York, Random House, 1937, p.-326.
- 2.1.14. Abdurahmonov Q. Mamarasulov F. Mehnat iqtisodi –Toshkent: 1996-229 b.
- 2.1.15. Akramov A. Yo'lchiev A. Toshkent viloyatida dehqonchilikning ilmiy asoslangan tizimi. – T.: 2000 –205 b.
- 2.1.16. Glinyano'y V.G., Marto'shkin G.S. Ispol zovanie rabocheho vremeni v rastenievodstve. - M.: «Kolos», 1978. – 112 b.
- 2.1.17. Radjapov R., Musaxodjaeva N. Kompleksnaya mexanizatsiya i rost proizvoditel nosti truda v xlopkovodstve.-T.: «Mehnat», 1986 y.-110b.

- 2.1.18. Zokirov A., Jo'raev A. Fan-texnika taraqqiyoti va paxtachilik. - T.: «Mehnat», 1987. – 84 b.
- 2.1.19. Petrenko I.Ya., Chujinov P.I. Ekonomika sel skoxozyaystvennogo proizvodstva. – Alma-ata: 1992-559 b.
- 2.1.20. Xasanjanov K.A. Muxammedov M.F. Effektivnost primeneniya mineral no'x udobreniy v xlopkovodstve. – Toshkent: 1971-19 b.
- 2.1.21. O'lmasov A. To'xliev N. Bozor iqtisodiyoti. T.: Qomuslar, 1991- 138 b.
- 2.1.22. Kayumov F. Danilova L. Axmedova R. Rezervo' povo'sheniya proizvoditel nosti truda v xlopkovodstve. – T.: «Mehnat», 1986. – 137 b.
- 2.1.23. Nazarova M.G., Parteshko N.S., Rummyantsev V.N. Statistika truda. – M.: «Finanso' i statistika», 1981.- 285 b.
- 2.1.24. Xusanov R.X., Chernov A.P., Li M.R. teoriya ekologo-ekonomicheskix osnov razvitiya sel skogo xozyaystva. – T.: 2003.- 51 b.
- 2.1.25. Kozlova O.V., Bishaev M.A., Lenskaya S.A., Murzov K.I. Trud, texnika, ekonomika. – M.: «Mo'sl », 1970.- 318 b.
- 2.1.26. Shog'ulomov R., Hakim S., Husanov R., Mansurov Sh. Mustaqil yurt g'allasi. - T.: «O'zbekiston», 2003.- 134 b.
- 2.1.27. Aktual no'e voproso' ekonomiki sel skogo xozyaystva G' S.N.Usmanov taxriri ostida - T.: «O'zbekiston», 1984 – 179 b.
- 2.1.28. Povo'shenie proizvoditel nosti sel skoxozyaystvennogo truda G' Mashenkov V.F., Ivanov P.F., Cherkashinova O.I. i dr.: Mashenkov V.F. taxriri ostida.- M.: «Kolos», 1983 –319 b.
- 2.1.29. Rol finansov i kredita v povo'shenii proizvoditel nosti truda G' A.G. Gryaznova, M.S. Atlas, D.S. Molyakov i dr.: A.G. Gryaznova taxriri ostida. - M.: Finanso' i statistika, 1990 - 222 b.
- 2.1.30. Statisticheskoe izuchenie proizvoditel nosti truda G'. A.G.Volkov, V.M.Simchera i dr.; T.V. Ryabushkin taxriri ostida – Moskva: Nauka, 1981 – 408 b.
- 2.1.31. Organizatsiya proizvodstva na sel skoxozyaystvenno'x predpriyatiyax G' B.I.Yakovlev, S.I. Azev, E.I.Galkin i dr.; B.I.Yakovlev taxriri ostida. – M.: «Agropromizdat», 1989- 409 b.

2.1.32. Otoboev A., Xusanov R., Qosimov M., Xamdamiyov A., Egamberdiev T., Inoyatov A., Shalimov B. Fermerlik xarakatini rivojlantirishda Yozyovon tajribasi. –T.: «Mehnat», 2003. – 101 b.

2.2. Ko'p tomli kitoblar:

2.2.1. Makkonel. K.R., Bryu S.L. Ekonomiks: Printso'pi, problemo' i politika. Tallin, 1993. V 2 t.: 399-400 s.

4.1 Xudoyberdiev Z. Mehnatda bandlikning nazariy tavsifi. // J. Iqtisod va hisobot. – 1997 № 6. – B. 72-73.

6. Hisobotlar va statistik materiallar

6.1. O'zbekiston Respublikasining 2013 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari.-T.:2014.-161 b.

6.2. O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tizimidagi qishloq xo'jalik korxonalarining 2001-2012 yillardagi yig'ma xisobotlari.

6.3. Namangan viloyat ststistikasi ma'lumotlari.

7. Internet saytlari

6.1. www.encycl.accoona.ru

6.2. www.technormativ.ru/main.phpes,

6.3. www.dev.csoft.spb.ru/Doclist/folder/648.html,

6.4. www.book.uz, study40.com.ru/book-44408.html.

6.5. www.stat.uz